



UO'K:314.1(575.114-25)

Jahongir ABDAZOV,
O'zbekiston Milliy universiteti stajyor o'qituvchisi
E-mail: abdazovjinfo@gmail.com

O'zMU dotsenti, PhD M.Egamberdiyeva taqrizi asosida

JIZZAX SHAHRI DEMOGRAFIK RIVOJLANISHINING AYRIM MASALALARI

Annotatsiya

Jizzax shahri demografik holati so'nggi o'n yillik davomida sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Ushbu davr mobaynida aholi sonining o'sishi, tabiiy-demografik jarayonlarning dinamikasi va yosh-jins tarkibidagi o'zgarishlar kuzatildi. Ushbu tadqiqotda Jizzax shahrining demografik holati atroflicha o'rganilib, aholi sonining tabiiy ko'payishi va migratsion jarayonlar natijasida yuzaga kelgan demografik siljishlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Demografiya, mehnat resurslari, tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish, tabiiy ko'payish, migratsiya, aholining jinsiy tarkibi, aholi zichligi.

SOME ASPECTS OF DEMOGRAPHIC DEVELOPMENT IN THE CITY OF JIZZAKH

Annotation

The demographic situation in the city of Jizzakh has undergone significant changes over the past decade. During this period, population growth, dynamics of natural demographic processes, and shifts in the age and gender composition were observed. This study thoroughly examines the demographic situation of Jizzakh city, analyzing the demographic changes resulting from natural population growth and migration processes.

Key words: Demography, labor resources, birth, death, marriage, divorce, natural reproduction, migration, sex composition of the population, population density.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ДЕМОГРАФИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ГОРОДА ДЖИЗАКА

Аннотация

Демографическая ситуация города Джизака претерпела значительные изменения за последнее десятилетие. В течение этого периода наблюдался рост численности населения, изменения в динамике естественных демографических процессов и в возрастно-половой структуре. В данном исследовании подробно рассматривается демографическая ситуация города Джизака, анализируются демографические сдвиги, вызванные естественным приростом населения и миграционными процессами.

Ключевые слова: Демография, трудовые ресурсы, рождаемость, смертность, брак, развод, естественный прирост, миграция.

Kirish. Oxirgi yillarda mamlakatimizda demografik jarayonlar jadallik bilan rivojlanib, aholi tarkibida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Ushbu o'zgarishlar respublikamizning turli hududlarida mahalliy xususiyatlardan kelib chiqib shakllanmoqda. Bu jarayonlar, avvalo, tug'ilish, o'lim va urbanizatsiya kabi tabiiy demografik omillarda aks etib, mehnat resurslarining tabiiy takror barpo bo'lishiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, so'nggi o'n yilliklarda aholining yosh tarkibidagi siljishlar demografik jarayonlarga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Yaqin kelajakda ushbu jarayonlarni tahlil qilish ijtimoiy rivojlanish, yangi ish o'rinlarini yaratish, ta'lim muassasalarining sig'imini oshirish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish kabi muhim masalalarni hal etishda katta ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Aholi farovonligini oshirish, ularning sifatli ta'lim va tibbiy xizmatlardan foydalanishini ta'minlash bizning ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi"[1]. Demografik jarayonlarning tahlili esa ushbu maqsadlarga erishish yo'lida muhim vositalardan biri hisoblanadi. Shu bois, bugungi kunda aholining soni, yosh tarkibi va hududiy joylashuvini chuqur o'rganish va unga asoslangan holda strategik rejalashtirish olib borish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shahar aholisi o'sishi va migratsiya oqimlarining iqtisodiy-geografik xususiyatlari urbanizatsiya jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Xususan, Jizzax shahri migratsion jozibadorlik darajasi bo'yicha o'rta darajadagi shaharlardan biri bo'lib, bu yerga asosan viloyatning qishloq hududlaridan ko'chib kelish kuzatilmoqda. Shu sababli, iqtisodiy zonalar tashkil etish va sanoat salohiyatini oshirish migratsiya oqimlarini samarali boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi[2].

M.M. Egamberdiyeva shaharlar rivojlanishining mintaqaviy muammolarini tahlil qilib, iqtisodiy salohiyatning oshishi urbanizatsiya jarayonini tezlashtirishini ta'kidlaydi[3]. Uning fikriga ko'ra, shahar infratuzilmasini rivojlantirish, transport va kommunal xizmatlar tizimini yaxshilash migratsiya oqimlarini tartibga solishda muhim omillardan biri hisoblanadi.


Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda Jizzax shahri demografik rivojlanishining asosiy omillari va urbanizatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari tahlil qilindi va quyida keltirilgan tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Statistik tahlil yordamida aholi soni, migratsiya, tug'ilish va o'lim darajasi o'rganildi. Geodemografik tahlil orqali yosh tarkibi va gender nisbati tahlil qilinib, urbanizatsiya jarayonlari bilan bog'liqligi aniqlandi. Ekonometrik modellashirish asosida esa kelgusi demografik o'sish va migratsiya prognozlarini ishlab chiqilib, shahar infratuzilmasi rivojiga oid tavsiyalar berildi.

Tahlil va natijalar. Jizzax viloyati aholisi soni 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 1 507,4 ming kishini tashkil etib, respublika umumiy aholisining 4,1 foizdan ortiq qismini tashkil qiladi. Bu viloyatni O'zbekiston hududlari orasida aholisi soni bo'yicha 10-o'ringa qo'yadi. So'nggi 40 yil davomida viloyat aholisi besh martadan ortiq ko'paygan bo'lib, ushbu demografik o'sish Jizzax cho'lining o'zlashtirilishi, tashqi mehnat resurslarining jalb qilinishi, hamda qulay ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillar bilan izohlanadi [10].

Tabiiy o'sish viloyat aholisi sonining ortishida muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda tabiiy o'sish ko'rsatkichi har ming kishiga 20–25 nafarni tashkil etmoqda, bu esa viloyatning demografik barqarorligini saqlab qolish va urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qilmoqda. Aholi zichligining ortishi va shahar aholisi ulushining o'sishi urbanizatsiya jarayonining jadal kechayotganidan dalolat beradi. 1973-yilda viloyat umumiy aholisining atigi 19 foizi (76 ming kishi) shaharlarda istiqomat qilgan bo'lsa [2], 2024-yilga kelib, shahar aholisi 707,3 ming kishiga yetib, umumiy aholining 47 foizini tashkil etmoqda. Bu davr mobaynida viloyat miqyosida shahar aholisi 9,3 barobardan ortiq ko'paygan bo'lib, ushbu ko'rsatkich respublika miqyosidagi eng yuqori urbanizatsiya sur'atlaridan biri hisoblanadi.

Urbanizatsiya darajasi faqatgina shahar aholisi ulushi bilan emas, balki aholi zichligi bilan ham belgilanadi. 2024-yil holatiga ko'ra, viloyatning umumiy aholisi zichligi 1 km kv. ga 71,1 kishini tashkil etgan bo'lsa, Jizzax shahri hududida ushbu ko'rsatkich ancha yuqori bo'lib, 1 km kv ga 2031,1 kishiga tengdir. Taqqoslash uchun, 2010-yilda bu ko'rsatkich 1467,0 kishini, 2015-yilda esa 1650,0 kishini tashkil etgan. Bu esa Jizzax shahrida urbanizatsiya jarayonlarining jadallashayotganini, shahar infratuzilmasining rivojlanishini hamda migratsiya oqimlarining ortib borayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, so'nggi 15 yil ichida Jizzax shahrida aholi zichligi yillik o'rtacha 10–20 kishiga oshib bormoqda. Ushbu dinamik o'zgarishlar shahar hududida demografik jarayonlarning faolligini hamda urbanizatsiyaning sifat jihatdan yuksalayotganini tasdiqlaydi. Urbanizatsiya darajasining bunday yuqori sur'atlarda oshishi kelgusida Jizzax shahrining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda aholi zichligi (1-rasm) va demografik jarayonlarni chuqur tahlil qilish zaruriyatini ko'rsatadi.



1-rasm. Grafik Jizzax viloyat statistika ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Jizzax shahri aholisi jinsiy tarkibining nisbatan muvozanatlanganligi bilan ajralib turib, erkaklar va ayollar ulushi deyarli tengdir. Aholining jinsiy nisbatiga asosan tabiiy harakat jarayonlari, jumladan, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari bevosita ta'sir ko'rsatadi.

2023-yil davomida Jizzax viloyati bo'yicha jami 40 875 nafar chaqaloq dunyoga kelgan bo'lib, shundan 19 619 nafari o'g'il bolalar, 21 256 nafari esa qiz bolalarni tashkil etgan. Xususan, Jizzax shahri bo'yicha tug'ilish ko'rsatkichi 4 962 nafarni tashkil etib, har ming kishiga 26 chaqaloq to'g'ri kelgan. Ushbu demografik ko'rsatkich mamlakat bo'yicha o'rtacha darajaga mos keladi. Tug'ilgan chaqaloqlarning 2 390 nafari o'g'il bolalar, 2 572 nafari esa qiz bolalardan iborat bo'lib, shahar sharoitidagi bunday yuqori tug'ilish darajasi aholining milliy tarkibi hamda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan izohlash mumkin.

O'lim darajasi esa so'nggi yillarda turli omillar, jumladan, pandemiya ta'siri natijasida o'zgaruvchan dinamikaga ega bo'ldi. 2019-yilda Jizzax viloyatida 5 519 nafar o'lim holati qayd etilgan bo'lsa, 2020 va 2021-yillarda ushbu ko'rsatkich mos ravishda 6 021 va 5 930 tani tashkil etgan. 2023-yilda esa o'lim soni 6 841 nafarga yetgan. Viloyat bo'yicha o'lim koeffitsiyenti 2020–2023-yillar oralig'ida har ming kishiga mos ravishda 4,0 4,3 va 4,2 promilleni tashkil etgan. Taqqoslash uchun, shu davr mobaynida mamlakat bo'yicha ushbu ko'rsatkich 4,6 5,2 va 5,0 promille darajasida qayd etilgan.

Jizzax shahri miqyosida o'lim darajasi so'nggi yillarda o'sish tendensiyasiga ega. 2019-yilda shaharda 658 nafar o'lim qayd etilgan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 848 nafarga, 2021-yilda esa 771 nafarga yetgan. O'lim koeffitsiyenti shahar aholisi hisobiga har ming kishiga 4,2 promillega teng bo'lib, bu ko'rsatkich respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan biroz yuqori ekanligiga dalolat qiladi.

Umuman olganda, Jizzax shahri demografik jihatdan barqaror o'sish sur'atiga ega bo'lib, tug'ilish darajasi yuqori bo'lishiga qaramay, o'limning nisbiy ortishi migratsiya jarayonlari, aholining yosh tarkibidagi o'zgarishlar hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liq. Kelgusida demografik rivojlanish tendensiyalarini chuqur o'rganish va urbanizatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liq tarzda infratuzilma rivojlanishini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

Jizzax shahri aholisining tabiiy harakati ko'rsatkichi (2014-2021 yillar davomida) Jizzax viloyat statistika ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Yillar	Jami aholi(S ₀) ming	Tug'ilish (N)	O'lim (M)	Imigrant-lar (P)	Emigrant-lar (V)	Yil oxiridagi aholi (S ₁)	Tabiiy ko'payish (AS)
2023	191,6	4962	830	1484	1451	195785	4165,0
2020	177,4	4079	848	1765	1936	180460	3060,0
2019	174,4	3963	658	1933	2192	177446	3046,0
2018	171,7	3627	713	1919	2166	174367	2667,0
2017	169,6	3213	720	1547	1898	171742	2142,0
2016	167,4	3369	696	1251	1701	169623	2223,0
2015	165,0	3244	679	1442	1674	167333	2333,0
2014	163,2	3028	643	1263	1816	165032	1832,0

Bugungi kunda aholi tabiiy harakati ko'rsatkichlariga yildan yilga salmog'i ortib borayotgan ajrimlar ham salmoqli ta'sir ko'rsatmoqda. 2023-yil davomida viloyatda jami 1679 ta ajrim holatlari qayd etilgan bo'lib shundan 980 tasi shaharlar hissasiga to'g'ri keladi. Shahar aholi manzilgohlarida qayd etilgan ajrimlarning aynan 285 tasi Jizzax shahri hududida qayd etilgandir.

2-jadval

Jizzax shahrida iqtisodiy faol aholi sonining o'zgarishi. Jizzax viloyat statistika ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

T/r	Yillar	Iqtisodiy faol aholi soni, ming kishi	Shu jumladan		Ishsizlik darajasi, foizda
			Iqtisodiyotda bandlar	ishsizlar	
1	2023	83,0	77,9	5,1	6,2
2	2022	83,0	78,0	7,4	8,7
3	2021	86,8	78,4	8,4	10,2
4	2020	85,1	76,0	9,1	10,7
5	2019	84,3	77,2	7,2	8,6
6	2018	80,1	72,8	7,4	9,2
7	2017	84,1	83,7	3,0	4,5

Jizzax shahrida iqtisodiy faol aholi soni 85,3 ming kishini tashkil etib, umumiy aholi tarkibida sezilarli ulushga ega. Iqtisodiy faol aholi tarkibida 76,0 ming kishi (90,0%) band bo'lsa, 9,1 ming kishi (10,7%) ishsizlar safini to'ldiradi. So'nggi to'rt yillik tahlillar iqtisodiy faol aholi tarkibida bandlik darajasining izchil ortib borayotganligini, aksincha, ishsizlik darajasining pasayib borayotganligini ko'rsatadi. Bu jarayon iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda mehnat bozorining dinamik o'zgarishlari bilan izohlanadi.

Shahar aholisi yosh tarkibi bo'yicha ham strukturaviy o'zgarishlarga uchramoqda. 2015–2023-yillar davomida turli yosh toifalari bo'yicha aholi sonining dinamikasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, 0–2 yosh oralig'idagi bolalar soni 37% dan ortiqroq o'sgan bo'lsa, 3 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar sonida deyarli sezilarli o'zgarish kuzatilmagan. 16–24 yosh oralig'idagi aholi ulushining kamayishi esa demografik jarayonlar hamda migratsiya omillari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

25–49 yosh toifasidagi aholi ulushi izchil o'sish tendensiyasini namoyon etgan bo'lsa, 50–59 yosh oralig'idagi aholi soni barqaror saqlanib qolgan. 60 yoshdan yuqori aholi soni esa demografik jarayonlar va umuman umr ko'rish davomiyligining oshishi natijasida ortib bormoqda. Shu bilan birga, pandemiya ta'siri natijasida 80–84 yosh hamda 85 yoshdan kattalar toifasidagi aholi sonida sezilarli qisqarish kuzatilgan.

3-jadval

Jizzax shahri aholisining yosh tarkibi. Jizzax viloyat statistika ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Yillar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
0-2	9350	9522	9839	10441	11388	13493	15058	15807
3-5	8473	8602	8825	9216	9380	9896	10574	11551
6-7	6314	5781	5597	5632	5656	6063	6382	6362
8-15	24242	24564	24712	24482	24073	24039	23971	23860
16-17	6048	5949	5642	5581	5975	30102	6097	6169
18-19	6247	5818	6024	5968	5627	6317	5998	6279
20-24	18278	17533	16941	16407	15949	15479	14837	14761
25-29	17206	17985	18399	18878	18887	18773	17992	17327
30-34	14936	15969	16120	16257	16877	17504	18355	18775
35-39	11600	11655	12580	13125	13839	14899	16037	16286
40-49	17459	17963	18402	19453	19778	20372	20856	22110
50-59	15947	15916	15889	15638	15634	15623	15456	15624
60-69	9081	9969	10635	11282	11818	12706	13507	13628
70-74	1114	1147	1455	1855	3283	3486	3665	3995
75-79	1280	1250	1172	967	1546	1643	1651	1921
80-89	2017	793	834	880	579	705	1119	1269
90 yosh va kattalar		1318	1334	1385	227	241	65	61

Yuqorida keltirilgan 3-jadval 2017–2024-yillar oralig'ida Jizzax shahri aholisi yosh tarkibining dinamik o'zgarishlarini aks ettiradi. Ushbu davrda aholining yosh tarkibida sezilarli o'zgarishlar kuzatilib, urbanizatsiya jarayonlari, migratsiya va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bu jarayonga ta'sir ko'rsatgan. 0-2 yosh oralig'idagi bolalar sonining 69% dan ortiq o'sishi demografik o'sish sur'atining yuqoriligini tasdiqlaydi. 3–15 yosh guruhida muvozanat saqlangan bo'lsa, 16–24 yoshdagi aholining kamayishi migratsiya va mehnat bozoriga bog'liq bo'lishi mumkin. 25–49 yoshdagi aholi ulushining ortishi shahar iqtisodiyotining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

50–59 yoshdagi aholining soni barqaror qolgan bo'lsa, 60 yoshdan yuqori guruhda sezilarli o'sish kuzatilgan. Biroq, pandemiya ta'siri natijasida 80 yoshdan yuqori aholi sonining qisqarishi kuzatilgan bo'lib, bu sog'liq bilan bog'liq muammolar kuchayganini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. Jizzax shahri demografik rivojlanishi so'nggi yillarda aholining tabiiy o'sishi va urbanizatsiya jarayonining jadallashuvi bilan ajralib turadi. Tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlarining dinamikasi, iqtisodiy faol aholining bandlik darajasi hamda yosh tarkibidagi o'zgarishlar shahar infratuzilmasi va ijtimoiy xizmatlar tizimiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Aholi zichligi ortib borayotganiga qaramay, uy-joy, transport va ijtimoiy xizmatlar yetarlicha rivojlanmayapti. Yoshlar orasida, ayniqsa, 16–24 yosh toifasida kamayish kuzatilmoqda, bu ta'lim va bandlik muammolarini yuzaga keltirishi mumkin. Mehnat bozorida bandlik ortib bormoqda, ammo yangi ish o'rinlarini yaratish va kasbiy tayyorgarlik tizimini rivojlantirish talab etiladi. O'lim darajasining oshishi esa sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish zaruratini ko'rsatadi.

Shaharni barqaror rivojlantirish uchun infratuzilmani takomillashtirish, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish hamda urbanizatsiya jarayonini muvozanatlashtirish lozim. Demografik jarayonlarni samarali boshqarish orqali Jizzax shahrining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2023-yil 22-dekabrda oliy majlisga murojatnomasidan.
2. Tojiev Z.N. Jizzax viloyatining aholining o'sishi va joylanishidagi muammolar. Dissertatsiya- Toshkent 1998.
3. Egamberdiyeva.M.M. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shaharlar rivojlanishining mintaqaviy muammolari (Toshkent viloyati misolida). Dissertatsiya -T.: 2008
4. Soliev A., Muhammadaliev R. Fundamentals of economic geography. T.: Uzbekistan. 1996. 69 b.
5. Axmedov A.A. Urbanizatsiya jarayonlari va uning hududiy rivojlanish tendensiyalari. Monografiya – Toshkent: Fan, 2015.

6. Islomov I.I. O'zbekiston aholisining demografik rivojlanish xususiyatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
7. Rashidov U.R. O'zbekiston shaharlarining iqtisodiy-geografik rivojlanishi. Monografiya – Toshkent: Universitet, 2016.
8. Mamatov B.B. Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning demografik omillari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2012.
9. Karimov N.K. Aholi geografiyasi va urbanizatsiya jarayonlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2014.
10. Barcha raqamli malumotlar Jizzax viloyat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida Berilgan. <http://www.jizzaxstat.uz/>



UDK: 550.814:(629.783: 525)

Abror ABDULLAYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: abrorabdulaev1987@gmail.com
Nizomiddin SOATOV,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

G.-m.f.n., dotsent M.Jurayev taqrizi asosida

О РУДОНОСНОСТИ МАЛЫХ ИНТРУЗИЙ И ДАЕК МАЛЬГУЗАРСКИХ ГОР

Аннотация

Представлены систематические петрологические, минералогические, геохимические и хронологические данные по мальгузарским габбро-долеритам Западно-Тянь-Шаньского орогена для изучения их петрогенеза, мантийного источника и тектонической обстановки. Образцы содержат большое количество титаномagnetита (в среднем до 4% по объему), а основные породообразующие минералы, такие, как плагиоклаз, клинопироксен и амфибол, обогащены железом и титаном, что свидетельствует о железо- и титанонасыщенной магматической системе.

Ключевые слова: субвулканические образования, малые интрузии, дайки, габбро-долериты, габбро-диабазы, диабазы, дайковый пояс, рифтовая зона, дифференциация, кумулаты, геодинамика, Мальгузар, Южный Тянь-Шань

ON THE ORE CONTENT OF SMALL INTRUSIONS AND DIKES OF THE MALGUZAR MOUNTAINS

Annotation

Systematic petrological, mineralogical, geochemical and chronological data on the Malguzar gabbro-dolerites of the West Tien Shan orogen are presented to study their petrogenesis, mantle source and tectonic setting. The samples contain a large amount of titanomagnetite (up to 4% by volume on average), and the main rock-forming minerals such as plagioclase, clinopyroxene and amphibole are enriched in iron and titanium, indicating an iron- and titanium-saturated magmatic system.

Key words: subvolcanic formations, small intrusions, dikes, gabbro-dolerites, gabbro-diabases, diabases, dike belt, rift zone, differentiation, cumulates, geodynamics, Malguzar, Southern Tien Shan

MALGUZAR TOG'LARINING KICHIK INTRUZIYALARI VA DAYKLARINING MA'DANDORLIGI

Annotatsiya

G'arbiy Tyan-Shan orogenining Malguzar gabbrodoleritlari to'g'risida tizimli petrologik, mineralogik, geokimyoviy va xronologik ma'lumotlar ularning petrogenezi, mantiya manbai va tektonik joylashuvini o'rganish uchun keltirilgan. Namunalarda ko'p miqdorda titanomagnetit (o'rtacha hajm bo'yicha 4% gacha) va plagioklaz, klinopiroksen va amfibol kabi asosiy tosh hosil qiluvchi minerallar temir va titan bilan boyitilgan, bu temir va titanga boy magmatik tizimni ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: subvolkanik shakllanishlar, mayda intruziyalar, dambalar, gabbro-doleritlar, gabbro-diabazlar, diabazlar, damba kamari, rift zonasi, differentsiallanish, kumulyatlar, geodinamika, Malguzar, Janubiy Tyan-Shan

Введение: Под термином «малые интрузии» понимаются генетически самостоятельные от крупных плутонов и вулканических проявлений мелкие малоглубинные тела средне-основного и кислого составов повышенной щелочности, возникающие обычно на поздних этапах тектономагматического цикла и при активизации, сопровождаемые характерной (медно-порфировой, редкометалльной) металлогенией [1, 2].

Дайками называют плитообразные, стенообразные тела, ограниченные двумя примерно параллельными поверхностями и резко секущие по отношению к вмещающим породам. Дайки могут иметь самый различный состав, которые образуют дайковые поля, рои и пучки. По морфологии и соотношению с общей структурой выделяют несколько морфологических типов даек: линейные, конические, кольцевые, радиальные, а по генетическому систематике субвулканические, гипабиссальные, плутонические, сининтрузивные и др. [3].

В материале даны общие сведения о малых интрузиях и даекх Мальгузарских гор, которые в 1978 году В.В.Барановым [4] и др. объединены в единую габбро-диорит-диабазовую формацию, другие - как пикрит-габбро-диабазовый [5], диабаз-диорит-гранитоидный [6] диабаз-гранитоидный [7] или габбро-диабазовый комплекс [8].

В геологическом строении принимают участие разнообразные по литологическому составу и интенсивно дислоцированные терригенные образования нижнего палеозоя. Отложения среднего и верхнего палеозоя распространены незначительно, представлены терригенно-карбонатными и карбонатными образованиями. Сравнительно широко распространены осадочные образования кайнозоя (см. рис. 1).

Палеозойские образования – самые древние в регионе и в их составе выделяются отложения силура, девона, карбона, а также нерасчлененные отложения склоновой части гор и долин рек.

Рассмотрим ниже подробнее отложения палеозоя.

Ландоверийский ярус (S_1ln). Отложения яруса широко развиты на северных склонах гор Чумкуртау и на южных и северных склонах Мальгузарских гор. Литологический состав отложений довольно однообразный. Это сланцы различного состава с подчиненными прослоями кварцевых и полимиктовых песчаников, алевролитов, известняков, туфопесчаников и туфоалевролитов.

В междуречье Узунбулаксай–Умарсай в составе отложений встречаются пластовые тела офиолитов и диабазовых порфиритов мощностью 6-10 м.

Венлокский ярус (S_{1w}). Отложения указанного возраста распространены на большей части исследованной площади, на южных и, частично, северных склонах Мальгузарских гор. Они согласно залегают на отложениях лландоверийского яруса. В основании разреза венлокских отложений преобладают плотные разнотекстурные кварцевые и полимиктовые песчаники, реже представлены пачками различных сланцев мощностью до 10 м. Верхняя часть разреза сложена слюдястыми сланцами, аргиллитами, кварцевыми песчаниками и алевролитами с редкими маломощными телами дацит-андезитовых порфиритов. Отмечаются маломощные прослои и линзы гравелитов и мелкогалечных конгломератов с грубоокатанными обломками кремнистых и песчаных пород.

Лудловский ярус (S_{2ld}). Отложения лудловского яруса развиты в основном в приводораздельной части южных склонов Мальгузарских гор и тектонически залегают на отложениях венлока. Представлены они слюдясто-глинистыми сланцами с прослоями и линзами известняков, доломитов, кремней, алевролитов и песчаников мощностью 5-15 м.

Дайки основного состава (габбро, габбро-диориты, габбро-диабазы, диабазы и диабазовые порфириты) пользуются значительным распространением. Они образуют дайковый пояс северо-западного простирания на северном склоне Мальгузарских гор в терригенных образованиях ордовика и силура, а также отмечаются на остальной площади развития палеозойских образований. Мощность даек колеблется от нескольких сантиметров до 15 м.

В центральной части этого массива мощность отдельных даек достигает 200-300 м, а длина - нескольких десятков километров. Часто дайки имеют сложную форму, образуя коленчатые изгибы и апофизы. Обычно же они прямолинейные, с крутыми ($70-80^\circ$) углами падения.

Эволюция толеитовой магмы, в зависимости от степени её дифференциации, обусловила накопление в ней титана и железа, приведшее, в конечном счете, к металлогенической специализации габбро-диабазов на эти и другие элементы группы железа. Железо-титановое оруденение проявилось в них в виде вкраплений и шширообразных скоплений ильменита [8].

Наиболее перспективной на золоторудного проявления [9, 10, 11] в пределах Мальгузарских гор является группа мелких тел даек штокообразной формы, характеризующих Карачибулакский интрузивный массив, отдельные выходы которого отмечаются в пределах северо-западной оконечности Мальгузарских гор. Параметры тел имеют от нескольких метров до первых километров как в длину, так и в ширину.

В Карачибулакском интрузиве выделяются три фазы тектономагматического цикла: диоритовая; гранодиоритовая ($\delta C_2 - \chi C_2$) и гранитовая (γC_2).



Рис.1. Геологическая карта Мальгузарской площади.

Масштаб: 1:50000. Составили Т.К.Артиков, А.Х.Абдуллаев, Ш.Б.Исмаилов, 2012 г. С первой фазой, по-видимому, связаны небольшие штоки, дайки диоритов и дайки основного состава, прорывающие терригенные толщи ордовика, силура и карбона ($C_{2m1}-C_2$). Диориты темно-серого цвета, полнокристаллические, мелкозернистые с массивной текстурой. Состоят из плагиоклаза, амфибола, пироксена, хлорита, титаномagnetита, лейкоксена, сфена, карбоната, апатита и кварца. Небольшой шток диоритов находится на северном склоне южной части площади. Шток вытянут в северо-западном направлении на 2 км при ширине до 1,2 км. Также развиты мелкие дайки протяженностью от 1 до 10 м.

Ко второй фазе магматизма отнесены гранодиорит-порфиры. Они вытянуты в северо-западном направлении на 2,5 км при максимальной ширине 0,7 км. Контакты их с нижнесилурийскими отложениями неровные, находятся в основном на покрытом делювием склоне. К западу и северо-западу от основного выхода интрузива отмечено несколько мелких выходов, из которых наибольший достигает 250-300 м длины. Все они, по-видимому, представляют единое, не полностью вскрытое тело.

В западной части Карачибулакского штока вмещающие нижнесилурийские породы ороговикованы и сканированы. Скарновые известняки и сланцы серо-зеленые с тонкой вкрапленностью рудных минералов. О скарновых новообразований встречается моноклиальный пироксен.

Гранодиорит-порфиры серые, имеют ясную порфировую структуру и микрогранитовую структуру основной массы. Порфировые выделения составляют 30- 40% и представлены плагиоклазом, кварцем и калиевым полевым шпатом с единичными чешуйками слюды. Вторичные минералы в этих породах представлены альбитом, пелитом, эпидотом, хлоритом, карбонатом, гидрослюда, гидроокислами железа и редко рутилом. Из аксессуарных встречаются апатит, циркон и сфен.

К третьей фазе магматизма отнесены дайки кислых пород. Они прорывают ордовикские, девонские и каменноугольные ($C_{2gp2}-C_3$) отложения и секут дайки основных пород. Эти дайки от 3 до 50 м мощности и протяженностью от 10 до 500 м имеют северо-западное простирание. В составе их преобладают граниты-порфиры, аплиты и сиениты.

Помимо интрузивных образований широкое развитие на площади имеют жилы кварца, приуроченные к зонам разломов и местам интенсивной дислоцированы. Они развиты в терригенных образованиях и отмечены в карбонатных отложениях девона и карбона. Мощность жил до 10 м, длина - до 300 м.

Установлена тесная взаимосвязь интрузивных пород с вольфрамовой минерализацией, которая связана со скарнированными карбонатными и терригенными породами на контакте их с Каранчибулакским штоком гранодиорит-порфиров. Содержание вольфрама достигает до 0,3% [11]. Вместе с тем, перспективы данного типа оруденения до конца не выяснены.

Вывод. Проанализированный материал по рудоносности Мальгузарских гор позволяет заключить, что в качестве рудовмещающей среды выступают терригенные образования нижнего силура, подвергнутые в высокой степени метасоматическим изменениям (окварцевание, серицитизация, аргиллитизация, карбонатизация, графитизация) и разломная тектоника – крутопадающие разломы, зоны смятия и расланцевания, зоны субпараллельных крупных разрывных структур.

ЛИТЕРАТУРА

1. Шипулин Ф.К. Самостоятельные малые интрузии и их металлогеническое значение // Вопросы металлогении. Междунар. геол. конгресс, XXII сессия, док. советских геологов, проблема 16. - М.: Недра, 1965. - С.120-129.
2. Хамрабаев И.Х., Бабаходжаев С.М., Павлов В.А., Айзенштат В.И. Малые интрузии и их таксономия (на примере Средней Азии) //Мат-лы V Среднеазиатского регионального петрографического совещ. «Магматизм и геолкарта-50 Средней Азии». - Душанбе: Дониш, 1988. - С. 57-67.
3. Баранов В.В., Кромская К.М., Висьневский Я.С. Габброидные комплексы западной части Южного Тянь-Шаня и их минерогения. — Ташкент: «Фан», 1978. 168 с
4. Семенов Ю.Л. Габбро-перидотитовые и пикрит-габбро-диабазовые комплексы Тянь-Шаня и Памира М.: «Недра», 1982.212 с.
5. Туляганов Х.Т., Юдалевич З.А., Коржаев В.П. и др. Карта магматических комплексов Узбекской ССР. Ташкент: «Фан»,1984. 346 с.
6. Геология и полезные ископаемые Республики Узбекистан //Глав, ред.. Т.ШТНаякубов. Т.Н.Далимов. - Ташкент: «Университет», 1998. 724 с.
7. Ганиев И.Н., Мусаев А.М., Ишбаев Х.Д., Условия образования рудоносной габбро-диабазовой формации Мальгузарских гор (Западный Узбекистан) //Проблемы геологии фанерозоя Тянь-Шаня /Сб. статей. -Т.: Университет, 2003. С.79-90
8. Абдуллаев А.Х., Зокиров О.Т., Стельмах А.Г., Кутлиев Э.Х. Прогнозирование перспективных золоторудных участков в пределах Мальгузарских гор (на примере Кудук и Ардакшан) //Ўзбекистон миллий университети хабарлари. - 2021. - № 3/1. - С. 122-126.
9. Абдуллаев А.Х., Стельмах А.Г. Перспективность золоторудных объектов Мальгузарских гор по космоструктурным моделям //International scientific journal “Global science and innovations 2020: Central Asia”. - Nur-Sultan, Kazakhstan, December 2020. - P. 50-54.
10. Абдуллаев А.Х. Золоторудность участка Ардакшан Узбекистана // International scientific journal “Global science and innovations 2020: Central Asia”. - Nur-Sultan, Kazakhstan, December 2020. - P. 55-58.
11. Ишбаев Х.Д., Нуртаев Б.С., Джуманиязов Д.И., Косбергенов К.М. Субвулканические габбро-долериты Мальгузарской рифтовой зоны (Южный Тянь-Шань): состав и геодинамическая природа /Геология и охрана недр, 2023. № 3 (88). С.28-46.



Xusniyabonu BOYMURODOVA,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: boumurodovaxusniua654@gmail.com

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali dotsenti, g.f.d Q.Yarashev taqrizi asosida

RECREATION-TOURISM RESOURCES AND THE APPLICATION OF REMOTE SENSING METHODS IN THEIR RESEARCH

Annotation

This article is focused on highlighting the importance and application possibilities of remote sensing methods in the study of recreational tourism resources. The research analyzes the natural and cultural resources in Uzbekistan, presenting ways to use them effectively. Innovative approaches for mapping recreational areas, conducting ecological monitoring, and assessing the condition of resources using remote sensing (RS) technologies and geographic information systems (GIS) are proposed.

Key words: Recreation, tourism resources, remote sensing methods, remote sensing (RS), geographic information systems (GIS), natural resources, cultural resources, ecological monitoring, tourism development strategy.

РЕКРЕАЦИОННЫЕ ТУРИСТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ И ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ МЕТОДОВ ДИСТАНЦИОННОГО ЗОНДИРОВАНИЯ В ИХ ИССЛЕДОВАНИИ

Аннотация

Данная статья посвящена освещению важности и возможностей применения методов дистанционного зондирования при исследовании рекреационных туристических ресурсов. В исследовании проанализированы природные и культурные ресурсы Узбекистана, предложены пути их эффективного использования. Предложены инновационные подходы к картированию рекреационных территорий, проведению экологического мониторинга и оценке состояния ресурсов с использованием технологий дистанционного зондирования (ДЗ) и геоинформационных систем (ГИС).

Ключевые слова: Рекреация, туристические ресурсы, методы дистанционного зондирования, дистанционное зондирование (ДЗ), геоинформационные системы (ГИС), природные ресурсы, культурные ресурсы, экологический мониторинг, стратегия развития туризма.

REKREATSIYA -TURIZM RESURLARI VA ULARNI TADQIQ ETISHDA MASOFALI METODLARNI QO'LLASH MASALALARI

Annotatsiya

Mazkur maqola rekreatsion turizm resurslarini tadqiq etishda masofaviy metodlarning ahamiyati va qo'llanilish imkoniyatlarini yoritishga qaratilgan. Tadqiqotda O'zbekiston hududidagi tabiiy va madaniy resurslar tahlil qilingan bo'lib, ulardan samarali foydalanish yo'llari ko'rsatib berilgan. Masofaviy sezgirlik (RS) texnologiyalari va geoinformatika tizimlari (GIS) yordamida rekreatsion hududlarni xaritalash, ekologik monitoring o'tkazish va resurslarning holatini baholash bo'yicha innovatsion yondashuvlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: Rekreatsiya turizm resurslari, masofaviy metodlar, masofaviy sezgirlik (RS), geoinformatika tizimlari (GIS), tabiiy resurslar, madaniy resurslar, ekologik monitoring turizmni rivojlantirish strategiyasi

Kirish. Rekreatsiya va turizm, hozirgi zamon hayotining ajralmas qismi sifatida, jamiyatning madaniy, iqtisodiy va ekologik rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda turizm sohasining rivojlanishi faqatgina iqtisodiy o'sishning manbai bo'libgina qolmay, balki aholining turmush sifatini yaxshilash, tabiatni saqlash va madaniy merosni himoya qilishda ham muhim rol o'ynamoqda. Rekreatsiya resurslari, ya'ni tabiiy va madaniy ob'ektlar, sport inshootlari va boshqa ko'plab turistik imkoniyatlar, ushbu sohaning rivojlanishida asosiy omil bo'ladi. Shu bilan birga, turizm resurslarining samarali boshqarilishi va ularning taqdimoti uchun zamonaviy texnologiyalar, jumladan, masofali metodlar, yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Masofaviy metodlar, ayniqsa, geografik axborot tizimlari (GAT), masofadan monitoring qilish va sun'iy yo'ldosh suratlarini kabi texnologiyalar yordamida turizm resurslarini tahlil qilish va boshqarish jarayonlarini soddalashtiradi. Bunday texnologiyalar tabiiy resurslarning holatini baholash, ekologik xavflarni oldini olish va turistik ob'ektlarning samarasini oshirishda muhim vositalar sifatida keng qo'llanilmoqda. Shuningdek, masofaviy metodlar turizmning o'sishini rejalashtirishda va ayni paytda atrof-muhitni muhofaza qilishda samarali yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolada rekreatsiya va turizm resurslarining ahamiyati, ularni tadqiq etishdagi masofali metodlarning o'rni va imkoniyatlari, shuningdek, ushbu metodlarni qo'llashda duch kelinadigan muammolar va istiqbollar tahlil etiladi. Maqola, masofali metodlarning turizm sohasidagi innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishdagi o'rni va ularning turizm resurslarini boshqarishda qanday rol o'ynashini ko'rsatishga harakat qiladi

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Respublikamizda rekreatsiya va turizmning (eko, agro, tarixiy, diniy, ekstremal, shop) tarmoqlarida xizmat turlarini shakllantirish, hududlarning tabiiy resurs imkoniyatlarini hisobga olgan holda, rekreatsion ob'ektlar va turistik firmalar sonini ko'paytirish hamda ularning ixtisoslashuvi hamda hududiy tarkibini takomillashtirish bo'yicha turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida «turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni

diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish» hamda «odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash» yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan, tabiiy sharoiti va geotizimlari turlicha bo'lgan Kitob-Shaxrisabz botig'ida rekreatsiya va turistik resurslarni rivojlantirish, rekreatsiya-turistik resurslarni baholash, umumiy rekreatsiya-turistik salohiyatni aniqlash va dam olish, turizmni asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda PF-4861-son «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, 2018 yil 3 fevralda PF-5326-son «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni, 2018 yil 6 fevralda PQ-3509-son «Kirish turizmni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, 2018 yil 7 fevralda PQ-3514-son «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. Geografiya fani rekreatsiya masalalari bilan keng miqyosda shug'ullanadi. Rekreatsiya geografiyasi tibbiyot, biologiya va geografiya fanlari tutashgan joyda vujudga kelgan ilmiy tarmoqdir. Landshaftlarni rekreatsiya va turizm maqsadlarida tadqiq etishda xorijiy olimlardan V.S.Preobrazhenskiy (1974), N.S.Mironenko (1981), I.T.Tverdoxlebov (1981), Y.A.Vedenin (1975), V.I.Azar (1972), I.V.Zorin (1975), V.P.Burov (1973), YE.A.Kotlyarov (1978), P.G.Sarfis (1979), K.N. Musin (1999), D.V.Nikolayenko (2001), respublikamiz olimlaridan A.S.Soliyev, A.A.Rafiqov, Sh.Azimov, A.Qayumov, X.Vahobov, A.Yakubov, A.N.Nigmatov, R.Usmonova (2001), M.R.Usmonov, N.T.Shamuratova, Z.Mahamatillayev, M.Xoshimov, A.Zokirov, A.Yusupov, O.X.Hamidov, N.Tuxliyev, T.Abdullayeva, S.B.Abbasov, U.B.Badalov (2017), J. Hasanov, X. Jumayev (2021) va boshqa olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Tadqiqod metodologiyasi. O'rganilayotgan hududimizda tadqiqod olib borish davomida kompleks geografik, dala tadqiqotlari, geografik taqqoslash, kartografik, aerokosmik, moddellash, landshaft indikatsiya, statistik, geomorfologik, geobotanik, ma'lumotlarni tahlil qilish, adabiyotlar va fond materiallari bilan ishlash kabi metodlardan foydalanildi. Rekreatsiya va turizm sohalari dunyo iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Ushbu sohalarning rivojlanishi atrof-muhit resurslariga, geosiyosiy holatga, ijtimoiy talabga, va turistik mahsulotlarning xilma-xilligiga bog'liq. Shu bilan birga, turizm resurslarini tadqiq etish va ulardan samarali foydalanish masalalari muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda masofali metodlar, xususan, geoinformatika va masofaviy sezgirlik texnologiyalarining qo'llanilishi, turizm resurslarini o'rganish va ulardan foydalanishni yanada samarali qilish imkonini bermoqda. Ushbu maqolada rekreatsiya va turizm resurslarini aniqlash va tadqiq etish jarayonida masofali metodlarni qo'llashning ahamiyati va afzalliklari ko'rib chiqiladi.

Tahlil va natijalar. Amalga oshirilgan tadqiqot negizida majmuali landshaft tahlili, iqlimiy, gidrologik, kartografik, aerokosmik, landshaft indikatsiyasi, geobotanik, geoekologik, tibbiy - geografik, tabiat komponentlarini miqdoriy tahlil qilish va boshqa ilmiy tadqiq usullari yotadi. Majmuali landshaft tahlili hududning landshaft strukturasi aniqlashda ularning bir - biriga bog'liqligi, aloqadorligi va landshaft xilma - xilligini aniqlashda foydalanildi. Ushbu usul rekreatsiya tizimlari va resurslarini aniqlash, ulardan amaliy jihatdan foydalanishga imkon berdi. Miqdoriy usuldan rekreatsiyaning asosiy sharoitlari bo'lmish havo, suv, o'simlik va boshqalarni odamlarning dam olishi va salomatligini tiklashi uchun zarur bo'lgan mezonlarni aniqlashda, rekreatsiya imkoniyatlarini qanchalik qulayligini asoslashda foydalanildi.

Tabiiyki, rekreatsiya hududlari xilma-xilligi hamda ulardan foydalanishda ma'lum darajadagi murakkab tabiiy-antropogen jarayonlar kechishi bilan xarakterlanadi. Shu bois tabiiy landshaftlarni tadqiq qiluvchi an'anaviy geografik usul (metod)lar – dala tadqiqotlari (ekspiditsiya), tasniflash, qiyosiy-geografik, aerokosmik (distansion), kartografik hamda matematik moddellash, ijtimoiy so'rov, klinik-fiziologik (tibbiy) va boshqalar rekreatsiya geografiyasida to'liq qo'llanilishi mumkin. Bundan tashqari zamonaviy metodlardan GIS texnologiyalarining qo'llanilishi

GIS tizimi orqali quyidagi tadqiqotlar amalga oshirildi:

Landshaft monitoringi:

Sun'iy yo'ldosh tasvirlari orqali hududlarning ekologik o'zgarishlari tahlil qilindi.

Sayyohlik oqimlarini moddellash: GIS yordamida transport tarmog'i va rekreatsion resurslarning kirish imkoniyatlari o'rganildi.

Masofaviy sezgirlik (RS) texnologiyalari: RS texnologiyalari tabiiy resurslar, xususan, o'simlik qoplamasi va suv havzalari holatini baholashda samarali qo'llanildi.

O'simlik indeksleri: NDVI (Normal Difference Vegetation Index) orqali vegetatsiya qoplamasi monitoring qilindi.

Suv resurslari: Sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari asosida suv resurslarining kamayish dinamikasi baholandi.

Xulosa va takliflar: Rekreatsion resurslar va turizm sohasining rivojlanishi bo'yicha olib borilgan tahlillar asosida quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

1. Rekreatsion resurslarning tahlili natijalari

- Rekreatsion resurslar turizmni rivojlantirish uchun asosiy xaziradir. O'zbekistonning tabiiy va madaniy resurslari ichki va xalqaro turizm salohiyatini oshirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

- Tabiiy resurslar, jumladan, tog'lar, cho'l hududlari va suv havzalari, madaniy resurslar esa tarixiy shaharlardagi obidalar bilan boyitilgan.

2. Masofaviy texnologiyalar orqali olingan natijalar

- GIS va masofaviy sezgirlik (RS) texnologiyalari hududlarni xaritalash, landshaft monitoringi va ekologik xavf omillarini aniqlashda samarali ekanligini isbotladi.

- Rekreatsion resurslarning degradatsiya darajasi va ekologik muammolar (sho'rlanish, o'simlik qoplamining qisqarishi) aniqlandi.

3. Ekologik va ijtimoiy barqarorlik

- Rekreatsion hududlarda ekologik barqarorlikka erishish asosiy muammo sifatida qayd etildi.

- Turizmning rivojlanishi mahalliy aholining iqtisodiy farovonligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, ba'zi joylarda ekologik xavf tug'dirishi mumkin.

4. Milliy va xalqaro tajribalar

- O'zbekiston tajribasi global miqyosdagi barqaror turizm rivojlanishi yondashuvlari bilan uyg'unlashishi lozim. Xususan, xalqaro standartlar asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish zarur.
 - Rekreatsion turizmni rivojlantirishda mahalliy hamjamiyatlarni faol jalb etishning ahamiyati katta.
2. Takliflar
- Tahlillar asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi. Takliflar barqaror rivojlanishni ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish va turizmni ilg'or texnologiyalar yordamida boshqarishga qaratilgan.
- 2.1. Rekreatsion resurslardan barqaror foydalanish bo'yicha takliflar
- 1. Resurslarni zonalashtirish va boshqarish
 - Rekreatsion hududlarni ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlariga ko'ra zonalashtirish lozim.
 - Barqaror turizmni ta'minlash uchun maxsus hududlarni himoya qilish rejalarini ishlab chiqish zarur.
 - 2. Resurslarning holatini doimiy monitoring qilish
 - Sun'iy yo'ldosh texnologiyalari va GIS vositalaridan foydalangan holda resurslarning holatini doimiy kuzatish.
 - Ekologik xavf omillarini real vaqt rejimida baholash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish
 - 1. GIS va RS texnologiyalarini keng joriy qilish
 - Rekreatsion resurslarni boshqarish tizimlariga zamonaviy geoinformatika texnologiyalarini integratsiya qilish.
 - Turizm resurslarining raqamli xaritalarini yaratish va ularni tahlil qilish.
 - 2. Sun'iy yo'ldosh ma'lumotlaridan foydalanish
 - Vegetatsiya, suv resurslari va landshaft o'zgarishlarini tahlil qilish uchun sun'iy yo'ldosh ma'lumotlariga asoslangan monitoring tizimini tashkil etish.
 - Yuqori aniqlikdagi tasvirlardan foydalangan holda turizm obyektlarining hozirgi holatini baholash.
 - 3. Mobil ilovalar va onlayn platformalar yaratish
 - Sayyohlarga qulaylik yaratish uchun rekreatsion hududlar haqida ma'lumot beruvchi mobil ilovalarni ishlab chiqish.
 - Masofaviy kuzatuv ma'lumotlarini keng jamoatchilik uchun ochiq qilish.
 - 2.3. Ekologik va iqtisodiy samaradorlikni oshirish
 - 1. Ekologik turizmni rivojlantirish
 - Ekoturizm loyihalarini rivojlantirish orqali tabiiy resurslarni saqlash va barqaror turizmni ta'minlash.
 - Aholi o'rtasida ekologik ongni rivojlantirish bo'yicha dasturlar tashkil etish.
 - 2. Iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash
 - Rekreatsion resurslardan oqilona foydalanish orqali mahalliy iqtisodiyotga foyda keltirish.
 - Xalqaro turizm loyihalarida ishtirok etish orqali qo'shimcha investitsiyalar jalb qilish.
 - 3. Infratuzilmani rivojlantirish
 - Turizm hududlarida ekologik infratuzilma va transport tizimlarini rivojlantirish.
 - Turizm obyektlariga kirish imkoniyatlarini yaxshilash va ekologik xavfsizlikni ta'minlash.
 - 2.4. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish
 - 1. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga moslashtirish
 - Turizmni rivojlantirish bo'yicha xalqaro standartlarni milliy dasturlarga joriy qilish.
 - 2. Tajriba almashish
 - Ilg'or texnologiyalar va ekologik boshqaruv bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish.
 - Yevropa va Osiyodagi muvaffaqiyatli turizm loyihalari tajribasini milliy sharoitga moslashtirish.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.: Ўзбекистон. 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга кураамиз. Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикаси туризм салоҳиятини ривожлантириш учун қулай шароитлар яратиш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони. Халқ сўзи, №24. 2018 йил 6 феврал.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Кириш туризмни ривожлантириш чора-тадбирлари” ПҚ. Халқ сўзи газетаси, №25. 2018.
5. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикасини қонун ҳужжатлари тўплами, 2017. 6-сон. 70-модда.
6. Абдуллаев С.И., Усманова Р. Қашқадарё вилояти ландшафтларининг рекреация имкониятлари ва улардан фойдаланиш //“Табиат ландшафтларининг экологик муаммолари”. Гулистон-140-141 б.
7. Абдуллаев С.И., Усманова Р. Қашқадарё ҳавзаси ландшафтларини тасниф қилишнинг айрим масалалари //Жанубий Ўзбекистон табиат манбаларидан оқилона фойдаланиш масалалари. Т.:1997. 22-27 б.
8. Абдулкасимов А. Проблемы изучения межгорно-котловинных ландшафтов Средней Азии. Т.: Фан, 1983. 126 с.
9. Абдумаликов Р. Туризм. Т.: Ўқитувчи, 1978. -90 с.
10. Алибеков Л.А., Алибекова С.Л., Исмоилов Ш.О. Ўзбекистоннинг рекреацион имконияти, тоғ ва тоғолди минтақаларида халқаро туризмнинг ривожлантириш истикболлари. //Ўзбекистон География жамияти ахборотномаси. 51-жилд. Т.: 2017, 18-23 б.
11. Алибеков Л.А. Халқаро тоғ туризми. Ўзбекистон овози газетаси. 2018 йил, 6-ноябрь.
12. Абдужабаров М.А. Карст гор Южного Узбекистана (анализ природных факторов формирования). Тошкент: Фан, 1990. -112 с.



УДК: 553.493.542:411.

Юрий ЕЖКОВ,

ГУ "Институт Минеральных Ресурсов" Начальник отдела. к. г.-м. наук

E-mail: ejkovyuriy@gmail.com

Анвар ХОЛИЕРОВ,

ГУ "Институт Минеральных Ресурсов" Старший научный сотрудник.

E-mail: xoliyorovanvar@gmail.com

По рецензии старшего преподавателя "Университета геологических наук," д.г.-м.н. (PhD) У.Хафизова

ГЕНЕТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЗОЛОТА САМОРОДНОГО В РЕДКОМЕТАЛЛЬНЫХ АПОГРАНИТАХ И ПЕГМАТИТАХ ЛОЛАБУЛАК – БАЯНКАРИНСКОЙ РЕДКОМЕТАЛЛЬНОЙ ЗОНЫ

Аннотация

Выполненные впервые исследования редкометаллогенной самородной золотоносности пегматитовых полей - продуктов формирования щелочнометалльных лейкократовых гранитных магм Лолабулак – Баянкаринской редкометалльной зоны, направляемых процессами глубинной ликвации и автолизии (самоочищение), ведущих к накоплению как золота, так и скорее всего серебра и парагенных благородных металлов. Условия и масштабы проявления подобных процессов – глубины зарождения, минералогия, геохимия, зональность руд – проблема предстоящих исследований.

Ключевые слова: Месторождение, апогранит, пегматиты, редкометалл, ниобий, тантал, золота, минералы, руда, лабораторные испытания.

LOLABULOQ-BAYONQORIN NOYOB METALLI ZONASIDAGI NOYOB METALLI APOGRANITLAR VA PEGMATITLARDAGI UCHRAYDIGAN SOF OLTINNING GENETIK XUSUSIYATLARI

Аннотация

Birinch marta amalga oshirilgan tadqiqotlar, nodir metallogen sof tug'ma oltinli pegmatit maydonlari - ipak metalli leykokratli granit magmalari hosil bo'lish mahsuloti Lolabuloq - Boyankara nodir metallar zonasi bo'lib, oltin, shuningdek, kumush va paragen qimmatbaho metallarning to'planishiga olib keladigan chuqurlikdagi likvatsiya va avtoliz (o'z-o'zini tozalash) jarayonlari bilan boshqariladi. Bunday jarayonlarning namoyon bo'lish sharoiti va ko'lami - ma'danlarning paydo bo'lish chuqurligi, mineralogiyasi, geokimyosi, zonalligi - bo'lajak tadqiqotlar muammosidir.

Kalit so'zlar: Kon, apogranit, pegmatitlar, nodir metall, niobiy, tantal, oltin, minerallar, ma'dan, laboratoriya sinovi.

GENETIC FEATURES OF NATIVE GOLD IN THE RARE-METAL APOGRANITES AND PEGMATITES OF THE LOLABULAK-BAYANKARIN RARE-METAL ZONE

Annotation

The first studies of the rare-metallic native gold content of pegmatite fields - products of the formation of alkali-metallic leucocratic granite magma Lolabulak is a rare-metal zone of Bayankara, directed by deep liquefaction and autolitical processes (self-purification), leading to the accumulation of both gold and, most likely, silver and noble metals. The conditions and scale of manifestation of such processes – the depth of occurrence, mineralogy, geochemistry, and the zonal nature of ores - are a problem for future research.

Key words: Deposits, apogranite, pegmatites, rare metals, niobium, tantalum, gold, minerals, ore, laboratory tests.

Ведение. Еще в 70-х годах прошлого века нами и другими исследователями [2,3,6] было подчеркнуто, что процессы кристаллизационной дифференциации гранитных магм не ведут к появлению изначально рудоносных фаз и фаций, хотя тенденция относительной концентрации большинства рудных и редких металлов в предельно кислых (ультракислых) дифференциатах – аляскитах может быть проявлена достаточно отчетливо (рис. 1).

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Rossiyalik olim va kartograf A.M.Berlyantning tadqiqotlariga ko'ra, xaritalar uchta asosiy turga bo'linadi: umumgeografik, mavzuli va maxsus xaritalar [1]. Mavzuli xaritalarni tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni qamrab oluvchi toifalarga ajratdi. U ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar xaritalarini ikki asosiy guruhga ajratadi: aholi xaritalari va iqtisodiy xaritalar. Iqtisodiy xaritalarga quyidagilar kiradi: sanoat, qishloq xo'jaligi (dehqonchilik va chorvachilik), agrosanoat, o'rmon, baliq xo'jaligidan iborat kompleks va boshqa xaritalar. E.A. Proxorova, A.P. Zolovskiy, I.Yu. Kroxmalya, A.A.Reminskiyning tadqiqotlari tahlil qilindi. qishloq xo'jaligi xaritalarining tasnifi bo'yicha [4].

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha to'plangan ma'lumotlar asosida I.Y.Livskiy tomonidan qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlarini qamrab olgan mavzuli xaritalar tizimini ishlab chiqdi [3].

Respublikamizda qishloq xo'jaligi geografiyasining nazariy asoslari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning hududiy tizimlari, agrosanoat majmualar xususida V.Cheterkin, Z.Akramov, K.Lapkin, A.Ro'ziyev, Q.Abirqulov, O.Abdullayev, M.Yusupov va boshqa olimlar tadqiqotlar olib borgan. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi geografiyasining rivojlanishida Z.M.Akramovning xizmati katta bo'ldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Chorvachilikni xaritada olishda qishloq xo'jaligi xaritalari va atlaslaridan foydalanish yer resurslarini to'g'ri rejalashtirish orqali chorvachilik korxonalarini boshqarish samaradorligini oshirish, ozuqa ta'minoti sifatini oshirish, hayvonlarning yashash sharoitlarini optimallashtirish va atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni minimallashtirish uchun GAT texnologiyalari orqali xaritalarini shakllantirish uchun ma'lumotlar to'plash.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston rahbariyati chorvachilikni barqaror rivojlantirish muhimligi va mavjud muammolar o'tkirligini tushungan holda tarmoqni isloh qilish borasida qator chora tadbirlar ko'rmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevralda qabul qilgan, O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan dasturini tasdiqlash to'g'risidagi PQ-120 son Qarori ushbu jarayonda muhim dasturi amal bo'lmoqda.

Ushbu dastur chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishni ko'paytirish xususida mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ishlab chiqarishning zamonaviy usullarini keng joriy etish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish, chorvachilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Uning ustuvor yo'nalishlari deb quyidagilar belgilangan:

- respublika aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash hamda chorvachilik va uning tarmoqlarida ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish;
- chorvachilik va uning tarmoqlarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish;
- tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishni tizimli yo'lga qo'yish;
- chorvachilik sohasida infratuzilma xizmatlarini yanada rivojlantirish, ularni sifatini nazorat qilish va turlarini kengaytirish;
- chorvachilik sohasida ilm-fanni rivojlantirish va ilmiy-amaliy ishlarini takomillashtirish va boshqalar.

Ushbu qarorga muvofiq mamlakatimizda chorvachilikni rivojlantirish tizimli ravishda yo'lga qo'yildi, chorva mollari va parrandalar soni va mahsulot yetishtirish hajmi yildan yilga ko'paymoqda (1-2 jadval).

1-jadval

**O'zbekistonda chorva mollari va parrandalar bosh sonining dinamikasi
(1-yanvar holatiga, ming bosh)**

Chorva turlari	2010-y.	2015-y.	2020-y.	2023-y.
Yirik shoxli qoramollar	9094,7	10995,2	12949,7	13853,5
Shu jumladan, sigirlar	3758,1	4084,3	4663,5	4956,5
Qo'y va echkilar	15340,9	18438,9	21906,9	23602,5
Parrandalar	37733,3	56276,3	87859,7	97315,5
Otlar	187,4	213,4	247,1	269,0

2-jadval

O'zbekistonda asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi

Chorvachilik mahsulotlari va o'lchov birligi	2010-y.	2015-y.	2020-y.	2022-y.
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	1461,4	2033,4	2519,6	2725,9
Sut, ming tonna	6169,0	9027,8	10976,9	11627,2
Tuxum, mln dona	3061,2	5535,4	7781,2	8129,2
Jun, ming tonna	26,5	36,0	35,4	37,3
Qorako'l teri, ming dona	934,9	1032,0	1152,1	1287,6
Pilla, ming tonna	25,2	26,3	20,9	24,3
Asal, ming tonna	3,2	10,2	13,4	14,7

Agrar sektorni muhim tarkibiy qismi sifatida chorvachilikni barqaror rivojlantirishda tadqiqotni boshqa usullari qatori kartografik tagqiqot usuli ham alohida o'rin tutadi. Axborotlarning boshqa manbalaridan farq qilib qishloq xo'jaligi xarita va atlaslari ancha ko'rgazmali bo'lib, chorvachilik va uni yetakchi tarmoqlarini aniq fazoviy-hududiy tarqalishini, joylashuvini, hozirgi holatini, rivojlanishining tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini va iqtisodiyotini yaqqol ko'rsatadi, ularni har birini faqat o'ziga xos bo'lgan jihatlarini atrof-muhit ayniqsa tabiiy sharoit va resurslar bilan to'g'ridan - to'g'ri o'zaro bog'liqligini va aloqadorligini va uzoq muddatli rivojlanish istiqbollarini aniqlashga imkon beradi. Shuningdek, ular zamonaviy ilg'or fan, texnika va texnologiyalar erishgan yutuqlarini targ'ibot va tashviqot qilish hamda ularni ishlab chiqarishga joriy etishda yaxshi vosita hisoblanadi. Aniq mavzuga (tarmoqqa ixtisoslashgan xarita va atlaslar illyustratsiya emas, balki iqtisodiy geografik tadqiqotlarning asosiy qurolidir.


Kartografik usuldan foydalanish chorvachilik va u bilan bog'liq iqtisodiyotni boshqa sohalarini joylashtirishda va rivojlantirishda fazoviy omilni ancha to'liq hisobga olishga imkon beradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari va resurslaridan samarali foydalanishga hamda ushbu hududiy iqtisodiy tizimni obrazli - belgili modelini yaratishga imkon beradi. Bularni barchasi geografik informatsiyani ancha sezilarli takomillashtirishni, xususan

xarita va atlaslar tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlarni aniqlash va ushbu tarmoqni boshqarish va rejalashtirish amaliyotiga kartografik usulni keng joriy etilishini talab etadi.

Chorvachilik xaritalari ham geografik xaritalarga o'xshab masshtabi, maqsadi (vazifasi), mavzuyi va tipi, fazoviy qamrovi, mazmuni va boshqa qator belgilari bo'yicha tasniflanishi mumkin. Biroq, chorvachilik xaritalarini tasniflash masalasi adabiyotlarda yetarli yoritilmagan. Ijtimoiy-iqtisodiy kartografiya bo'yicha adabiyotlarda faqat eng umumiy ko'rsatmalar beriladi, ya'ni qishloq xo'jalik xaritalari mazmuni bo'yicha umumqishloq xo'jaligi va tarmoq xaritalariga bo'linadi.

Qishloq xo'jalik xaritalari eng avvalo maqsadi (vazifasi), mazmuni, masshtabi va egallagan maydoni bo'yicha guruhlarga bo'linadi. Bu bo'linishlarning barchasi qishloq xo'jalik xaritalari uchun xos emas va kartografik adabiyotlarda yetarlicha yoritilgan.

Barcha tasniflash belgilaridan eng muhimi qishloq xo'jaligi xaritalarining mazmuniga ko'ra guruhlarga bo'linishi hisoblanadi. Ushbu belgi bo'yicha qishloq xo'jalik xaritalari 4 ta katta guruhga bo'linadi. Birinchi guruhni qishloq xo'jaligini rivojlanishi sharoitlari va omillari xaritalari tashkil etadi; ikkinchi guruhni moddiy- texnik bazalari va mehnat resurslari xaritalari tashkil etadi; ushbu tasnifda asosiysi uchunchi guruh bo'lib, ushbu guruhga qishloq xo'jaligini tarmoq xaritalari- dehqonchilik va chorvachilik kiradi; to'rtinchi guruhga qishloq xo'jaligini umumiy tavsif xaritalari kiritiladi[5].



1-rasm. O'zbekiston Respublikasining chorvachilik xaritasi

Qishloq xo'jaligi tarmoq xaritalari katta guruhni tashkil etadi. Ular qishloq xo'jaligiga oid xaritalarning eng "qadimiy" turlari hisoblanadi. Ushbu xaritalarda ekinlarni joylashishi va chorva mollarining bosh soni (mutloq yoki nisbiy ko'rsatkichda - qishloq xo'jaligi yerlariga yoki ekin maydoniga nisbatan umumiy boshda), ekin maydonlarini va chorva mollari podasining tarkibi, ekinlarning hosildorligi va yalpi hosili, chorva mollarining mahsuldorligi, chorva mollarining nasldorligi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tovariligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini davlat xaridlari, dehqonchilik va chorvachilikni samaradorligi-mehnat xarajatlari, mahsulot birligini tannarxi, har 100 gektar qishloq yer turlaridan olinadigan chorvachilik mahsulotlari va boshqalar. Dehqonchilikni tavsiflash uchun ekinlarni o'sib-unishini agroiklimiy sharoitlari, chorvachilik uchun esa yem-xashak (ozuqa) bazasining holati, chorva mollarining tabiiy oziq-ovqat turlari (yaylovlar) bilan taminlanganligi katta ahamiyatga ega.

Hozirgi paytda qishloq xo'jaligi kartografiyasining rivojlanishiga kartografik ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada Yer haqidagi fanlarda, xususan qishloq xo'jaligi kartografiyasida zamonaviy informatsion texnologiyalar bazasida fazoviy koordinatlashtirilgan ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, aks ettirish va tarkatishni ta'minlab va alohida apparat-dasturli majmualar (komplekslar) – geografik informatsion sistemalar (GIS) yaratildi. GIS ning asosiy funksiyalaridan biri – bu kompyuterli (elektron) xaritalar, atlaslar va boshqa kartografik asarlarni yaratish va ulardan foydalanish hisoblanadi.

Xaritaga olishni ushbu turuni o'ziga xos xarakterli xususiyatlari orasida quyidagilar ancha muhim:

- avtomatizatsiyani yuqori darajasi, raqamli kartografik ma'lumotlar bazalariga va geografik bilimlar bazalariga tayanish;
- geotizimlarni tasvirlash va tahlil qilishga tizimli yondashuv;
- xaritaga olishni interaktivligi, xaritalarni yaratish va foydalanish metodlarini bir biri bilan chambarchas uyg'unligi;
- real vaqtda yaqinlashayotgan tezkorlik, shu jumladan, masofaviy zondlash ma'lumotlaridan keng foydalanish;
- holatlarni va alternativ yechimlar spektrlarini har tomonlama baholashga yo'l qo'yadigan ko'p variantlilik;
- kompyuterli dizaynni va yangi grafik tasvirlash vositalarini qo'llash;
- yangi turdagi va tipdagi tasvirlarni yaratish (elektron xaritalar, uch o'lchamli kompyuterli modellar va b.);
- ko'proq muammoli - amaliy orientatsiyalangan qarorlar qabul qilishni ta'minlashga yo'naltirilgan xaritaga olish.

Xulosa va takliflar. Chorvachilikni xaritaga olish bu sohaga oid ilmiy va amaliy masalalarni hal qilishda muhim vosita bo'lib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Zamonaviy GIS texnologiyalaridan keng foydalanish chorvachilik xaritalarining aniq va ishonchli bo'lishini ta'minlashga imkon beradi. Kelgusida chorvachilikning hududiy rivojlanishi va atrof-muhitga ta'sirini yanada chuqur tahlil qilish uchun ilg'or texnologiyalarni joriy etish zarurati mavjud.

Geoinformatsion xaritaga olish – dasturiy boshqariladigan xaritaga olish demakdir. U masofadan zondlash, kosmik xaritaga olish, kartografik tadqiqot usuli va matematik kartografik modellash tirish yutuqlarini bir joyga jamlaydi. O'zining rivojlanishida geoinformatsion xaritaga olish kompleks geografik tadqiqotlarni va mavzuli tizimni xaritaga olish tajribasidan foydalanadi.

ADABIYOTLAR

1. Берлянт А. М. и др. Картоведение: Учебник для вузов. – М.: Аспект Пресс, 2003.-477 с. – (серия “Классический университетский учебник”).
2. Жмойдяк Р. А. Социально – экономическая картография. (Электронный ресурс): курс лекций. – Минск. БГУ, 2011 – 90 с.
3. Ливицкий И.Ю. Научные основы комплексного сельскохозяйственного картографирования. – М., 1975. – 204 с

4. Захаров, П. В., & Юсупов, А. М. Современные тенденции в развитии интенсивного животноводства с использованием геoinформационных технологий. Проблемы и перспективы аграрного производства, 2(15), 92-98. (2023).
5. Ibraimova A. A. Sotsial – iqtisodiy kartografiya (Matn): O‘quv qo‘llanma – Toshkent: Tafakkur tomchilari, 2020 – 340 b.
6. Soliyev A O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. - Toshkent “Universitet”. 2014. 404 b.
7. Egambrdiyev A, Mo‘minov A.A, Uvrayimov S.T. Ijtimoiy-iqtisodiy kartografiya (Matn): O‘quv qo‘llanma – Toshkent. “Info Capital Group”, 2021-192 b.
8. Qurbonov Sh. B, Fedorko B. N O‘zbekiston geografiyasi (2-qism O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi) Darslik. – Toshkent: Yangi Chirchiq prints. 2024 – 384 b.



Mirzoxid QORIYEV,
Namangan davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: qoriyevmirzohid@mail.ru
Nazokatxon RAXMONOVA,
Namangan davlat universiteti talabasi
Akmaljon HALIMJONOV,
Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, g.f.n O.Sultashova taqrizi asosida

CHANGES IN RAINFALL AMOUNT IN NAMANGAN REGION OVER THE LAST 30 YEARS

Annotation

This article examines the changes in precipitation in the Namangan region under global climate change based on data from the Namangan meteorological station over the past 30 years (1993-2022). The assessment of changes in precipitation was carried out using the straight-line trend calculation method.

Key words: Namangan region, precipitation, global climate change, straight line equation, trend values.

ИЗМЕНЕНИЯ ОСАДКОВ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ ЗА ПОСЛЕДНИЕ 30 ЛЕТ

Аннотация

В данной статье на основе данных Наманганской метеостанции за последние 30 лет (1993-2022 гг.) определены изменения количества осадков в Наманганской области в условиях глобального изменения климата. Оценка изменения количества осадков проводилась методом расчета прямолинейного тренда.

Ключевые слова: Наманганская область, количество осадков, глобальное изменение климата, уравнение прямой, значения тренда.

NAMANGAN VILOYATINING SO'NGGI 30 YILDAGI YOG'IN MIQDORIDAGI O'ZGARISHLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada global iqlim o'zgarishi sharoitida Namangan viloyatining yog'in miqdoridagi o'zgarishlar Namangan meteorologiya stansiyasining so'nggi 30 yillik (1993-2022-yillar) ma'lumotlari asosida aniqlangan. Yog'in miqdoridagi o'zgarishlarni baholash to'g'ri chiziqli trendni hisoblash usuli orqali amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: Namangan viloyati, yog'in miqdori, global iqlim o'zgarishi, to'g'ri chiziqli tenglamasi, trend qiymatlari.

Kirish. Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida yuz berayotgan yog'in miqdoridagi o'zgarishlar hamda havo haroratining ortib borishi global iqlim o'zgarishining asosiy ko'rinishlaridan hisoblanadi. Ma'lumki, havo harorati bilan havo namligi o'rtasida bog'liqlik yuqori bo'lib, ulardan birining o'zgarishi ikkinchisining ham o'zgarishiga sabab bo'ladi. Misol uchun havo haroratining ortishi gidrologik sikl o'zgarishini tezlashtiradi, atmosfera havosining nam sig'imini oshiradi va u uncha barqaror bo'lmaydi. Natijada bu yog'ingarchilikni, jumladan, kuchli jalalar sonini ko'payishiga olib keladi. Hozirgi iqlim o'zgarishi sharoitida bu kabi jarayonlar asosiy tadqiqot mavzusiga aylanib bormoqda. Jumladan, Trenberthning hisob-kitoblari ko'ra global haroratning 1oC ga ortishi bilan atmosfera havosining nam sig'imi 7% ga ortadi. Shu bilan birga, haroratning ko'tarilishi bug'lanishni ko'payishiga, shu sababli Yer sirtini qurishiga va qurg'oqchilikning intensivligi hamda davomiyligini ortishiga olib keladi. Bundan tashqari, bo'ronlar, monaqaldiroqlar, ekstratropik yomg'irlar, qor bo'ronlari, tropik siklonlar va kuchli jala yog'inlarini avj olishi kuzatiladi [1]. S.V.Myagkov ham iqlim o'zgarishi bilan bog'liq holda dunyo bo'ylab ekstremal ob-havo hodisalari soni ortib borayotganligini, xususan, jala yog'inlari miqdori 40% ga ortganligini ta'kidlagan [2].

Adabiyotlar tahlili. Global iqlim o'zgarishi sharoitida Namangan viloyatining yog'in miqdoridagi o'zgarishlar bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, B.Kamolov hamda I.Soliyevlar (2017) Namangan viloyatining yog'in miqdoridagi o'zgarishlarni aniqlash maqsadida Namangan meteorologiya stansiyasining 1921-2010-yillardagi, Pop meteorologiya stansiyasining esa 1948-2010-yillardagi yog'in miqdori bo'yicha ma'lumotlari asosida farqli integral egri chiziqlar grafiklari tuzilib, tahlil qilingan. Tahlil natijalariga ko'ra, Namanganda yog'in miqdori 1921-yildan 1945-yilga qadar o'rtacha atrofida tebranib turgan. 1946-1989-yillar oralig'ida esa yog'in miqdori kamroq, 1990-yildan keyin esa ko'proq bo'lganligi aniqlangan. Pop meteostansiyasi bo'yicha esa 1948-1960-yillar oralig'ida o'rtacha atrofida tebranib turgan. 1961-1997-yillar oralig'ida yog'in miqdori kamroq, 1998-yildan keyin esa ko'proq bo'lganligi aniqlangan [3].

I.Soliyev hamda B.Kamolovlar (2017) olib borgan yana bir ilmiy tadqiqot ishida Namangan viloyatining yog'in miqdoridagi o'zgarishlar aniqlangan. Unga ko'ra, Namangan, Pop va Kosonsoy meteorologiya stansiyalarining 1970-2010-yillardagi yog'in miqdori bo'yicha ma'lumotlari asosida trend qiymatlari aniqlangan. Natijalarga ko'ra barcha meteorologiya stansiyalarida trend musbat bo'lib, uning qiymatlari ancha katta bo'lgan. Jumladan, Namanganda 1,51 mm/yil, Popda 1,31 mm/yil, Kosonsoyda 1,79 mm/yil ga teng bo'lgan [4].

E.Soliyev (2021) Namangan viloyatining yog'in miqdoridagi o'zgarishlarni Namangan meteorologiya stansiyasi ma'lumotlari asosida statistik metodlar yordamida tadqiq etib, yog'in miqdorida trend borligini va uning miqdori 1 mm/yil ga yaqin ekanligini aniqlagan. Natijalarga ko'ra, yog'in miqdoridagi trend qish va kuzda kattaroq, bahor va yozda kichikroq qiymatlarga

ega bo'lgan. YA'ni qish va kuzda 0,32-0,34 mm/yil, bahor va yozda 0,14-0,16 mm/yil, yiliga esa 1,0 mm/yil ga yaqin ekanligi aniqlangan [5].

M.Qoriyev (2024) Namangan viloyatining yog'in miqdoridagi o'zgarishlarni Namangan va Pop meteorologiya stansiyalarining 1951-2022 yillardagi o'rtacha oylik va yillik yog'in miqdori ma'lumotlari asosida amalga oshirgan. Tahlil natijalariga ko'ra, Namangan meteorologiya stansiyasida yog'in miqdoridagi trend kuz (0,26 mm/yil) va bahorda (0,18 mm/yil) kattaroq, qish (0,009 mm/yil) va yozda (0,04 mm/yil) kichikroq qiymatlarga ega bo'lgan. Yillik qiymat esa 0,5 mm/yil ga teng ekanligi aniqlangan. Pop meteorologiya stansiyasi bo'yicha esa trend bahorda (0,23 mm/yil) kattaroq, qish (0,03 mm/yil), yoz (0,05 mm/yil) va kuzda (0,07 mm/yil) kichikroq qiymatlarga ega bo'lgan. Yillik qiymat esa 0,33 mm/yil ga teng bo'lgan [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishini bajarish jarayonida Namangan viloyatidagi Namangan meteorologiya stansiyasining atmosfera yog'inlari bo'yicha 1993-2022-yillardagi so'nggi 30 yillik ma'lumotlaridan foydalanildi.

Tadqiqotda statistik tahlil, geografik umumlashtirish va taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Ma'lumki, yog'in miqdoridagi o'zgarishlar iqlim o'zgarishining asosiy ko'rsatkichlaridan hisoblanadi. Buni to'g'ri chiziqli tenglamasi yordamida trendni hisoblab aniqlash mumkin. To'g'ri chiziqli tenglamasi: $y=ax+b$ hisoblanib, bu yerda a shu sonlar qiymatining yillar bo'yicha o'zgarishi jadalligini (trendini) ko'rsatuvchi kattalikdir. U kichik kvadratlar usulida hisoblanadi.

Tahlillar va natijalar. Namangan viloyatining yog'in miqdoridagi o'zgarishlar Namangan meteorologiya stansiyasining 1993-2022-yillardagi ma'lumotlari asosida o'rganilganda o'rtacha oylik yog'in miqdorining o'zgarishi hamma oylarda juda katta ekanligini ko'rsatdi. Jumladan, yanvar oyida 0,3 mm (2018 y.) dan 55,6 mm gacha, fevralda 2,2 mm (1995 y.) dan 84,1 mm (2010 y.) gacha, martda 0,5 mm (1995 y.) dan 132,7 mm (2022 y.) gacha, aprel 1,4 mm (2011 y.) dan 52,1 mm (2017 y.) gacha, mayda 0 mm (2001 y.) dan 97,7 mm (2016 y.) gacha, iyunda 0 mm (2008 y.) dan 59,4 mm (1998 y.) gacha, iyulda 0 mm (1994 y.) dan 55,9 mm (2021y) gacha, avgust 0 mm (2005 y.) dan 14,5 mm (2013 y.) gacha, sentabrda 0 mm (1997y) dan 18,8 mm (2019 y.) gacha, oktabrda 0 mm (2007 y.) dan 123,9 mm (2003 y.) gacha, noyabrda 0,1 mm (2013 y.) dan 84,7 mm (2011 y.) gacha, dekabrda 0 mm (2010 y.) dan 83,0 mm (2002 y.) gacha o'zgarib turgan.

Namangan meteorologiya stansiyasi bo'yicha 1993-2022 yillar oralig'idagi o'rtacha oylik, mavsumiy va yillik yog'in miqdoridagi o'zgarishlarni aniqlash uchun statistik ma'lumotlar asosida trend qiymatlari hisoblandi. Buni to'g'ri chiziqli tenglamasi ($y=x+b$) yordamida aniqlashga harakat qildik. Trend qiymatlari quyidagi 1-jadvalda berilgan.

1-jadval


Namangan meteorologiya stansiyasining 1993-2022 yillar oralig'idagi o'rtacha oylik yog'in miqdoridagi o'zgarishlar bo'yicha trend qiymatlari


mm/yil

Oylar	Trend	Oylar	Trend	Oylar	Trend	Oylar	Trend
Yanvar	-0,4782	Aprel	0,035	Iyul	0,1022	Oktabr	0,3217
Fevral	-0,0721	May	0,1042	Avgust	0,1228	Novabr	-0,6573
Mart	0,4293	Iyun	0,1265	Sentabr	0,139	Dekabr	-0,4258


Trend qiymatlaridan ko'rinib turibdiki, yanvar, fevral, noyabr va dekabr oylarida manfiy ko'rsatgich, ya'ni yog'in miqdorida kamayish kuzatilayotganligi aniqlandi. Sezilarli kamayish noyabr oyiga to'g'ri kelib, u -0,6573 mm/yilni tashkil etgan. Yanvar va dekabr oylarida ham kamayish tendensiyasi ancha katta, ya'ni 0,4 mm/yil dan ko'pdir. Qolgan barcha oylarda esa trend qiymatlari musbat ko'rsatgichga ega bo'lib, yog'in miqdorining ortish tendensiyasi kuzatilmogda. Oylar kesimida sezilarli ortish mart (0,4293 mm/yil) va oktabr (0,3217 mm/yil) oylariga to'g'ri kelgan bo'lsa, qolgan oylarda esa ancha kichik qiymatlarga ega bo'ldi. Trendning mavsumlar va yillik qiymatlari quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi: Qishda -0,325 mm/yil; Bahorda 0,189 mm/yil; Yozda 0,032 mm/yil; Kuzda -0,065 mm/yil; **Yillik** -0,505 mm/yil.

Mazkur o'zgarishlarni 1-3-rasmlardagi xronologik grafiklar orqali yanada aniqroq ko'rish mumkin. 1-rasmda oylik, 2-rasmda mavsumlar, 3-rasmda esa o'rtacha yillik bo'yicha yog'in miqdorlarining qiymatlari va trend chiziqlari keltirilgan.






1-rasm. Namangan meteorologiya stansiyasi bo'yicha o'rtacha oylik yog'in miqdorining o'zgarishlari, mm



2-rasm. Namangan meteorologiya stansiyasida o'rtacha mavsumiy yog'in miqdorining o'zgarishlari, mm



3-rasm. Namangan meteostansiyasida o'rtacha yillik yog'in miqdorining o'zgarishlari, mm

Taklif va xulosalar. Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, global iqlim o'zgarishi sharoitida Namangan viloyati yog'in miqdorida ham sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Jumladan, Namangan viloyatida so'nggi 30 yilda yanvar, fevral, noyabr

va dekabr oylarida yog'in miqdorida kamayish kuzatilayotganligi aniqlandi. Sezilarli kamayish noyabr oyiga to'g'ri kelib, u - 0,6573 mm/yilni tashkil etgan. Yanvar va dekabr oylarida ham kamayish tendensiyasi ancha katta, ya'ni 0,4 mm/yil dan ko'pdir. Qolgan barcha oylarda esa yog'in miqdorining ortish tendensiyasi kuzatilmogda. Oylar kesimida sezilarli ortish mart (0,4293 mm/yil) va oktabr (0,3217 mm/yil) oylariga to'g'ri kelgan bo'lsa, qolgan oylarda esa ancha kichik qiymatlarga ega bo'ldi. Trendning mavsumlar va yillik qiymatlari quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi: Qishda -0,325 mm/yil; Bahorda 0,189 mm/yil; Yozda 0,032 mm/yil; Kuzda -0,065 mm/yil; **Yillik** -0,505 mm/yil.

ADABIYOTLAR

1. Kevin, E. (2011). Changes in precipitation with climate change. Climate research. 47, 123-138.
2. Мягков, С. (2021). Математическая модель ливневого стока в бассейне сардобинского водохранилища. Гидрометеорология и мониторинг окружающей среды. 1, 74-83.
3. Kamolov, B., Soliyev, I. (2017). Global iqlim ilishi sharoitida Farg'ona vodiysida yog'in miqdoridagi o'zgarishlar. O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 49, 161-164.
4. Soliyev, I., Kamolov, B. (2017). Shimoliy Farg'ona yer osti suvlari sathining iqlim ilishiga reaksiyasi. O'zMU habarlari. 3/1, 299-303.
5. Soliev, E. (2021). Iqlim o'zgarishining Farg'ona vodiysi suv resurslariga ta'siri (Monografiya). Namangan, 144.
6. Qoriyev, M. (2024). Iqlim o'zgarishi sharoitida Namangan viloyatida yog'in miqdoridagi o'zgarishlar. Gidrometeorologiya va atrof-muhit monitoringgi. 1, 28-38.



UDK:656.2.626.336.5

Ravshan MAHAMADALIYEV,

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, geografiya fanlari nomzodi

E-mail: rmahamadaliyev1009@gmail.com

Adxam NIYAZOV,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

FORMATION AND DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN'S ROADS

Annotation

This article examines the history of road construction in our country and its significance. Information on transport corridors passing through the country's territory and their routes was presented. Promising projects for the construction of roads were also noted.

Keywords: transport corridors, trans-Afghan, Fergana Ring Road, Tashkent Big Ring Road, Big Uzbek Highway, CAREC.

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ АВТОМОБИЛЬНЫХ ДОРОГ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье рассматривается история строительства автомобильных дорог на территории нашей страны и их значение. Представлена информация о транспортных коридорах, проходящих через территорию страны, и их маршрутах. Также были отмечены перспективные проекты по строительству автомобильных дорог.

Ключевые слова: транспортные коридоры, транс афганская, Ферганская кольцевая дорога, Ташкентская большая кольцевая дорога, Большой Узбекский тракт, ЦАРЕС.

O'ZBEKISTON AVTOMOBIL YO'LLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada mamlakatimiz hududida avtomobil yo'llarining qurilishi tarixi hamda ularning ahamiyatiga to'xtalib o'tilgan. Mamlakat hududidan o'tuvchi transport koridorlari va ularning yo'nalishlari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, avtomobil yo'llari qurilishiga oid istiqbolli loyihalar qayd etilgan.

Kalit so'zlar: transport koridorlari, transafg'on, Farg'ona halqa yo'li, Toshkent katta halqa yo'li, Katta O'zbek trakti, SARES.

Kirish. Transport geografiyasida quruqlik(avtomobil, temir yo'l, quvur), havo va suv(daryo, dengiz, ko'l, kanal) transportlari ajratilib o'rganiladi. Fanda ularning har birining o'rni, yuk tashish imkoniyatlari, yuk tashish hajmi, ularga xizmat qiladigan infratuzilma, ularni tashkil etishning tabiiy-geografik, iqtisodiy-ijtimoiy omillari alohida-alohida tarzda o'rganiladi.

Mamlakatimiz hududida yo'llarning tarixi uzoq otmishga borib taqaladi. Birgina bu hududdan Sharq va G'arbni bog'lab turgan Buyuk ipak yo'li va uning tarmoqlarining o'tganligi bunga yaqqol dalolatdir.

XX asr boshida O'zbekistonda hududida 27 ming kilometr ot arava va izvosh yo'llari mavjud bo'lgan bo'lsa, 1927 yilga kelib O'rta Osiyoda davlat yo'llarining jami uzunligi 5313 km ni, jumladan O'zbekiston hududida - 923 km tashkil etgan. [2]

1931 yilda Farg'ona halqa avtomobil yo'li xalq hashari yo'li bilan qurilgan bo'lib, 1946-1953 yillarda qaytadan ishga tushirilgan. Mazkur yo'lining umumiy uzunligi 295 km bo'lib, shundan 159 km – I toifali, 133 km – II toifali, 3 km- III toifalidir. Umumdavlat ahamiyatidagi yo'l Namangan viloyatining Pungon qishlog'ida A373 "Toshkent-O'sh" xalqaro avtomobil yo'lidan boshlanib, Qo'qon-Rishton-Farg'ona-Andijon-Namangan-Chust-Pop shaharlaridan o'tib Farg'ona viloyatining Qo'qon shahrida yana A 373 avtomobil yo'liga tutashadi. [3]

1928-1932 yillarda O'zbekistonda birinchi bo'lib uzunligi 62 km bo'lgan qora qoplamali Buxoro - G'ijduvon - Qiziltepa yo'li qurildi. Shu yillar mobaynida Samarqand - Panjkent(48 km), Piskent-Olmaliq, Toshkent – Piskent - Murotali, Qo'qon - Sho'rsuv – Andijon - Kuyganyor kabi yo'llar ham qurildi. 1937 yilda Respublikada yo'l shahobchalari 22 ming, jumladan qattiq qoplamali avtomobil yo'llar 2200 km tashkil etdi. 1933-37 yillarda qattiq qoplamali yo'llarning uzunligi umumiy yo'l tarmoqlaridagi salmog'i 8% tashkil etdi.

1932-1937 yillarda O'zbekistonda avtomobil yo'l shahobchasining uzunligi 27,7 ming kilometrga yetadi, bundan 20,9 ming kilometr tosh yotqizilmagan tabiiy yo'l, 4,6 ming kilometri yaxshilangan yo'l, 2 ming kilometri shag'al yotqizilgan va 0,2 ming kilometri tosh yo'l bo'lgan.

1939 yilda O'zbekistonda yirik inshootlarni Xalq hashari yo'li bilan qurish rasm bo'ldi va bu usul yo'l qurilishida ham keng qo'llanildi. 1940 yilda uzunligi 708 km bo'lgan Katta O'zbek Traktini qurish haqida maxsus qaror qabul qilindi. Ushbu yo'lining 326 km Toshkent, 222 km Samarqand, 162 km Buxoro viloyatlari tomonidan qurilgan va 1941 yilning aprelida qurib tugallangan. Mazkur yo'l Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari hududidan o'tgan bo'lib, mamlakatning o'ziga xos "transport arteriyasi" ga aylandi.

1940 yilning oxiriga kelib qattiq qoplamali yo'l tarmoqlari 4700 km ni tashkil etdi. O'zbekistondagi barcha yo'llarning uzunligi 32500 kilometrni tashkil qilardi. [2]


Bu yo'lga yonma-yon holda eng zamonaviy Toshkent-Mirzacho'l avtostradasi qurilgan. [4]

1959 yilda uzunligi 248 km bo'lgan Toshkent-Angren-Qo'qon avtomobil yo'li foydalanishga topshirilgan. Bu yo'l Qurama tizma tog'idagi Qamchiq dovonidan (2270 m) o'tadi. Bu yo'l orqali Toshkentdan Farg'ona vodiysiga tashiladigan yuklar temiryo'lda tashiladigan yuklarga qaraganda 3-4 baravar tez yetkaziladi. [14]

1959-1968 yillarda M34, M39 va A373 xalqaro yo'llari bilan birga, 7 ta davlat va 10 ta mahalliy yo'llarni ham tutashtirgan 67 km uzunlikdagi Toshkent katta halqa yo'li qurilgan. [5]

1970-75 yillarda yo'l qurish industriyasining asfaltbeton, ko'priklar qurish uchun yig'ma temirbeton konstruksiyalar ishlab chiqaruvchi, inert materiallarni qayta ishlovchi va sifatini yaxshilovchi obyektlar ishga tushdi va oqibatda qurilishda texnologik intizomga amal qilish uchun bir muncha shart-sharoit yuzaga keldi. Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarining uzunligi 1976 yilda hammasi bo'lib 19643 km shu jumladan umumdavlat ahamiyatidagi yo'llar 1656 km, respublika ahamiyatidagi yo'llar 7203 km va mahalliy ahamiyatdagi yo'llar 10975 km tashkil etdi. 1975-80 yillarda yo'l xo'jaligida eng jadal yuksalish yillari bo'ldi. Bu davrda umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari uzunligi 31208 km ga yetdi yoki xalqaro ahamiyatdagi 1656 km, respublika ahamiyatdagi 12164 km, mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'llar 17388 km ni tashkil etdi. 1976-81 yillarda jami 4400 km yangi yo'llar qurildi va qayta rekonstruksiya qilindi. Bu yillarda asosan shaharlarni chetlab o'tuvchi aylanma yo'llar qurishga katta e'tibor berildi. (2-rasm). [2]

Mustaqillik yillarida avtomobil yo'llari qurilishi faol olib borildi. 1991-2001 yillarda 727 km uzunlikdagi avtomobil yo'llari, 460 ta ko'priklar va o'tish joylari, 4000 ga yaqin avtopavilonlar qurildi. Shahar va qishloqlardagi ichki yo'llar rekonstruksiya qilindi. Toshkent-O'sh xalqaro yo'lining Angrendan Farg'onaga olib boruvchi qismi qurildi. Bu yo'nalishda Qamchiq va Rezak dovonlarida avtomobil harakati uchun mo'ljallangan tonnellar qazilgan. Katta O'zbekiston yo'li, Toshkent - Olmaliq yo'li rekonstruksiya qilindi. Toshkent shahrida uzunligi 32 km bo'lgan kichik halqa yo'li qurildi. [1]



1-rasm. Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari tarmog'ining rivojlanish dinamikasi. [2]

O'zbekiston Buyuk ipak yo'lini qayta tiklash maqsadida "Yevropa - Kavkaz - Osiyo" transport yo'lasi (TRASEKA) qurilishida faol ishtirok etmoqda. TRASEKA transport yo'lasing bir qismi sifatida Andijon - Toshkent - Nukus - Qo'ng'iro't avtomobil yo'lining 2 294 km uzunligi faol qurilmoqda. Uning eng murakkab qismi - Angren va Xonobod shaharlari o'rtasidagi 100 kilometrlik avtomobil yo'li hamda Qamchiq va Rezak dovonlarida avtomobil harakati uchun mo'ljallangan tonnellar qurilib, foydalanishga topshirildi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida avtomobil yo'llari tarmog'ining uzunligi o'tkazilgan xatlov natijalariga ko'ra 209 496 km ni (umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari - 42 869 km, xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llari, shaharlar, shahar posyolkalari, qishloqlar va ovullar ko'chalari - 141 882 km, idoraviy va inspektorlik yo'llari - 24 745 km) tashkil etmoqda.

2017-2022 yillar davomida esa respublika va mahalliy budjetlari mablag'lari hisobidan jami 80 531 km avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash shuningdek, 1 265 dona ko'priklar va yo'l o'tkazgichlarni rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro transport koridorlari hisoblangan xalqaro ahamiyatdagi A-380 "G'uzor-Buxoro-Nukus-Beynov" avtomobil yo'lining 195 km, A-373 "M-39 avtomobil yo'li-Guliston-Bo'ka-Angren-Qo'qon va Andijon orqali-O'sh" avtomobil yo'lining 140 km, M-39 "Olmaota-Bishkek-Toshkent-Termiz" avtomobil yo'lining 179 km, M-37 "Samarqand-Buxoro-Turkmanboshi" avtomobil yo'lining 71 km, "Qarshi-Shahrisabz" yo'nalishidagi avtomobil yo'lining 21 km qismlari rekonstruksiya qilindi. [15]

Toshkent viloyatining Qibray va Yuqorichirchiq tumanlari hududidan o'tuvchi 19,2 km uzunlikdagi yangi yo'nalishdagi avtomobil yo'li (yo'l o'tkazgichlar va ko'priklar bilan) qurildi. M-34 "Toshkent-Dushanbe" avtomobil yo'lining 117 km va 121 km dagi temir yo'l va avtomobil yo'llari ustidan o'tgan 235 km uzunlikdagi 2 ta yo'l o'tkazgichlar rekonstruksiya qilindi. "Buyuk ipak yo'li" loyihasi doirasida 116 km dan iborat bo'lgan Guliston - Ohangaron yo'lining qurilishini alohida qayd etish lozim. Sirdaryo viloyatining Mirzaobod, Sayhunobod, va Sirdaryo tumanlari, Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on, Bo'ka, va Pskent tumanlari orqali o'tib, Ohangaron shahrida "Toshkent - O'sh" xalqaro yo'lga tutashadi hamda mamlakatning markaziy, janubiy, shimoliy va shimoli-g'arbiy hududlarini Farg'ona vodiysi bilan bog'laydi.

Shu bilan birga, A-380 "G'uzor - Buxoro - Nukus - Beynov" avtomobil yo'lining 935 km dagi temir yo'l ustidan, "Guliston-Ohangaron"avtomobil yo'li va 4R-20 "Qorasuv-Bo'ka-Bekobod" avtomobil yo'llari kesishmasidagi yo'l o'tkazgichlar qurildi. 2023-2027 yillar davomida esa respublika budjeti mablag'lari hisobidan jami 92 183 km avtomobil yo'llarini, 1 532 ta dan ortiq ko'priklar va yo'l o'tkazgichlarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

2023-2027 yillar davomida xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan 920,9 mln dollarlik 5 ta loyiha amalga oshirilgan holda, 177 km uzunlikdagi magistral va 1947 km uzunlikdagi mahalliy ahamiyatga ega yo'llar ta'mirlanib, foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2025-yil 21-yanvarda tasdiqlangan loyiha konsepsiyasiga ko'ra, birinchi bosqichda 171 km uzunlikdagi trassa Toshkentdan Angren va Qamchiq dovonidan o'tadi. Yo'lining qurilish muddati 6 yil 3 oy bo'lishi, yo'nalishning 64 foizi yangi, 36 foizi rekonstruksiya qilinadi. Trassa I-a (avtomagistral) toifasiga kiradi va oltita yo'lakdan iborat bo'ladi. Loyiha uch bosqichdan iborat bo'lishi kutilgan edi: birinchi bosqichda uzunligi 78 km bo'lgan Toshkent-Angren, ikkinchi bosqichda Angren-Pop (93 km), uchinchi bosqichda Pop-Andijon (143 km) uchastkasi quriladi. [7] (2 rasm).



2-rasm. Toshkent-Andijon pulli avtomobil yo'li chizmasi.

(Foto: Transport vaziri o'rinbosari Jasurbek Choriyevning taqdimotidan.)

Yana bir yirik loyiha Toshkent-Samarqand o'rtasidagi pulli trassa qurilishi hisoblanadi. Trassaning umumiy uzunligi 305 km bo'lgan olti tasmali yo'l bo'ladi. Qurilishi ishlarini 2028-yil oxirigacha yakunlash rejalashtirilgan. Yo'l qoplamasining yuk ko'tarish qobiliyati xalqaro standartlar bo'yicha 13 tonna hisobida amalga oshiriladi. [9] (3-rasm).

Shuningdek, yana bir istiqbolli loyiha sifatida Samarqand – Buxoro va Samarqand – Shahrisabz pulli avtomobil yo'llari loyihalarini keltirish zarur. Xususan, 66 km uzunlikdagi Samarqand-Shahrisabz pulli yo'li loyihasi Taxtaqoracha dovonida 4,4 km uzunlikdagi tunnel qurilishi ham rejalashtirilgan. [7]



3-rasm. Toshkent – Samarqand pulli yo'li yo'nalishi

Sirdaryo—Baxt shaharlarini aylanib o'tuvchi 38 km avtomobil yo'li qurilishi rejalashtirilayotganligini ham qayd etishimiz lozim. [10]

Transport sohasidagi loyihalar orasida 2027-2030 yillarda Samarqand va Buxoro o'rtasida 1 milliard dollarlik pulli yo'l qurilishi ham bor. [6]

Bunday istiqbolli loyihalar qatorida Surxondaryo viloyatida M 41 "Bishkek-Dushanbe-Termiz" avtomobil yo'lga parallel yo'nalishda 171 km uzunlikdagi pulli avtomagistralni ham qo'shish mumkin. [16]

Mamlakatimizning qulay transport chorrahasida joylashganligi quyidagi istiqbolli transport koridorlardan to'laonli foydalanishga ustuvorlik beradi:

1. Transafg'on koridori.

Termiz-Mozori Sharif-Hirot-Bandar-Abbos va Chabohor portlari.

2. Andijon-O'sh - Saritosh-Ergashtom-Qoshg'ar transport koridori.

3. O'zbekiston- Turkmaniston-Eron-Ummun-Qatar transport koridori.

Shuningdek quyidagi transport koridorlarini ham alohida qayd etib o'tish lozim bo'ladi:

I. Mavjud transport koridorlari

1.1. Toshkent-Qizil O'rda-Aralsk-Aktyubinsk-Boltiq portlari.

1.2. Toshkent – Chimkent-Balxash-Ostona-Petuxovo-Chelyabinsk-Moskva.

1.3. Toshkent- Chorjo'y- Nukus- Guryev-Astraxan-Qora dengiz portlari.

1.4. Toshkent –Chimkent- Olma ota-Semipalatinsk-Uzoq Sharq portlari.

II. Rivojlanayotgan transport koridorlari:

2.1. Toshkent- Olma ota- Drujba-Urumchi-Lyaongan porti-Pusan porti.

2.2. Toshkent –Buxoro-Chorjo'y-Bandar Abbas porti.

2.3. Toshkent –Turkmanboshi porti-Boku-Poti porti.

2.4. Toshkent – Chorjo'y-Nehron-Mersin porti.

2.5. Toshkent – Qo'ng'iro't-Beynov-Astraxan – Yevropa.

III. Istiqbolli transport koridorlari

3.1. Toshkent –Aktau porti-Boku-Poti porti.

3.2. Toshkent- Aktau porti- Volga-Volga-Don kanali-Qora dengiz.

3.3. Toshkent –Turkmanboshi porti- Astraxan-Yevropa.

3.4. Toshkent- Qo'ng'iro't-Astraxan- Novorossiysk porti.

3.5. Toshkent-Andijon-O'sh-Saritosh-Ergashtom-Qoshg'ar.

3.6. Toshkent-Termiz-Mozori Sharif-Shibirg'on-Hirot-Doguran - Bander Abboz porti yoki Tehron-Anqara.

3.7. Toshkent-Termiz-Mozori Sharif - Shibirg'on - Hirot – Dilorom – Milak – Chobahor porti. [13]

IV. O'zbekiston hududidan o'tuvchi SARES (Центральноазиатского регионального экономического сотрудничества) koridorlari

1. **2a koridori.** Yo'nalishi: Astraxan-Beynov-Buxoro-Toshkent-Andijon-O'sh-Ergashtom.

2. **2b koridori.** Yo'nalishi: Boku-Turmanboshi-Buxoro-Toshkent-Andijon-O'sh-Ergashtom.

3. **3a koridori.** Yo'nalishi: Rubsovsk-Olma ota-Chimkent-Toshkent-Buxoro-Seraxs-Bandar Abbas.

4. 3b koridori. Yo'nalishi: Rubsovsk - Olma ota – Bishkek - O'sh – Qoramiq - Jirg'atol-Darband-Dushanbe - Sariosiyo – Termiz.

5. 6a koridori. Yo'nalishi: Astraxan-Beynov-Buxoro-G'uzor- "Hayraton" bo'xona posti - Mozori-Sharif.

6. 6b koridori. Yo'nalishi: Orenburg - Qizilo'rda –Chimkent – Toshkent – Samarqand – Termiz.

7. 6c koridori. Yo'nalishi: Orenburg - Qizilo'rda – Chimkent – Toshkent – Xovos - Istaravshan-Ayniy – Dushanbe - Qo'rg'ontepa - Quyi Panj - Sherxan Bendar – Qunduz – Qobul. [12].(4-rasm).



4-rasm. SARES koridorlari.

O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llar davlat qo'mitasining ochiq ma'lumotlarida mamlakatimizdagi jami avtomobil yo'llarining uzunligi 42 695 km ni tashkil etadi. Shundan 3981 km Xalqaro ahamiyatda, 14 100 km davlat ahamiyatda va 24914 km mahalliy ahamiyatdagi yo'llardir. (5-rasm).

Hudud nomi	Jami uzunlik	Xalqaro ahamiyatga molik	Davlat ahamiyatiga molik	Mahalliy ahamiyatga molik
Respublika bo'yicha jami	42 695	3981	14 100	24914
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4213	664	992	2557
Andijon viloyati	2463	103	800	1560
Farg'ona viloyati	4031	202	873	2956
Namangan viloyati	3377	69	1048	2260
Toshkent viloyati	3965	400	1241	2324
Sirdaryo viloyati	1450	259	505	686
Jizzax viloyati	2601	168	1431	1002
Samarqand viloyati	4097	385	979	2733
Qashqadaryo viloyati	3427	425	890	2112
Surxondaryo viloyati	2843	351	990	1502
Navoiy viloyati	4217	302	2490	1425
Buxoro viloyati	4101	540	1155	2406
Xorazm viloyati	2210	113	706	1391

5 –rasm. Mamlakatimizdagi avtomobil yo'llar tog'risida ma'lumot.(Mualliflar tomonidan tayyorlandi.) **Izoh:** Jadvalda ichki xo'jalik yo'llar hisobga olinmagan.

ADABIYOTLAR

- Matyoqubov X.X. O'zbekistonning eng yangi tarixi. Toshkent., Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti bosmaxonasi. 2021. – 295 bet.
- Xolmatov U.S "Avtomobil yo'llari":61040100- —Transport logistikasi (avtomobil transporti) ta'lim yo'nalishi bakalavrlari uchun o'quv qo'llanma. Andijon. —OMADBEK PRINT NUMBER ONE MCHJ bosmaxonasi. 2024. -164 bet.
- https://uzpedia.uz/pedia/fargona_halqa_avtomobil_yoli_3
- <http://geografiya.for.uz/uzb-iqt-ijt-geografiyasi/942-quruqlik-transporti.html>
- https://ru.ruwiki.ru/wiki/Ташкентская_кольцевая_автомобильная_дорога
- <https://yuz.uz/ru/news/v-uzbekistane-k-kontsu-2026-goda-budet-vvedeno-v-ekspluatatsiyu-9934-km-avtomobilnx-dorog>
- <https://www.gazeta.uz/oz/2024/10/10/toll-road/>
- <https://lex.uz/pdfs/7089556>
- <https://www.gazeta.uz/uz/2024/09/04/tash-sam/>
- <https://daryo.uz/2024/02/23/sirdaryo-baxt-shaharlarini-aylanib-otuvchi-38-km-avtomobil-yoli-qurilishi-rejalashtirilmoqda>
- <https://kun.uz/news/2023/12/11/toshkent-samarqand-pullik-avtomobil-yolini-qurish-loyihasi-ishlab-chiqildi>
- <https://asiaplustj.info/ru/news/tajikistan/economic/20130208/tsares-provodit-obzor-strategii-po-transportu-i-sodeistviyu-torgovle>
- <https://epauzb.uz/pages/transport-koridorlari>
- <file:///C:/Users/o/Downloads/5552-Article%20Text-10690-1-10-20230424.pdf>
- <https://daryo.uz/2023/05/23/ozbekistonda-4-yilda-magistral-va-mahalliy-ahamiyatga-ega-qancha-yollar-tamirlanishi-malum-qilindi>
- <https://daryo.uz/2024/05/13/xitoy-kompaniyasi-surxondaryoda-171-kilometrluk-pulli-yol-qurishi-mumkin>

Мухаммаджон МАНСУРОВ,

Учитель Национальный университет Узбекистана,

E-mail: muhammadjonmansurov591@gmail.com

Султонбой ХУСАНОВ,

РГУ нефти и газа (НИУ) имени И.М. Губкина в г.Ташкенте, д.г.-м.н., профессор

E-mail: xusanov-2010@mail.ru

По рецензии доцента «ИГИРНИГМ» Г.Джалилова, к.г.-м.н.,

STRATIGRAPHY OF THE UPPER JURASSIC CARBONATE FORMATION OF THE SOUTH-WESTERN SPURS OF THE GISSAR RIDGE

Annotation

The article considers the stratigraphy of the Upper Jurassic carbonate formation of the South-Western Spurs of the Gissar Range, using Kugitangtau as an example. It is most fully characterized in terms of fauna, the section of which was a kind of "testing ground" for developing a regional stratigraphic scheme. In this area, substages and zones are distinguished and a brief stratigraphic description of the carbonate formation is given.

Key words: Kugitangtau, carbonate formation, stratigraphy, Gissar Range, corals, reef.

СТРАТИГРАФИЯ ВЕРХНЕЮРСКОЙ КАРБОНАТНОЙ ФОРМАЦИИ ЮГО-ЗАПАДНЫХ ОТРОГОВ ГИССАРСКОГО ХРЕБТА

Аннотация

В статье рассматриваются стратиграфия карбонатной формации верхней юры Юго-западных отрогов Гиссарского хребта, на примере Кугитангтау. Она фаунистическом отношении наиболее полно охарактеризована, разрез которого являлось своеобразным «полигоном» для разработки региональной стратиграфической схемы. В этом районе выделяются подъярусы, зоны и дается краткое стратиграфическое описание карбонатной формации.

Ключевые слова: Кугитангтау, карбонатная формация, стратиграфия, Гиссарский хребет, кораллы, риф.

HISOR TOG‘TIZMASINING JANUBIY-G‘ARBIY TIZMALARINING YUQORI YURA KARBONAT FORMATSIYASI SHAKLLANISHINING STRATIGRAFIYASI

Annotatsiya

Maqolada Hisor tizmasining janubi-g‘arbiy tizmalaridagi yuqori yura karbonat shakllanishining stratigrafiyasi, misol tariqasida Kugitangtau ko‘rib chiqiladi. U fauna nuqtai nazaridan to‘liq tavsiflanadi, uning bo‘limi mintaqaviy stratigrafik sxemani ishlab chiqish uchun o‘ziga xos "sinov maydonchasi" bo‘lgan. Bu sohada kichik bosqichlar va zonalar ajratilib, karbonat shakllanishining qisqacha stratigrafik tavsifi berilgan.

Kalit so‘zlar: Kugitangtau, karbonat shakllanishi, stratigrafiya, Hisor tizmasi, marjonlar, rif.

Изучение геологического строения карбонатной формации и вопросы ее стратификации в Юго-Западном Узбекистане тесно связываются с исследованиями карбонатных пород в обнажениях юго-западных отрогов Гиссарского хребта (рис.-1), которые формировались в едином седиментационном бассейне.



Следует отметить, что уже первые исследования показали поразительную выдержанность карбонатной толщи, а позднее подчеркивалось, что она представляет собой выдержанную платформенную формацию знаменующую определенный этап в истории геологического развития. Естественные выходы верхнеюрских отложений широко распространены по склонам саев, ущельям и водоразделам юго-западных отрогов Гиссарского хребта, представляющих собой систему горных гряд (Байсунтау, Кугитангтау, Сурхантау, Сузыстау и др.), где нередко отложения карбонатной формации хорошо обнажаются в разрезе.

По составу, структуре и текстуре карбонатная формация – обособленное, ярко выраженное геологическое тело, довольно четко выделяющееся в осадочном комплексе всего разреза юрской системы. Поэтому она справедливо выделена как самостоятельное стратиграфическое подразделение, названное кугитангской свитой по одноименному названию хр.

Кугитанг (Решение межведомственного стратиграфического совещания по мезозою средней Азии. Самарканд, 1971). Некоторые исследователи, учитывая фациальную разнородность отложений, рассматривают эти подразделения в ранге серии. Благодаря физическим свойствам и устойчивости к выветриванию карбонатная формация хорошо выделяется в рельефе, образуя крутые склоны, и обрывы, ее обнажения в виде стен протягиваются на многие километры, причем часто осложнены тектоническими деформациями и разрывными нарушениями.

В северо-западном направлении верхнеюрские отложения быстро погружаются под осадочный чехол мел-палеогена и уже на значительных глубинах прослеживаются на обширной территории Бухаро-Хивинской области, где вскрываются и подсекаются буровыми скважинами.

Общая мощность кугитангской серии в юго-западных отрогах Гиссарского хребта изменяется в широких пределах: на северо-востоке 80-200 м, в направлении к юго-западу постепенно нарастает без каких-либо перепадов и в самых южных районах (хр. Кугитангтау) достигает 500-600 м. В Бухаро-Хивинской области эта тенденция нарушается. Мощность закономерно увеличивается от периферии бассейна вглубь, до определенной зоны. В верхней части карбонатной формации, составляющей половину ее суммарной мощности, отложения представлены в основном светлоокрашенными органогенными образованиями. Далее, в сторону моря, мощность карбонатной формации также за счет верхней части разреза резко уменьшается в среднем в 1,5 раза в результате фациального замещения органогенных известняков темными, почти черными, мелкозернистыми, глинистыми и битуминозными карбонатами.

На участке резкого изменения мощности карбонатов образуется уступ, имеющий различную крутизну, который четко фиксируется и на карте соляно-ангидритовой толщи. При этом участки с максимальными значениями галогенных образований всегда располагаются над зонами с резко сокращенной мощностью карбонатных отложений. Главная особенность формирования карбонатов заключается в зональном распространении прибрежно-шельфовых, рифогенных и депрессионных фаций.

В фаунистическом отношении наиболее полно охарактеризована карбонатная формация на Кугитангском хребте, разрезы которого явились своеобразным «полигоном» для разработки региональной стратиграфической схемы. В этом районе выделяются не только подъярусы, но отчасти и зоны.

При описании стратиграфии верхнеюрских отложений использованы многочисленные литературные данные предыдущих исследователей (А.М.Акрамходжаев, Г.С.Абдуллаев, Г.Б.Евасеева, В.Д.Ильин, Н.В.Безносков, К.Н.Аманиязов, В.В.Курбатов, В.С.Лучников, Х.Х.Миркамолдов, А.Г.Ибрагимов, С.Т.Хусанов, М.Э.Эгамбердыев, и др.).

При палеонтологическом обосновании возраста карбонатной формации, помимо кораллов (склерактинии), авторы использовали результаты работ Е.А.Репман, С.Х.Чепиковой, Н.Д.Юшиной (палеиподы), Г.Я.Крымгольца, Е.Л.Прозоровской (брахиоподы), В.В.Курбатова (фораминиферы), В.М.Реймана (кораллы), Г.С.Абдуллаев (аммониты, моллюски), Г.Б.Евасеева (фораминиферы) и др..

Ниже дается краткое стратиграфическое описание карбонатной формации по материалам естественных обнажений Юго-Западных отрогов Гиссарского хребта.

Келловейский ярус (верхняя половина байсунской свиты и низы кугитангской серии). Отложения байсунской свиты почти повсеместно согласно сменяют среднюю юру. В отдельных участках (Сангмилля, Сумбулак, Тахт) непосредственно на палеозой с разрывом залегают осадки верхнего келловей [1].

Нижний келловей в нижней части представлен темно-серыми тонкоплитчатыми мергелями с подчиненными прослоями неравномерно чередующихся оолитовых, детритовых, реже алевритистых и глинистых известняков, в основании которых нередко залегает пачка черных известковистых глин (Кугитангтау, Сусьзтау).

В отложениях келловей, главным образом, из разрезов Кугитангтау известны аммониты: с *Macrocephalites macrocephalus* (Schloth.), *kepplerites calloviensis* Sow. и др., определяющие в целом раннекелловейский возраст.

В некоторых пунктах Кугитангтау в верхней части нижнего келловей широко развиты кораллы (склерактинии), авторы использовали результаты работ Е.А.Репман, С.Х.Чепиковой, Н.Д.Юшиной (палеиподы), Г.Я.Крымгольца, Е.Л.Прозоровской (брахиоподы), В.В.Курбатова (фораминиферы), В.М.Реймана (кораллы), Г.С.Абдуллаев (аммониты, моллюски), Г.Б.Евасеева (фораминиферы) и др..

Мощность нижнего келловей изменяется от 100-120 (Кугитанг-тау) до 40-50 м и менее (Сурхантау, Чакчар). Средний келловей представлен чередующимися мелко- и толстоплитчатыми, микрозернистыми, пелитоморфными известняками с прослоями детритовых, оолитовых, онколитовых, шламово-сугликовых, обломочных известняков, включающих пласты и линзы брахиоподовых «известняков». В основании среднего келловей почти повсеместно прослеживается пачка пелитоморфных глинистых известняков, которая служит репером для определения положения нижней границы подъяруса. Среднекелловейский возраст отложений устанавливается по аммонитам только в опорном разрезе хр. Кугитанг-тау, где намечается присутствие двух зон *Kosmoceras Jason* и *Erynoceras coranatum*. Мощность среднего келловей в разрезах хр. Кугитанг-тау до 150 м, в северных районах (Яккабаг, Чакчар) она сокращается до 40-60 м.

Верхний келловей по литологическому составу не отличается от подстилающих отложений среднего. Это аналогичная толща, сочетающая в себе набор различных генетических типов пород. В их составе пелитоморфные, микрозернистые, детритовые, онколитовые, ракушничковые и обломочные известняки, местами доломитизированные и иногда обогащенные незначительной глинистой примесью. В целом разрез характеризуется слоистой мелко- и толстоплитчатой текстурой (Яккабаг, Чакчар, Байсунтау).

Kirish. Litologik-fatsial xiritalash oldida turgan masalalarni ijobiy hal etish uchun asosiy andoza – bu geologik o'tmishda hosil bo'lgan yotqiziqdardir. Cho'kindilar tarkibi, ularning struktura va teksturaviy xususiyatlari, qalinligi, tarqalishi (biotsenozlar) va boshqalarni har tomonlama o'rganish, segmentlar o'zgarishini hisobga olgan holda geologik vaqt va makonda yer landshaftlarini aniqlashning kaliti hisoblanadi. D.V.Nalivkinning fikricha (1955), landshaftlarning xilma-xilligi cho'kindi fatsiyalarda aks etadi. Shuning uchun o'tmish fatsiyalarini tiklash geologik vaqtning ma'lum bir qismiga doir paleogeografik xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. O'ziga xos xususiyatlari deganda, mineralogik tarkibi, tog' jinslarning strukturasi, ostki va ustki jinslar bilan aloqasi, organik qoldiqlarning mavjudligi, rangi, qo'shimchalari va boshqalar nazarda tutiladi.


Paleogen yotqiziqlari bilan bog'liq noma'dan foydali qazilmalar ma'lum bir fatsial kamarlar bilan stratigrafik yondoshgan (1-jadval).

Ushbu tamoyillarga asoslanib tadqiqotning obyektida namoyon bo'lgan noruda kon nomoyonlari haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Toshkentoldi hududida tarqalgan paleogen yotqiziqlari, asosan, dengiz, ko'rfaz (laguna) va quruqlik fatsial sharoitlarda shakllangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Paleogen yotqiziqlari uchun sayoz dengiz, sayoz dengizning qirg'oq qismi, dengizning qirg'oq qismi, ba'zida sho'r suvli sayoz dengiz fatsiyalari ajratiladi; aralash fatsiyali komplekslar guruhiga esa suv osti tekisligi, suv osti deltasi fatsiyalari kiradi.

1-jadval



1 – suv osti delta fatsial kamari, 2 va 3 – sayoz qo'ltiqlar va laguna fatsial kamari, 4 – markaziy tinish fatsial kamari, 5 – urunma to'liqin fatsial kamari, 6 – urunma to'liqin fatsial kamarning illi zonasi, 7 – urunma to'liqin fatsial kamarning karbonatli zonasi.

Paleotsen. Sayoz qo'ltiqlar (laguna) fatsiyasi. Ushbu fatsiyaga D.V.Nalivkin, V.I.Popov, S.D.Makarova va boshqa olimlar tomonidan ta'riflar berilgan. Sayoz qo'ltiqlar (laguna) – dengizdan qo'ltiqlar, ko'rfazlar yoki soylarning sayoz yarim berk makon bilan ajralishi natijasida hosil bo'lgan joylar hisoblanadi. Agar yopiq suv havzasiga chuchuk suv sezilarli darajada kirsa, laguna tuzsizlanishi mumkin, aksincha, agar dengiz bilan qisqa muddatli yoki ahamiyatsiz bo'lsa, sho'rlanadi.

Paleogen dengizining Farg'ona qo'ltig'ida lagunlarning paydo bo'lishi uchun bunday sharoit ikki bo'g'oz – Xo'jent va Oloy orqali amalga oshgan. Ular paleogen davrida ochilib yopilgan. Fatsiyalarning shakllanishi cho'kishning regressiv bosqichlari bilan bog'liq holda butunlay paleogeografik sharoitga bo'ysungan bo'lib, bu Xo'jent bo'g'ozining torayishi va deyarli suv havzasining g'arbidagi kechki Suvoq qo'ltig'i bilan ochiq dengiz o'rtasidagi bog'lanish qiyin bo'lganligini ko'rsatadi. Sharqda Oloy bo'g'ozini hududida hech qanday bog'liqlik yo'q, bu yerda Suvoq qatlamlari qo'ng'ir-qizil rangli gillar bilan paragenesida dag'al donador gipsli qumtoshlardan tashkil topgan (1-rasm).

Sayoz lagunali sulfat tipidagi fatsiyalar chegaralangan bo'lib, Oloy bo'g'ozini orqali dengiz havzasining transgressiyasi natijasida Daniya-paleotsen davridagi tanaffusdan keyin hosil bo'lgan kech paleotsen cho'kindilarining transgressiv qatori bo'lgan gips goznu to'plamini o'z ichiga oladi.

Gipslar oq, kulrang, yashil-kulrang, shakarga o'xshash yoki qayta kristallangan yirik kristalli navlarga ega bo'lib, qalin plitali, ba'zan noaniq gorizontal qatlamli yoki qatlamlanmagan bo'ladi. Ularda ustki venali selenit keng rivojlangan, nodulyar kalsedon esa kamroq tarqalgan. Alohida qatlamlarning qalinligi 10-15 m dan oshmaydi. Oloy bo'g'ozini hududida va Yeskinaukat chuqurligida fatsiyalarning qalinligi 50 m va undan ko'pga yetadi.

Taqiqot olib borilgan hududning sharqiy qismida oq yoki sarg'ish gipsli dolomitning yupqa qatlamlari gips qatlamida uchratish mumkin, odatda, organik qoldiqlarsiz, lekin ba'zida peletipodlar va gastropodlarning mayda ezilgan shakllari bilan ham uchraydi. Dolomit yashil gillarining yupqa qatlamlari kamroq tarqalgan.


Janubda gipsning tepasida dolomit qatlamlari mavjud bo'lib, mikropaleontologik tadqiqotlar natijasida ularda faqat quyi paleotsen uchun xos bo'lgan aglyutinlangan foraminifer chig'anoqlaridan tashkil topgan organik qoldiqlar majmuasi aniqlagan. Farg'ona vodiysining katta qismini egallagan lagunaning g'arbiy qismida xuddi shu davrda paleotsen terrigen cho'kindilari (konglomeratlar, gravelitlar) yotqizilgan (1-rasm).

Toshkentoldi hududida bo'r davrining oxirida hosil bo'lgan pasttekislik, manfiy epeyrogenik harakatlar tufayli ko'rfaz tipidagi suv havzalari yuzaga kelgan. Bu davrda dengiz sathi asta-sekin chekina boshlagan. Toshkentoldi hududi pasttekislik bo'lgani va tektonik harakatlar juda sekin rivojlanganligi sababli, hududning deyarli barcha joyi sayoz havzalardan iborat bo'lgan. Butun hudud bo'ylab organik qoldiqlar, ba'zida laguna fatsiyasiga xos "Kaplanbek" tipidagi fauna qoldiqlaridan tashkil topgan qumli ohaktoshlar to'plangan.

Shunday qilib, paleotsen davrida Toshkentoldi hududining deyarli barcha hududlari sayoz suvli havza yoki bir-biri bilan bog'langan va ulardagi suvlarning sho'rlanish darajasining oshishi bilan ajralib turadigan ko'rfaz tipidagi havzalardan tashkil topgan deb xulosa qilish mumkin. Erta paleotsenda dolomitlar va dolomitlashgan ohaktoshlar, shuningdek, gips qatlamlari (Janubiy Farg'onada G'aznov gipsleri) hosil bo'lganligi bu yerda arid (issiqlik) iqlim sharoiti hukmron bo'lganligidan dalolat beradi.

Suvosti deltasi fatsial kamari. Suvosti deltasi fatsial kamarining dinamikasi, barcha yer usti va suv osti oqimlarida bo'lgani kabi progressiv xususiyatga ega. Genetik jihatdan, bu kamar tekislik vodiysi kamarining suv ostidagi delta qismi bilan bog'liq bo'lib, uning suv ostidagi bevosita davomi hisoblanadi. O'rganilgan hududning janubiy qismida Suvoq, Oloy va Sumsarning ilk davrlarida ancha barqaror suv osti deltasi fatsiyasining muhiti mavjud bo'lib, bu fatsial mintaq yaxshi differentsiatsiylanmagan qum-alevritli va gil cho'kindilaridan tarkib topgan. Bu yerda kichik qatlamlardan iborat bo'lgan yaxshi saralangan alevritlar va slyudalar to'plamidan tarkib topgan mayda zarrali dispers gillarning almashinib yotishi kuzatiladi. Paleogen qatlamlari kesmasida suvosti deltalari yotqiziqlarining qalinligi 10-50 metr larga boradi. Bunday sharoitda yotqizilgan cho'kindi jinslar ba'zan bir-biridan ajratilgan, gohida bir-biri bilan tor va keng poyaslarga tutashib, g'arbdan sharqqa o'nlab kilometrlarga cho'zilgan. Ko'rib chiqilayotgan hududning suv osti deltalari dengiz yoki qo'ltiqlar zonasida shakllangan, bu yerda zamonaviy deltalari singari, pasttekislik daryolaridan boshlanib suv havzalari tomon chiqur kirib boradi. Paleoisfara, Paleoxo'jabaqirg'on, kamdan-kam hollarda Paleosox va Paleoaksu daryolarining suv osti deltalari qo'ltiqlarning janubiy qismida vaqt hamda makon bo'yicha nisbatan bir xil bo'lganligidan dalolat beradi. Suvoq davrida ular bir-biri bilan qo'shib, planda yagona suv osti deltalari zonasini hosil qilgan (1-rasm).

Urinma to'liqlar fatsial kamari Farg'ona botig'ida sayoz dengiz to'liqlari hukmron bo'lgan barcha sohilbo'yi maydonlarini va Toshkentoldi hududlarini o'z ichiga oladi. Bu fatsial mintaqa yotqiziqlarining tarkibi xilma-xil. Teksturalar va organik qoldiqlarga ham boy. Bu yerda alevrolitlar, gillar, mergellar, ohaktoshlar va dolomitlar keng rivojlangan. Urinma to'liqlar fatsial kamarining tezkor zonasida paleoqurama yonbag'irlarida hamda Xo'jent bo'g'ozida to'liq ta'siri tufayli, asosan, qumtoshlar rivojlangan (1-rasm). O'rganilayotgan hududning qirg'oq qismida madalangan va bir muncha dumaloqlangan chig'anoq qoldiqlarini uchratish mumkin. Bundan tashqari urinma to'liqlar fatsial kamari hos bolgan simmetrik holatda to'liq ryablari (o'rkachlari orasidagi masofa 4,5- 5 va 10-11 sm) kuzatiladi.



1-rasm. Farg'ona botig'i va Toshkentoldi hududlaridagi paleogen davrining Suzoq qatlamlari uchun tuzilgan litologik-fatsial xarita. Miqyos: 1:200 000. Tuzuvchi: B.F.Meliboyev (R.F.Gekker 1962, G.A.Belenkiy, S.X.Mirkamalova, 1965, P.S.Sultonov, 2017 va boshqalarning materiallari asosida, 2021-yil).

1 – paleogengacha bo'lgan yotqiziqlar, 2 – quruqlik tekisliklarining qizil rangli cho'kindilar fatsiyasi, 3 – kvars qumlari, 4 – qumtosh qatlamlari, 5 – kulrang qumtoshlar, 6 – cho'kindi qumtosh qatlamlari, 7 – qumtosh, gil va ohaktosh qatlamlari, 8 – alevrolitlar va alevrolitli qumtoshlar, 9 – kvarsli alevrolit va qumtosh qatlamlari, 10 – alevrolit va qumtosh qatlamlari, 11 – qumohakli cho'kindilarning shag'al toshlar aralashmasi va graviyli qumlar qisqichbaqa chuqurchalari bilan hamda detritli ohaktoshlar hosilasi, 12 – mergel, dolomit, gips va gillarning qatlamlararo qatlamlanishi, 13 – qumtosh va gil qatlamlanishi. Suv osti deltasi fatsiyal zonas, 14 – gilli alevrolitlar, 15 – gips, 16 – quduqlar, 17 – shaharlar, 18 – ko'l, 19 – Sirdaryo, 20 – O'zbekiston chegarasi, 21 – fatsial laguna kamari, 22 – urinma to'liqlar fatsial kamarining illi fatsial zonas.

Tahlil natijalari (Analysis and results). Farg'ona botig'ining janubiy qismi va Toshkentoldi hududlarida urinma to'liqlar fatsial kamarining turg'un zonasiga (150-200 m chuqurlikda) xos tarkibida organik qoldiqlari mavjud bo'lgan massiv teksturali alevropelit va peloalevrolitlar hosil bo'lgan. Ularning rangi to'q kul rangdan qoragacha o'zgaradi, tarkibida tapqoq bitum, temir sulfidlari uchraydi.

Sayoz qo'ltiqlar fatsial kamari dengizning asosiy qismida joylashgan turli kamar va uyumlar bilan ajragan sayoz qo'ltiqlar, lagunalar, limanlar, fiordlardan tashkil topgan bo'ladi. Bu yerda yirik bo'lakli jinslar faqat daryolarning quyilish joyidagina uchraydi.

Paleogen yotqiziqlari bilan bog'liq noma'dan foydali qazilmalar ma'lum bir fatsial kamarlar bilan stratigrafik yondashganligi isbotlandi. Jumladan, Gaznov svitasining qalin qatlamli gipsleri, Suzoq qatlamlarining paligorskitli gillari, dolomitlari va travertinlari sayoz laguna tipidagi qo'ltiqlar fatsiyasi bilan, O'rta Suzoq qatlamlarining kvars qumlari suv osti deltasi fatsiyalari bilan, Oloy, Turkiston va Rishton qatlamlarining gillari, organogen ohaktoshlari, montmorillonitli gillri urinma to'liqlar fatsiyasi bilan, qalin qatlamli montmorillonite (ishqoriy yer) tarkibli mayda dispersli gillar markaziy tinish fatsial kamari bilan bog'liqligi asoslandi.

ADABIYOTLAR

1. Vyalov O.S. Farg'ona uchlamchi yotqiziqlarining bo'linish sxemasi. // SSSR Fanlar Akademiyasi ma'ruzalari - № 3-4. - 1935. - S. 16-22.
2. Попов В.И., Запроматов В.Ю. Генетическое учение о геологических формах – М.: «Недра», 1985. – 456 с.
3. Белецкий Г. А., Миркамалова С. Х., Морозов С. Д., Ибрагимов Р. Н. Меловые и палеогеновые отложения северо-восточной части Приташкентской депрессии (район сел. Турбат). Тр. ТашГУ, вып. 220, геология, Ташкент, 1963.
4. Белецкий Г. А., Миркамалова С. Х. Палеогеография мела и палеогена Приташкентской депрессии. Издательства М-Л.: «Недра», 1965. – 113 с.
5. Султонов П.С. Фацально-палеогеографические условия формирования палеогена Южной Ферганы и связанные с ними полезные ископаемые //Геология и минеральные ресурсы. - 2015. - № 3. - С. 38-45.
6. Мелибоев Б., Султонов П, Гаффарова П. Новые данные по результатам изучения вещественного состава глин проявления Болгали (Кураминских гор) // Вестник НУУз. - 2021. - № 3/1.1. - С. 215-219
7. Meliboyev B., Sultonov P., Kodirov M., Toshtemirov Sh. Shimoliy Farg'onada tarqalgan paleogen yotqiziqlarining o'ziga xos xususiyatlari// O'zMU xabarlari. – 2021. - № 3/1.2. - B. 146-150.
8. Meliboyev B.F. Farg'ona botig'i va Toshkentoldi hududlarida tarqalgan suzoq qatlamlarining (Erta eotsen) litologo-fatsial tahlili// Ekologiya xabarnomasi. - 2022. - № 4. - B. 58-61.



UDK:553.8:622.37(575.1)

Feruza TADJIBAYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: feruzaahmedovna1990@gmail.com
Maftuna SAIDOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: maftunaasadova727@gmail.com
Dilafro'z ABDUSAMATOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: dilafrozabdusamatova953@gmail.uz

Geologiya fanlari universiteti professori P.Sultonov tashqi taqrizi asosida

CHOTQOL-QURAMA, TURKISTON-NUROTA VA ZIRABULOQ-ZIYOVUDDIN TOG'LARIDA TABIIY DEKORATIV (PARDOZBOB) TOSHLARNI O'RGANISH

Annotation

According to the geological structure, the territory of the Republic of Uzbekistan is divided into the following regions. Chotkal-Kuramin, Turkestan-Nurota, Zirabuloq-Ziyavuddin, Southern Fergana and Qizilqum regions. Below is a brief description of the mining districts identified for the planned operations. The studied area is part of the Chatkal Kurama region, according to its administrative division, it is part of the Tashkent region. The region includes the southwestern ranges of the northern Tyan-Shan represented by the Maydantal, Ugom, Pskem, Karjantau, Chatkal, and Kurama ranges.

Key words. Maydantal, Ugom, Pskem, Karjantau, Kutarma, Taretau, Leukratic granites, marble onyx, gabbro.

ИЗУЧЕНИЕ ПРИРОДНЫХ ДЕКОРАТИВНЫХ (ОРНАМЕНТАЛЬНЫХ) КАМНЕЙ В ГОРАХ ЧАТКУЛЬ- КУРАМА, ТУРКЕСТАН-НУРОТА И ЗИРАБУЛАК-ЗИЯВУДДИН

Аннотация

По геологическому строению территория Республики Узбекистан делится на следующие районы: Чаткало-Кураминский, Туркестано-Нуратинский, Зирабулак-Зиявуддинский, Южно-Ферганский и Кызылкумский районы. Ниже проводится краткое описание горнодобывающих районов, определенных для планируемых работ. Исследуемая территория входит в состав Чаткало-Кураминского района, по административному делению входит в состав Ташкентской области. В состав региона входят юго-западные хребты Северного Тянь-Шаня, представленные, хребтами Майдантал, Угом, Пскем, Каржантау, Чаткал и Курама.

Ключевые слова: Майдантал, Угом, Пскем, Каржантау, Кутарма, Таретау, Лейкократит, Граниты, мраморный оникс, габбро.

ИЗУЧЕНИЕ ПРИРОДНЫХ ДЕКОРАТИВНЫХ (ОРНАМЕНТАЛЬНЫХ) КАМНЕЙ В ГОРАХ ЧАТКУЛЬ- КУРАМА, ТУРКЕСТАН-НУРОТА И ЗИРАБУЛАК-ЗИЯВУДДИН

Аннотация

O'zbekiston Respublikasi hududi geologik tuzilishiga ko'ra quyidagi viloyatlarga bo'linadi: Chotqol-Qurama, Turkiston-Nurota, Zirabuloq-Ziyavuddin, Janubiy Farg'ona va Qizilqum viloyatlari. Quyida rejalashtirilgan ishlar uchun aniqlangan tog'-kon rayonlarining qisqacha tavsifi keltirilgan. O'rganilayotgan hudud Chotqol-Qurama mintaqasi, ma'muriy bo'linishiga ko'ra Toshkent viloyat tarkibiga kiradi. Mintaqaga Maydantal, Ugom, Pskem, Karjantau, Chotqol va Qurama tizmalari bilan ifodalangan shimoliy Tyan-Shanning janubi-g'arbiy tizmalari kiradi.

Kalit so'zlar. Maydantal, Ugom, Pskem, Karjantau, Kutarma, Taretau, Leykokratik granitlar, Marmarli oniks, gabbro.

Kirish. O'rganilayotgan obyektlar O'zbekiston Respublikasining uchta: Chotqol-Qurama, Turkiston-Nurota va Zirabuloq-Ziyoviddin tog'-kon (ma'dan) mintqalarida joylashgan. O'zbekistonda dekorativ qoplamali toshlardan tashqari, respublika zargarlik va toshni qayta ishlash sanoatida turli xilda qo'llaniladigan va geologik kelib chiqishi zargarlik va bezak toshlar bo'lgan ko'plab konlari uchraydigan joylari mavjud.

IX-XV asrlardagi respublika tarixi adabiyot, fan va san'atning yuksak taraqqiyoti bilan ajralib turadi. Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlarda ko'plab hunarmandlar va hunarmandlar mehnat qilib, turli xil yuksak badiiy mahsulotlar, jumladan, rangli toshlardan buyumlar yaratdilar.

Tarixiy ma'lumotlardan ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida qadim zamonlardan beri qimmatbaho toshlar ikki maqsadda ishlatilgan:

1. Zargarlar uchun material sifatida (sirg'alar va uzuklar uchun qo'shimchalar, qurollar, taxtlar, xon liboslari va boshqalarni bezash uchun).

2. Qimmatbaho buyumlar sifatida – boylik ramzi sifatida (ko'p toshlar oltindan qimmatroq edi).

Zargarlik va bezaktoshlarini qazibolish, qaytaishlash va ulardan foydalanish asosan xonlar va boshqa ba'zi saroy hukmdorlarining tor manfaatlarini qondirish, qisman kichik hunarmandchilik uchun ham amalga oshirilgan.

Insoniyatning moddiy madaniyati tarixidagi toshning o'rmi u ifodalaydigan pul qiymati bilan emas, balki go'zallik, yorqinlik va yorqinlik jozibas, tabiiy xususiyatlar va ijodiy dizaynning badiiy uyg'unligi bilan belgilanadi.

So'nggi paytlarda sun'iy tosh zavodlari, tabiiy toshni qazibolish va qaytaishlash zavodlari, kristalllarni qaytaishlash bilan bog'liq korxonalar va sexlarpaydo bo'ldi.

Hozirgi vaqtda zargarlik buyumlari va yarimqimmatbaho toshlar jahon miqyosida oltin, qo'rg'oshin va boshqa taniqli metallar kabi minerallarning qiymatiga teng umumiy miqdorda qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi konlarida qazib olingan qimmatbaho tosh xomashyosidan zargarlik va san'at buyumlari ishlab chiqarishda keng foydalaniladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hududning o'rganilish tarixi 120-130 yildan ortiq tarixi ko'plab mashhur geologlarning nomlari bilan bog'liq: I.V.Mushketov, G.D.Romanovskiy, K.Leyksa, V.N.Veber, D.V.Nalivkin, V.I.Popov, B.N.Nasledov, A.S.Uklonskiy, T.N.Dalimov va boshqa ko'plab tadqiqotchilar (SSSR geologiyasi, XXIII. O'zbekiston SSR, 1-kitob, 2. M., 1972, Geologiya,) va O'zbekiston Respublikasining foydali qazilmalari.T., 1998 va b.).X.N.A.M.Akramxo'jaev, S.X.Mirkamalova, V.A.Arapov, T.N.Dalimov va boshqa ko'plab tadqiqotchilar (SSSR geologiyasi, XXIII. O'zbekiston SSR, 1-kitob, 2. M., 1972, Geologiya, Geologiya) va O'zbekiston Respublikasining foydali qazilmalari.T., 1998 va b.). Chotqol-Qurama hududi geologik jihatdan ancha yaxshi o'rganilgan bo'lib, 1:100000 masshtabdagi geologik tadqiqotlar bilan to'liq qamrab olingan.Bundan tashqari, hududning ko'p qismida 1:50000, 1:25000 masshtabli tadqiqotlar ham olib borilgan. Geologiya xaritalash ishlarida turli davrlarda qatnashganlar: A.S.Adelung, P.N.Podkopaev, Z.P.Artemova, M.G.Kalabina, I.M.Bogomolnii, I.D.Doronkin, V.I.Surgutov, V.P.Korjaev, A.P.Agafonov, V.I., V.Kolesov, S.I.Kolesov, S.I.Kolesov., G.V. Balakin va boshqalar.

Chotqol-Qurama hududi o'rta Tyan-Shanning Qoratov-Norin va Beltau-Qurama strukturaviy-formatsion zonalar tarkibiga kiradi.

Mintaqaning geologik tuzilishi turli xil paleozoy cho'kindi-metamorfik yotqiziqlari, mezo-kaynozoy cho'kindi yotqiziqlari, shuningdek, paleozoy davrining vulkanogen va magmatik tog' jinslarining keng majmuasini o'z ichiga oladi (grafik ilovasi №).

Turkiston-Nurota mintaqasi Geologik jihatdan bu hudud juda yaxshi o'rganilgan. Viloyatning butun maydoni 1:200 000 va 1: 100 000 masshtabdagi geologik tadqiqotlar bilan, hududning bir qismi 1:50 000 va 1:25 000 masshtabdagi geologik tadqiqotlar bilan qoplangan.

Turkiston-Nurota viloyati hududi Turkiston-Oloy va Zarafshon-Turkiston strukturaviy-formatsion zonalar tarkibiga kiradi, ularning chegarasi Shimoliy Nurota chuqur yorig'i bo'ylab o'tadi.

Mintaqaning geologik tuzilishi keng paleozoy cho'kindi, metamorfik va magmatik tog' jinslari va mezo-kaynozoy yotqiziqlarini o'z ichiga oladi.


Zirabuloq-Ziyavuddin tog'larining geologik tuzilishi ordovik, silur, devon, karbon, mezo-kaynozoy yotqiziqlari va yuqori paleozoyning turli intruziv tuzilmalarini o'z ichiga oladi.

Tahlil va natijalar. Geologik topshiriq va ishlarni bajarish metodologiyasiga ko'ra, ular 2 bosqichda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan edi.

I bosqichda (2016-2018 yillar) marmarli oniks va boshqa rangli toshlardan 31 ta ob'ektning geologik tadqiqoti o'tkazildi. Mineral jismlarning shakli va tuzilishini, ularning mineral tarkibini, ishlab chiqarish jismlarining fazoda tarqalishini belgilovchi litologik va struktura xususiyatlarini o'rganishga alohida e'tibor berildi.2016 yildan 2018 yilgacha bo'lgan davr uchunZaxirani hisoblash konturidan tashqari P1 va P2 toifalaridagi bashorat qilingan resurslarni baholash uchun 16 ta istiqbolli maydonlar aniqlandi. I bosqichda olib borilgan ishlar natijasida quyidagilar belgilandi:

Marmarli oniksi – geologik qidiruv ishlari uchun 9 ta istiqbolli kon va 3 ta namoyoni aniqlangan. II bosqichda “Regionalgeologiya” davlat unitar korxonasining Namangan partiyasi (Ojegov Y.E., Mexliev B.M., Jalilov J.F. va boshqalar) loyiha (qo'shimcha) ustida ish olib bordi: Marmarli oniksini tarqatish bo'yicha uchta istiqbolli uchastkada ushbu xom ashyoning resurslari P1 va P2 toifalarida baholandi. Pardozbob toshlar tog' jinslari yettita guruhga bo'lingan:

I – granit; II – gabbro; III – marmar; IV – ohaktosh va dolomit; V – bazalt; VI – tuflar;VII – boshqa tog' jinslar.



Granitlar guruhiga kiruvchi magmatik (intruziv) tog' jinslar, magmani yer qobig'idagi yoriqlarida yuqori bosim orqali hamda sekin sovish natijasida to'liq kristallangan. Granit guruhiga mansub tog' jinslar juda qattiq, zich bo'ladi va turli kristallangan minerallardan iborat. Ushbu minerallar o'zaro mustahkam hech qanday bog'lovchisiz mahkam bog'langan.

Tog' jinslar donalar hajmi bo'yicha ajratiladi, kichiklari (2 mm gacha) o'rtanchalari (2 mm dan 5 mm gacha) kattalari (5 mmdan yuqori). Tog' jinsini ichidagi donalar qanchalik kichik bo'lsa zichligi va chidamligi yuqori bo'ladi.

Granit tog' jinslari donalari ko'pincha bir tekis taqsimlanadi, shuningdek porfiritlashgan va chiziqli shaklda uchraydi.

Ular past haroratli gidrotermal suvli yoki teletermal eritmalaridan, shuningdek, cho'kma-inflyatsiya (karst va g'or bo'shliqlarida) natijasida hosil bo'lishi mumkin edi. Ular orasida quyidagi: tomirlar, linzalar, mayda tomirchalar zonasi, kam xollarda qoplama va uyumlar ko'rinishidagi morfologik turlari ajratilgan. Barcha o'rganilgantomirli, linzasimon tanalari kanavalar, tozalangan maydonchalar inshootlari orqali ochilgan, ulardan namunalar olingan.

O'rganilgan marmarli oniks konlari va namoyonlarining baholash mezonlari majmui sifatida xomashyoning quyidagi asosiy xususiyatlari, xossalari vaparametrlari xisobga olindi: bloklik, mexanikchidamligi (bardoshligi), darzlilik, kattikligi, g'ovakligi, strukturaviyvateksturaviyxususiyatlari, shaklko'rinishi, manzaraviy (ziynatli) kurinishi, ishlov berish jarayonidagi pishiqligi, mustaxkamligi, oniksning (sanoatda urtacha minimal ajratibolishdarajasi 26 % atrofida), fazoviy parametrlari (uzunligi, kalinligi) va b. Xomashyoning asosiy nuqsonlariga (kamchiliklariga) past darajadagi mexanik mustaxkamligi (ishlov berish jarayonida kalsit kristallarining uvalanib, maydalanib ketishi), mikrodarzliligi, mikrogovakligi, kovakligi, saykallanish xususiyatining pastligi va b. kiradi.

Minguchar, Sharqiy Qoramozor, Temir-Kobuk, Xumsan, Oqsuv, Surenota, Ustaxan marmarli oniks konlariga ijobiy baxo berildi.

ADABIYOTLAR

1. T.N.Dalimov (SSSR geologiyasi, XXIII. O'zbekiston SSR, 1-kitob, 2. M., 1972 Geologiya, Geologiya) va O'zbekiston Respublikasining foydali qazilmalari. T., 1998 va b).



UDK: 314.186.4

Zokirjon TEMIROV,
Andijon davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: zokirjon82@mail.ru
Orcid: 0000-0002-1170-9889

FarDU Geografiya kafedrası mudiri, (PhD) Z.Madaminov taqrizi asosida

GO'DAKLAR O'LIMI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI GEOGRAFIK OMILLAR (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)

Аннотация

Andijon - O'zbekistonning o'ziga xos demografik salohiyatga ega viloyati hisoblanadi. Viloyatda bir yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi so'nggi o'n yillikda respublika ko'rsatkichidan yuqori bo'lib kelmoqda. Shu maqsadda go'daklar o'limi hamda unga ta'sir etuvchi geografik omillarni Andijon viloyati misolida tadqiq etildi.

Kalit so'zlar: Andijon viloyati, go'daklar o'limi, geografik omillar, urboekologik vaziyat, demografik omil, geoekologik omil.

INFANT MORTALITY AND GEOGRAPHICAL FACTORS AFFECTING IT (ON THE EXAMPLE OF THE ANDIJAN REGION)

Annotation

Andijan is a region of Uzbekistan with unique demographic potential. The mortality rate of children under one year of age in the region has been higher than the national average for the past decade. For this purpose, infant mortality and the geographical factors affecting it were researched using the example of Andijan region.

Key words: Andijan region, infant mortality, geographical factors, urban-ecological situation, demographic factor, geo-ecological factor.

МЛАДЕНЧЕСКАЯ СМЕРТНОСТЬ И ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА НЕЕ (НА ПРИМЕРЕ АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ)

Аннотация

Андижан - область Узбекистана с уникальным демографическим потенциалом. Смертность детей в возрасте до одного года в области за последнее десятилетие была выше, чем в среднем по стране. С этой целью на примере Андижанской области исследована младенческая смертность и географические факторы, влияющие на нее.

Ключевые слова: Андижанская область, младенческая смертность, географические факторы, урбоэкологическая ситуация, демографический фактор, геоэкологический фактор.

Kirish. Jahon miqyosida hozirgi kunda go'daklar o'limiga ta'sir etuvchi endogen va ekzogen, ayniqsa kvaziendogen omillarni aniqlash hamda bolalar salomatligini yaxshilashga alohida ahamiyat berilmoqda. Shunga bog'liq holda, go'daklar o'limini yaxlit kategoriya sifatida tadqiq etish, unga ta'sir etuvchi tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillarni aniqlash, sabablarga ko'ra o'lim holatlarini tahlil etish va prognoz qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda respublikamizda aholi salomatligini yaxshilash, demografik jarayon hisoblangan go'daklar o'limi holatini kamaytirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi tog'risidagi PF-158-son farmonida "Onalar va bolalar o'limini qisqartirish, sog'lom bolalikni ta'minlash" borasida muhim vazifalar belgilab qo'yilgan. Jumladan, homiladorlik aniqlangan vaqtdan boshlab tug'uruqdan so'ng 42 kun ichida ayollar, go'daklar va besh yoshgacha bolalar orasidagi o'limni **2 barobarga** kamaytirish vazifasi kiritilgan [2]. Bu borada hududlardagi go'daklar o'limi dinamikasi, uning hududiy tafovutlari hamda unga ta'sir etuvchi geografik omillarni aniqlashga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.


Adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda aholishunoslik, demografik jarayonlar, o'lim va go'daklar o'limi masalalari bilan M.Q.Qoraxonov, I.R.Mullajonov, X.Salimov, E.A.Ahmedov, R.A.Ubaydullaeva, O.B.Ata-Mirzaev, A.A.Qayumov, Q.X.Abduraxmonov, A.S.Soliev, L.P.Maksakova, M.R.Bo'rieva, Z.N.Tojjeva, N.Q.Komilova, I.Turdimambetov, R.B.Qodirov, G.A.Xodjaeva, N.J.Yembergenov, N.J.Muhammedova va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy ishlarida Andijon viloyatida go'daklar o'limi hamda unga ta'sir etuvchi geografik omillar masalalari yetarlicha tadqiq etilmaganligi mazkur tadqiqot ishi mavzusining tanlanishiga asos bo'ldi.

Tadqiqot obyekti. Mazkur tadqiqot obyekti sifatida Andijon viloyati aholisi va go'daklar o'limi jarayoni olingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada geografik taqqoslash, tizim-tarkib, hududiy tahlil, tarixiy, statistik-matematik, baholash kabi metodlardan foydalanildi.


Tahlil va natijalar. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy, huquqiy yo'nalishdagi barcha islohotlar pirovard natijada inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan. Oilada sog'lom muhit yaratish, barkamol avlod tarbiyalashda go'daklar o'limini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev aytganidek "Ona va bola sog'lig'iga e'tibor - jamiyatga, kelajakka e'tibor" hisoblanadi [3].

Andijon viloyatda aholining reproduktiv salomatligini yaxshilash, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog'lom avlod tug'ilishi va go'daklar o'limini kamaytirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada, viloyatda 1991-2023 yillar davomida chaqaloqlar o'limi ko'rsatkichi sezilarli darajada kamayganini kuzatish mumkin (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi va Andijon viloyatida go'daklar o'limi koeffitsienti

1991 yilda har mingta tirik tug'ilgan chaqaloqqa nisbatan bir yoshgacha vafot etgan bolalar soni 31,1 tani tashkil etgan. Keyingi yillarda bu ko'rsatkich kamayib bordi va 2000 yilda 15,5 ta, 2010 yilda 9,4 ta 2023 yilda 9,9 tani tashkil etdi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, 2011 yilga qadar Andijon viloyatida go'daklar o'limi koeffitsienti respublika ko'rsatkichidan past bo'lib kelgan bo'lsa, undan keyingi davrda viloyat ko'rsatkichi mamlakatning o'rtacha koeffitsientidan yuqori bo'lib kelmoqda. Bu esa Andijon viloyatida go'daklar o'limi hamda unga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish dolzarb ahamiyatga ega ekanligini bildiradi. O'zbekiston Respublikasi, xususan Andijon viloyatida onalik va bolalikni muhofaza qilish, tibbiy xizmat ko'rsatishni yanada rivojlantirish, sog'lom ona va sog'lom bola shiori ostida amalga oshirilgan islohatlar natijasida bir yoshgacha go'daklar o'limida kamayish kuzatilmoqda. Shu bilan birga go'daklar o'limini asosiy sabablarida davriy o'zgarish kuzatilmoqda (2-rasm)



2-rasm. Andijon viloyatida go'daklar o'limi sabablarini dinamikasi

Go'daklar o'limi sabablari bo'yicha tahlil qilinganda, 2010 yilda nafas olish a'zolari kasalliklari bilan vafot etish xolatlari ang ko'p kuzatilgan (46,1 foiz), shuningdek, perinatal davrda yuzaga kelgan xolatlar (37,1 foiz), tug'ma anomaliyalardan (13,3 foiz) vafot etish xolatlari ko'p bo'lgan. Keyingi yillarda perinatal davrda yuzaga kelgan sabablar bo'yicha go'daklar o'limi soni ortib bormoqda. Jumladan, 2020 yilda chaqaloqlar o'limining 63,7 foizida perinatal davrda yuzaga kelgan xolatlar asosiy sabab bo'lmoqda.

Andijon viloyatida go'daklar o'limini 2010-2020 yillardagi dinamikasi o'ziga xos hududiy xususiyatlarga va tafovutlarga ega (2-jadval).

2-jadval

Andijon viloyati shahar va tumanlarida chaqaloqlar o'limi koeffitsienti

№	Tuman va shaharlar nomi	2010			2012			2020			O'zgarishlar indeksi
		Tug'ilganlar soni	O'lgan chaqaloqlar soni	Chaqa loqlar o'limi koeffitsienti	Tug'ilganlar soni	O'lgan chaqaloqlar soni	Chaqa loqlar o'limi koeffitsienti	Tug'ilganlar soni	O'lgan chaqaloqlar soni	Chaqa loqlar o'limi koeffitsienti	
1	Andijon sh.	8049	76	9,4	7858	72	9,2	11603	180	15,5	1,6
2	Honobod sh.	798	11	13,8	718	9	12,5	840	20	23,8	1,7
3	Oltinko'l	3638	28	7,7	3234	19	5,9	4756	69	14,5	1,9
4	Andijon	5434	39	7,2	4560	36	7,9	7057	104	14,7	2,0
5	Baliqchi	3865	31	8,0	3622	27	7,5	5227	63	12,1	1,5
6	Bo'ston	1371	7	5,1	1265	6	4,7	1876	24	12,8	2,5
7	Izboskan	4821	48	10,0	4473	40	8,9	6269	106	16,9	1,7
8	Ulug'nor	1158	5	4,3	1097	5	4,6	1525	30	19,7	4,6
9	Asaka	6178	70	11,3	5893	52	8,8	8682	145	16,7	1,5
10	Jalaquduq	3815	29	7,6	3399	25	7,4	4565	36	7,9	1,0
11	Qo'rg'ontepa	4400	30	6,8	3695	22	6,0	5048	34	6,7	0,98
12	Xo'jaobod	2186	21	9,6	2070	19	9,2	2946	29	9,8	1,02
13	Marhamat	3300	33	10,0	3096	45	14,5	4361	40	9,2	0,92
14	Shahrixon	6113	68	11,1	5561	71	12,8	8029	79	9,8	0,92
15	Paxtaobod	4013	47	11,7	3792	44	11,6	5186	50	9,6	0,82
16	Buloqboshi	2673	31	11,6	2415	17	7,0	3455	26	7,5	0,64
	Viloyat bo'y.	61887	563	9,1	56748	461	8,1	81425	1035	12,7	1,4

Jadval viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

- Go'daklar o'limi ortib borgan tumanlar
- Go'daklar o'limi o'zgarishsiz tumanlar
- Go'daklar o'limi kamayib borgan tumanlar

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga ko'ra, Andijon viloyatida 2010-2020 yillarda go'daklar o'limi koeffitsienti har mingta tirik tug'ilgan chaqaloqqa nisbatan 9,1 ta to'g'ri kelgan bo'lsa, 2020 yilda bu ko'rsatkich 12,7 taga ortganligi kuzatildi. Shuningdek,

viloyat shahar va tumanlarida mazkur dinamika turlicha ko'risinishga ega bo'ldi. Jumladan, viloyat aholisini qariyb 60 foizini tashkil etuvchi Oltinko'l, Andijon, Baliqchi, Bo'ston, Izboskan, Ulug'nor, Asaka tumanlari hamda Andijon va Honobod shaharlarida tahlil qilinayotgan yillarda go'daklar o'limini ortishi kuzatildi. Mazkur tumanlar orasida eng yuqori daraja Bo'ston va Ulug'nor tumanlarida kuzatildi. Viloyat aholisini 15 foiz aholisini tashkil etuvchi Jalaquduq, Qo'rg'ontepa va Xo'jaobod tumanlarida go'daklar o'limi ko'rsatkichlari o'zgarishlar kuzatilmadi. Viloyat aholisini 25 foizida, jumladan Bulqoboshi, Marxamat, Paxtaobod, Shahrixon tumanlarida go'daklar o'limi kamayganini kuzatish mumkin. Mazkur o'zgarishlarni Andijon viloyati tuman va shaharlarini joylashuvi bo'yicha tahlil qilinganda viloyatning asosan markaziy va g'arbiy tumanlarida go'daklar o'limini ortib borganligi, sharqiy tumanlarida esa o'zgarishsiz, yoki kamayganini kuzatilgan. Bunda, viloyat tumanlarini g'arbdan sharqqa go'daklar o'limi kamayib borgan degan hulosaga kelish mumkin. Shuningdek, Andijon hamda Honobod shaharlarida ham bu ko'rsatkich ortib borgan.

Go'daklar o'limiga turli omillar ta'sir etadi. Jumladan, tibbiy, ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy omillar, irsiy kasalliklar, turli epidemiyalar va hk. Mazkur tadqiqot ishida go'daklar o'limiga ta'sir etuvchi geografik omillarni aniqlashga harakat qilindi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografik omillar- Urbanizatsiya. Andijon viloyati mamlakatda urbanizatsiyaning o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Viloyatda urbanizatsiya darajasi 52,5 foizni tashkil etib, Andijon va Honobod shaharlari viloyatga bo'ysunuvchi shahar xisoblanadi. Urbanizatsiya darajasi rivojlanishiga ko'ra Andijon viloyati tuman va shaharlarini yuqori urbanizatsiyalashgan, o'rtacha va past urbanizatsiyalashgan tumanlar guruhiga ajratildi. Unga ko'ra, Andijon va Honobod shaharlari, shuningdek, Andijon va Marxamat tumanlari yuqori guruhga, Oltinko'l, Bulqoboshi, Jalaquduq, Qo'rg'ontepa va Xo'jaobod tumanlari o'rtacha guruhga va qongan tumanlar past darajada urbanizatsiyalashgan guruhga kiritildi (3-jadval).

Andijon viloyati sanoati iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i sifatida viloyatning iqtisodiy holatini o'zgartiradi va iqtisodiyotning ijtimoiy barqarorligini ta'minlaydi.

Mazkur tadqiqot ishida sanoatning umumiy ko'rsatkichlari bo'yicha tahlillarga asoslandi. Unga ko'ra, Andijon viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda eng katta salmoqqa ega bo'lgan tumanlar Asaka, Qo'rg'ontepa, Xo'jaobod, Baliqchi tumanlari, Andijon hamda Xonobod shaharlari hisoblansa, mazkur tuman va shaharlar urbanizatsiya darajasining yuqoriligi bilan ham ajralib turibdi.

Yuqorida aytib o'tilgandek, go'daklar o'limiga bir omil emas, bir necha omil birgalikda yoki uyg'unlikda ta'sir etadi. Urbanizatsiyaning yuqori bo'lishi albatta

3-jadval

Andijon viloyatida go'daklar o'limiga ta'sir etuvchi geografik omillar

Hudud nomi	Iqtisodiy-ijtimoiy geografik omillar				Geodemografik omillar		Geoekologik omillar
	Go'daklar o'limi koef	Urbanizatsiya	Sanoatlashish (% his)	Har 10 ming kishiga to'g'ri ko'pyalar soni	18 yoshgacha bo'lganlar soni (har 10 mingta ayolga nisbatan)	17-18 yoshdagi qizlarga tug'ilish ko'rsatkichi	Atmosfera ifloslanishi (toma xisobida)
Andijon shahri	15,6	100,0	14,6	149,5	8,91	33,1	9 830,0
Xonobod shah	23,8	82,7	4,1	36,4	5,77	24,2	5,0
Oltinko'l	14,5	52,9	2,0	24,6	6,53	22,9	27,9
Andijon	14,7	75,3	2,4	27,4	5,92	24,3	16,8
Baliqchi	12,1	35,3	2,5	44,1	2,51	9,3	0,5
Bo'ston	12,8	34,4	0,8	23,6	5,04	18,4	46,3
Bulqoboshi	7,5	49,5	1,3	47,0	3,40	12,5	1,4
Jalaquduq	7,9	41,6	2,0	50,0	2,82	10,3	23,5
Izboskan	16,9	32,0	2,0	34,6	3,99	14,8	1,8
Ulug'nor	19,7	10,3	0,9	17,3	3,50	12,8	2,6
Qo'rg'ontepa	6,7	43,6	4,2	25,0	4,37	16,2	41,7
Asaka	16,7	30,7	54,5	43,8	6,17	24,1	560,2
Marhamat	9,8	79,6	1,1	45,2	4,03	13,6	1,8
Shahrixon	9,8	33,2	2,3	25,4	9,22	29,6	0,6
Paxtaobod	9,6	37,1	1,6	44,4	3,78	13,6	0,5
Xo'jaobod	9,8	42,2	3,9	33,5	3,14	11,2	724,1
Jami:	12,7	52,5	100	51,7	4,9	18,2	11 285
	-10,0	37,7	-5,25	4,1	3,84	-14,2	-5,5
	10,0-15,5	37,7-67,7	5,25-7,35	3,1-4,0	3,85-6,0	14,3-22,2	5,6-20,7
	15,5+	67,7	7,36+	-3	6,1+	+22,3	20,8+

*-2022 yilda Jalaquduq tumanida 1 nafar va Paxtaobod tumanida 3 nafar qiz 17 yoshida turmushga chiqqan.

Jadval Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

hududda sanoatning ustun ahamiyatga ega bo'lishida muhim omil sanaladi. Shuningdek, shaharlarda sanoatning rivojlanishi, transport va boshqa omillar ta'sirida atmosferaga chiqariladigan zararli gazlar va chiqindilar miqdorini ortishiga olib keladi. Bunda biz tomonimizdan aniqlangan iqtisodiy va ijtimoiy geografik omillar bilan birga geoekologik omilning uyg'unlashuvini kuzatish mumkin bo'ladi.

Andijon viloyatida Andijon shahri va unga qo'shni Oltinko'l, Andijon tumanlari, avtomobilsozlik markazi hisoblangan Asaka tumani, shuningdek, trikotaj hamda qurilish materiallari ishlab chiqarishda yetakchi bo'lgan Xo'jaobod tumani, Qo'rg'ontepa, Jalaquduq tumanlarida atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar va chiqindilar miqdori yuqoriligi bilan ajralib turibdi. Mazkur tumanlarda go'daklar o'limini asosiy omillari sifatida geoekologik omilni keltirib o'tish joiz.

Go'daklar o'limi tahliliga ko'ra, aksariyat vafot etayotgan bir yoshgacha bo'lgan bolalar onalarning birinchi farzandi, yoki yosh onalarda eng ko'p kuzatilmoqda. Go'daklar o'limida onalarning ilk nikohga kirish yoshi, birinchi farzand ko'rish yoshi, ilk nikoh va birinchi farzand ko'rish yoshi orasidagi davr (protogenetik interval), birinchi, ikkinchi va undan keyingi farzandlar orasidagi davr (intergenetik interval) kabi geodemografik omillarning ham o'rni katta hisoblanadi. Andijon viloyati aholisi statistik ma'lumotlari tahliliga ko'ra 2022 yilda 18 yoshga yetmasdan ona bo'lganlar soni har mingta ayolga nisbatan Andijon shahri, Oltinko'l, Asaka va Shahrixon tumanlarida yuqori ko'rsatkichga ega. Bunda Andijon shahri, Asaka, Oltinko'l tumanlarida aholi milliy tarkibining murakkablashuvi natijasida shaharlarda milliy urf-odatlar, qadriyatlarning zaiflashib borishi asosiy omil sifatida qaralsa, Shahrixon tumanida o'ziga xos shakllangan milliy mentalitet, ya'ni qizlarni erta turmushga berish muhim o'rin tutadi.

Geodemografik omilda yana shuni alohida takidlash lozimki, statistik ma'lumotlar tahlilida 18 yoshgacha ona bo'lganlarning har mingta 17-18 yoshdagi qizlarga nisbatida ham Andijon, Honobod shaharlari, Oltinko'l, Andijon, Asaka va Shahrixon tumanlari eng yuqori darajani egallab turibdi. Mazkur tumanlarda mahalla yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faollarini faoliyatlarini yanada kuchaytirishni taqozo etiladi.

Bugungi kunda go'daklar o'limining asosiy omili sifatida perinatal davrda yuzaga kelgan xolatlar tashkil etmoqda (63,7 foiz). Keyingi o'n yillikda perinatal davrda yuzaga kelgan xolatlar bo'yicha vafot etish ortib borganligi kuzatildi. Bunda onalarni tug'riqgacha va tug'riqdan keyingi holatini doimiy nazoratga olish, ularga tibbiy xizmat ko'rsatish kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqqan xolda, Andijon viloyati shahar va tumanlarida tibbiyot muassasalari soni, tibbiyot muassasalaridagi joylar (koykalar) soni, vrachlar va o'rta tibbiyot xodimlari soni bo'yicha tahlillar amalga oshirildi (4-jadval).

4-jadval

Andijon viloyatida tibbiy xizmat ko'rsatish

Tumanlar	Shifoxonalar soni	Shifoxonalardagi o'rinlar soni (har 10 ming kishiga nisbatan)	Ambulator poliklinikalar soni	Vrachlar soni (har 10 ming kishiga nisbatan)	O'rta tibbiyot xodimlari soni (har 10 ming kishiga nisbatan)
Viloyat jami	162	43,31	577	24,90	99,81
Andijon sh.	68	142,29	151	90,31	250,25
Xonobod sh.	3	28,65	8	19,55	124,38
Oltinko'l	5	19,52	31	13,22	76,01
Andijon	5	20,75	37	13,61	64,03
Baliqchi	2	34,74	33	14,20	75,72
Bo'ston	2	23,61	14	8,92	90,52
Buloqboshi	2	32,28	17	16,41	97,32
Jalaquduq	3	28,95	25	15,47	62,30
Izboskan	6	18,85	36	13,50	62,32
Ulug'nor	1	16,67	11	15,88	112,12
Qo'rg'on-tepa	5	22,56	39	16,59	69,84
Asaka	12	27,77	52	10,99	70,62
Marxamat	7	38,36	31	18,14	94,96
Shahrixon	17	26,99	25	12,61	61,41
Paxtaobod	20	39,82	23	14,79	80,03
Xo'jaobod	4	22,79	44	15,79	92,42

Jadval Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Andijon shahri viloyat markazi bo'lganligi uchun shifoxonalar, undagi o'rinlar, vrachlar hamda o'rta tibbiyot xodimlari soni ko'pchilikni tashkil etmoqda. Bu yerda nafaqat shahar aholisi, balki butun viloyat aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatuvchi tibbiyot muassasalari, jumladan Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi Andijon filiali, viloyat perinatal markazi, yuqumli kasalliklar, teri-tanosil kasalliklari va boshqa shifoxonalar joylashgan. Shifoxonalar soni eng kam bo'lgan tumanlarga Ulug'nor (1 ta), Baliqchi, Bo'ston, Buloqboshi (2 ta) to'g'ri kelmoqda.

Andijon viloyati tuman va shaharlarida har 10 mingta aholiga nisbatan to'g'ri keluvchi ko'ykalar soni bo'yicha Andijon shahri, Baliqchi, Marxamat, Paxtaobod va Buloqboshi tumanlari viloyatda eng yuqori o'rinlarda bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Ulug'nor, Izboskan, Qo'rg'on-tepa va Xo'jaobod tumanlariga to'g'ri kelmoqda. Mazkur tumanlarda shifoxonalar va undagi o'rindiqalar sonini oshirib borish orqali tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini oshirish talab etiladi.

Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishda oliy ma'lumotli vrachlar, tor ixtisoslashuvga ega mutaxassislarining o'rni katta hisoblanadi. Viloyat markazi bo'lgan Andijon shahrida vrachlar hamda tor ixtisoslashuvga ega mutaxassislarining ko'pligi tabiiy xol. Shuningdek, har 10 ming kishiga to'g'ri keluvchi vrachlar soni bo'yicha sihatgohlar faoliyati yaxshi rivojlangan Honobod hamda Marxamat tumanlari ham oldingi o'rinlarni egallaydi. Eng past ko'rsatkich esa Bo'ston, Shahrixon, Izboskan tumanlariga to'g'ri kelib, mazkur tumanlarga tibbiyot oliygohlari uchun maqsadli kvotalar ajratish katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Andijon viloyati go'daklar o'limida nafas olish a'zolari kasalliklari bilan vafot etish, perinatal davrda yuzaga kelgan xolatlar, tug'ma anomaliyalar, yuqumli va parazit kasalliklari bilan kasallangan hamda boshqa sabablar asosiy o'rin tutadi. 2010 yilda go'daklar o'limida nafas olish a'zolari kasalliklari bilan vafot etish eng ko'p (46,1%) kuzatilgan bo'lsa, keyingi yillarda perinatal davrda yuzaga kelgan xolatlar asosiy (63,7%) omil bo'lib qolmoqda;

Andijon viloyatida go'daklar o'limida perinatal davrda yuzaga kelgan ba'zi xolatlar asosiy omil bo'lmoqda. Bunda dastavval, erta nikoh va erta tug'ruqni oldini olish, homilador onalarga tibbiy xizmat ko'rsatishni yanada rivojlantirish, bu borada oliy ma'lumotli tibbiyot hodimlari tayyorlashda hududiy tafovutlarni xisobga olgan xolda tibbiyot muassasalarida maqsadli kvotalarni shakllantirish, tibbiyot muassasalaridagi o'rindiqalar sonini mutanosib ravishda oshirib borish muhim vazifalardan hisoblanadi. Shuningdek, aholi, onalar va bolalar sog'lig'iga salbiy ta'sir etuvchi ekzogen omillar, xususan urboekologik vaziyatni yaxshilash, atmosfera ifloslanishini oldini olish borasida amalga oshirilayotgan "Yashilmakon" umummilliy loyihasini amalga oshirish bugungi kundagi kechiktirib bo'lmaz vazifalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.- T., O'zbekiston 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158 farmoni (<https://lex.uz/docs/-6600413>)
3. Prezident Sh.Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi (<https://president.uz/oz/lists/view/4051>)
4. Абдурахмонов К., Абдураманов Х. Демография. Т.: – 2011.
5. Бўриева М.Р. Ўзбекистонда оила демографияси. -Т.: Университет
6. Комилова Н.Қ. Тиббиёт географиясининг назарий ва амалий масалалари. -Тошкент, "SHARQ", 2016. 277 б.
7. Муҳаммедова Н.Ж. Ўзбекистонда аҳоли ўлимини географик тафовутлари. География фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. -Т.: 2019, Б-20
8. Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши. Т.: - 2010.
9. Темиров З.А. Ўзбекистоннинг Фарғона минтақасида демографик жараёнлар ривожланишининг ҳудудий хусусиятлари (Монография). –Андижон. "Ҳаёт нашри-2020", 2022. -158 б.
10. Temirov Z.A. Development of demographic processes in the Fergana region of Uzbekistan: yesterday, today, tomorrow // Journal of geology, geography and geoeckology № 4 (31) 2022. –P. 736-748. (doi:10.15421/112269)
11. www.stat.uz



Zulxumor TOJIYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti professori, g.f.d
E-mail: z_tadjieva@mail.ru,
Kamola OMANOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: kamolabotirovna97@gmail.com,

Alfraganus universiteti katta o'qituvchisi, PhD M.Sabirova taqrizi asosida.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ AHOLISIDA DEMOGRAFIK O'TISH DAVRI

Аннотация

Bu maqolada O'zbekiston Respublikasi qishloq aholisi demografik jarayonlaridagi davriy o'zgarishlari, ta'sir etuvchi omillari tadqiq etiladi. Mamlakat qishloq aholisi ko'payishida tug'ilishning roli, uning davriy va hududiy xususiyatlari ochib beriladi. Bunda qishloq joylarga xos bo'lgan aholining demografik xulqidagi o'zgarishlarning demografik jarayonlarda o'z aksini topishi tavsiflanadi. Shuningdek, qishloq joylar demografik vaziyati, demografik o'tish davri bosqichlari bilan bog'liq masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Demografik o'tish davri, qishloq aholisi, demografik vaziyat, aholi takror barpo bo'lishi, tug'ilish, o'lim.

ДЕМОГРАФИЧЕСКИЙ ПЕРЕХОДНЫЙ ПЕРИОД СЕЛЬСКОГО НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация

В данной статье исследуются периодические изменения демографических процессов сельского населения Республики Узбекистан и факторы, влияющие на них. Раскрывается роль рождаемости в росте сельского населения страны, ее временные и территориальные особенности. При этом характеризуется отражение в демографических процессах изменений в демографическом поведении населения, характерных для сельской местности. Также рассматриваются вопросы, связанные с демографической ситуацией в сельской местности и этапами демографического перехода.

Ключевые слова: период демографического перехода, сельское население, демографическая ситуация, воспроизводство населения, рождаемость, смертность.

DEMOGRAPHIC TRANSITION PERIOD IN THE RURAL POPULATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Annotation

This article examines the periodic changes and influencing factors in the demographic processes of the rural population of the Republic of Uzbekistan. The role of fertility in the growth of the country's rural population, its periodic and territorial characteristics are revealed. This describes how changes in the demographic behavior of the population, characteristic of rural areas, are reflected in demographic processes. Issues related to the demographic situation in rural areas and the stages of the demographic transition period will also be considered.

Key words: Demographic transition period, rural population, demographic situation, population reproduction, births, deaths.

Kirish. Aholining takror barpo bo'lishi, ya'ni tug'ilish va o'lim asosida avlodlar almashinuvi, hududlar demografik holatining asosini tashkil etadi. Aholi takror barpo bo'lishining asosiy jarayonlari bo'lgan tug'ilish va o'lim darajasidagi o'zgarishlar aholi takror barpo bo'lishida ham sezilmasdan qolmaydi. Natijada, aholi takror barpo bo'lishida bir turdan, ikkinchi turga o'tish boshlanadi. Buni fanda "*demografik o'tish*", deb nomlanadi. Manbalarda ko'rsatilishicha aholi takror barpo bo'lishining dastlabki davrlarida tug'ilish ham o'lim ham yuqori bo'lgan, natijada, tabiiy o'sish juda past ko'rsatkichni tashkil etgan. Ikkinchi davri XIX asrlarga borib taqaladi. Bunda tug'ilish yuqori, o'lim birmuncha me'yoriy holatda bo'lib, aholi tabiiy o'sishi oldingiga nisbatan baland bo'lgan.

Aholi takror barpo bo'lishining kengaygan yana bir uchinchi yangi tipida o'lim o'zining eng past ko'rsatkichiga ega bo'ladi, tug'ilish yuqoriligicha saqlanib turadi. Natijada, aholining tezlik bilan o'sishi kuzatiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Qishloq joylarni tadqiq etish dunyo olimlarida hamisha dolzarblik kasb etgan. Jumladan, "Chowdhury A.K.M.A., K.M.A.Aziz va W.H.Mosley "Demographic Study in Rural East Pakistan 1968-69" asarida demografik tadqiqotlar olib borishgan. Islom Rushidanning "Qishloq joylar muammolari" (Islam Rushidan, 1974) mavzularidagi tadqiqotlari muhim ekanligini keltirish o'rinli. Binobarin, aynan qishloq joylar muammolari keng yoritib berilgan ilmiy tadqiqotlar jumlasiga G.R.Asanovning Namangan viloyati aholisining joylashuvi (1975), S.A.Kovalev, E.Toshbekov, T.Valiyevlar tomonidan Buxoro va Samarqand viloyati qishloq aholi manzilgohlarini o'rganishga bag'ishlangan (1963) asarlarini kiritish mumkin"[4].

Qishloq aholisi demografik rivojlanishi va demografik o'tish bosqichlari jarayoni, uning ichki hududlaridagi yuz berayotgan o'ziga xosligi, shuningdek, demografik o'tish davrida muhim o'rin tutadigan tug'ilish va o'lim jarayonlari, ulardagi tafovut va o'xshashliklarni ochib berishda adabiyotlar sharhi, geografik taqqoslash, statistik ma'lumotlar tahlili, matematik hamda umumlashtirish kabi ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasi qishloq hududlari aholining takror barpo bo'lishi jarayonining o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Statistik ma'lumotlar ko'rsatishicha bugungi kunda (2025 yil), O'zbekiston aholisi 37,5 mingni tashkil etmoqda. Ana shu aholining yarmidan ko'pi, ya'ni 18028,7 minggi qishloqlarda istiqomat etadilar. Shunisi e'tiborliki, keyingi

yillarda respublikada qishloq aholisining salmog'i ortib bormoqda. Masalan, 1991 yilda o'lka aholisining 59,5 foizini qishloq, 40,5 foizini shahar aholisi tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda bu ko'rsatkich mos ravishda 48,9 va 51,0 ni tashkil etdi. O'zbekiston qishloq hududlari aholisining takror barpo bo'lishida tug'ilish jarayonidagi o'zgarishlar muhim o'rin tutadi. Respublikada urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi, aholini turmush tarzida sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar 20-asrning oxirgi choragida oilada farzandlar tug'ilishini sekin-asta qisqarib borishiga olib keldi.

Respublikada 1991 yildan boshlab yangi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi, ya'ni xalq xo'jaligining barcha sohalarida bozor talablarini joriy etilishi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning ma'lum darajada o'zgarishiga sabab bo'ldi. Bu davrning dastlabki bosqichlarida aholi turmush tarzida yashash sharoitida, aholining demografik maylida qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. Davlat tomonidan aholi ijtimoiy himoya etilsada, ishlab chiqarish munosabatlarining o'zgarishi, ayniqsa homiladorlikdan saqlovchi tibbiy vositalar va ular haqidagi tushunchalarni omma o'rtasida, shu jumladan qishloq hududlarida ham keng tarqalishi, aholining reproduktiv mayliga (oilada bolalar soniga bo'lgan munosabatga) keskin ta'sir etdi. Natijada respublikada, shuningdek, qishloq ayollarida ham tug'ilishni nazorat etish jarayoni keng tarqala boshladi.

1-jadval

O'zbekistonda tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti

Yillar	Har 1000 kishi hisobiga tug'ilganlar soni (o'rtacha)		
	Respublika bo'yicha	Shahar aholisida	Qishloq aholisida
1991	34,5	26,7	39,8
1995	29,8	23,8	33,5
2000	21,3	17,7	23,5
2010	22,0	18,8	24,5
2015	23,5	20,5	26,5
2020	24,6	22,7	26,6
2023	26,4	25,9	27,0

Manba: Демографический ежегодник Узбекистана 2003. –Ташкент, 2004, стр 109-110. <https://stat.uz>, rasmiy sayt.

Bu ayniqsa tug'ilish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlarda, xususan koeffitsiyentlarda o'z aksini topa boshladi. Jumladan, 1991-2024 yillarda tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti 34,5 % dan 27,0 %o gacha kamaydi. Demak, qayd etilgan davrda bu ko'rsatkich 7,5 promillega qisqargan (1-jadval) [3].

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqib, aytish mumkinki, 1991-2003 yillarda tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti shahar aholisida 9,3 promillega kamaygan bo'lsa, qishloq joylarda esa bu ko'rsatkich 16,7 promilleni tashkil etgan. Demak, tug'ilishning kamayishi jarayoni O'zbekiston shahar oilalariga nisbatan qishloq oilalarida ikki baravar yuqori bo'lib, ular orasidagi farq 1991-2003 yillarda 13,1 promilleden 7,9 promillega tushib qolgan. Buning sababi, 1991-1993 yillarga qadar qishloqda tug'ilishning yuqori darajada saqlanib kelganligi, yangi iqtisodiy sharoitga o'tish bilan bog'liq qator omillar ta'sirida qishloq oilalarida ko'p farzandlar tug'ilishining keskin kamayib ketishidir [5]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 2003-2023 yillarda respublikaning barcha aholisida tug'ilish darajasida biroz ko'tarilish ro'y berdi. Bunda albatta aholi o'rtasida farzandlar tug'ilishi birdan ko'paydi degani emas, aslida demografik to'lqining qaytishi demografik ko'rsatkichlarda o'z ifodasini topdi.

Tug'ilayotgan bolalar sonining qisqarib borishi oilada to'rtinchi, beshinchi, oltinchi va undan keyingi farzandlar tug'ilishining keskin kamayishi bilan bog'liqdir. Masalan, 1986 yili O'zbekiston bo'yicha oilada beshinchi va undan keyingi tug'ilgan bolalar soni 47052 ni tashkil etgan edi. 2003 yili esa bu ko'rsatkich deyarli ikki barobarga qisqardi va 22551 ni tashkil etdi [1]. Ammo oxirgi yillarda bu raqamlarda biroz ko'payish ro'y berganligi evaziga 2023 yilga kelib respublikada onaning tug'ish tartibi bo'yicha uchinchi va undan keyingi bolalari miqdori 388115 tani tashkil etdi. O'zbekistonning shahar va qishloq hududlarida tug'ilishning katta avloddan yosh avlodga o'tib borgan sari kamayib borayotganligi onalarda tug'ilayotgan bolalar tug'ish tartibidagi raqamlarda yaqqol o'z ifodasini topadi.

XX asrning oxiri-XXI asr boshlarida O'zbekiston shahar va qishloq hududlarida tug'ilish darajasidagi farq biroz kamaysa-da, lekin u saqlanib turibdi. Tug'ilish darajasidagi o'zgarishlarni eng aniq ifodalovchi tug'ilishning yig'indi koeffitsiyenti

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi viloyatlari aholisida tug'ilishning yig'indi koeffitsiyenti, promile


Viloyatlar	Jami aholi			Shahar aholisi			Qishloq aholisi		
	2010	2020	2023	2010	2020	2023	2010	2020	2023
O'zbekiston Respublikasi	2,34	2,9	3,4	2,08	2,71	3,4	2,62	3,1	3,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2,35	2,4	2,7	2,28	2,26	2,7	2,41	2,54	2,8
Andijon	2,47	3,12	3,6	2,26	3,04	3,5	2,71	3,22	3,6
Buxoro	2,13	2,59	3,0	1,83	2,62	3,6	2,32	2,57	2,7
Jizzax	2,46	3,08	3,4	1,62	2,71	3,6	3,31	3,42	3,2
Qashqadaryo	2,52	3,1	3,6	2,44	2,9	3,7	2,59	3,25	3,6
Navoiy	2,23	2,81	3,314	2,18	2,8	3,6	2,28	2,82	3,1
Namangan	2,28	3,08	3,649	1,92	3,05	3,6	2,93	3,13	3,7
Samarqand	2,45	3,01	3,525	1,79	2,51	3,1	2,86	3,3	3,7
Surxondaryo	2,54	3,15	3,845	2,2	3	3,5	2,77	3,23	4,1
Sirdaryo	2,25	2,71	3,119	2,08	2,78	3,4	2,38	2,67	2,9
Toshkent	2,23	2,74	3,283	2,02	2,2	3,1	2,45	3,26	3,4
Farg'ona	2,38	2,94	3,556	2,3	2,57	3,3	2,5	3,45	3,9
Xorazm	2,33	2,59	3,076	1,98	2,43	3,1	2,51	2,67	3,1
Toshkent shahri	1,99	2,74	3,493	1,99	2,74	3,5	0	0	0

Manba: Демографический ежегодник Узбекистана. 2003.-Ташкент, 2004. стр.127-131. <https://stat.uz>, rasmiy sayt.

bo'yicha 1990 yillarga qadar O'zbekiston dunyodagi tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan davlatlar guruhiga kirar edi [2]. Respublikada 1985-1989 yillarda bu koeffitsiyent 4,70 ni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich 1990-1991 yildan boshlab kamaya borib, 2003 yilda 2,36 ga teng bo'lgan [3], bo'lsa, 2023 yilda umumiy aholida 3,45 ta, qishloq aholisida esa 3,51 tani ifodalaydi.

Maxsus o'rganishlar natijasiga ko'ra, keyingi 40-45 yil davomida O'zbekistonda tug'ilishning bunday tez sur'at bilan qisqarganligi va oxiri besh yillikda biroz demografik to'liq bo'lib ko'tarilishi kuzatilgan emas. Tug'ilish qishloq oilalarida shahar oilalariga qaraganda hamisha ancha yuqori bo'lgan.

Respublikamiz bugungi kunda dunyodagi tug'ilish darajasi o'rtacha bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olgan. Bu jarayon O'zbekistonning barcha viloyatlarida ham kuzatiladi. Bozor munosabatlarining shakllanish davrida respublikaning tug'ilish darajasi hamisha yuqori bo'lib kelgan Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida ham tug'ilish o'rtacha mavqega tushib qolgan. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari qishloq hududlari aholisi tug'ilish darajasi keyingi 5-9 yil mobaynida deyarli o'rtacha darajaga tushib qoldi.



1- rasm. O'zbekistonda qishloq aholisi o'limi umumiy koeffitsiyentining o'zgarib borishi.

Manba. Бўриева М.Р. Сизнингча оилада нечта фарзанд бўлгани маъкул.-Т., 1995, Б.16; Демографический ежегодник Узбекистана. 2003.-Ташкент. — 2004, стр.109. <https://stat.uz>, rasmiy sayt.

O'zbekiston qishloq hududlarida tug'ilishning 1991-1995 yillaridan boshlab keskin qisqarishi qator omillar bilan tavsiflanadi [5]. Bularga bozor munosabatlariga o'tish bilan bog'liq iqtisodiy muammolar, aholini ish bilan ta'minlashdagi qiyinchiliklar, Homiladorlikni oldini oluvchi tibbiy vositalarning keng targ'ib etilishi, farzandlar tug'ilishi orasida davrning uzayishi kabilar kiradi. Ushbu omillar ta'sirida aholining reproduktiv mayli (farzand ko'rishga bo'lgan munosabati) keskin o'zgardi. Har bir oila o'z iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda oilada farzandlar tug'ilishini nazorat etdilar va bu holni O'zbekistonning barcha hududlarida kuzatish mumkin.

Aholini takror barpo bo'lishini tug'ilishdan tashqari aholi o'limi hodisasi ham belgilaydi. Chunki har bir davlat aholisining tabiiy ko'payishi, ijtimoiy demografik guruhlarining shakllanishi aholining o'limi bilan uzviy bog'liqdir. Statistik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, respublikada asrimiz boshidan hozirgi davrga qadar aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning barcha sohaları bir necha barobarga oshgan. Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanishi birinchi navbatda aholi o'limining keskin kamayishiga olib keldi. Yuqoridagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 1920-2023 yillarda O'zbekistonda aholi o'limi 5-6 barobarga kamaygan. Mamlakatlarda aholi o'limining xususiyatlaridan biri uning keyingi yillarda shahar va qishloq bo'yicha keskin farq qilishidir. Shunisi e'tiborliki, respublikaning barcha viloyatlari qishloq hududlarida aholi o'rtasida o'lim ko'rsatkichlarining so'nggi paytlarda pasayib borishi kuzatilmogda.

3-jadval

O'zbekiston qishloq hududlarida go'daklar (1 yoshgacha bo'lgan bolalar) o'limi, (har 1000 tug'ilganlarga nisbatan)

Yillar	Go'daklar o'limi	Yillar	Go'daklar o'limi
1940	82,0	1995	24,8
1950	37,9	2000	17,3
1960	29,9	2005	14,9
1970	28,4	2010	11,0
1980	48,2	2015	11,4
1990	36,0	2020	9,4
1991	36,8	2023	8,5

Jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

Statistik ma'lumotlar guvohlik berishicha, qishloq hududlarida aholining o'lim ko'rsatkichi muntazam kamayib bormogda. Xususan, 1990 yildan keyin bu jarayon yaqqol kuzatiladi. Jumladan, 1990 yili O'zbekiston qishloq hududlarida aholi o'limining umumiy koeffitsiyenti 5,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilga kelib, u 4,4 promillega teng bo'lgan, shahar aholisi uchun esa 5,0 % ni tashkil etgan [5].

Respublikaning barcha qishloq hududlarida ham aholi o'lim ko'rsatkichlari sezilarli kamaygan. Bu hol birinchi navbatda go'daklar o'limining keskin kamayishi bilan izohlanadi. Go'daklar o'limi respublikaning nafaqat shahar aholisida balki qishloq hududlarida ham muntazam kamayib kelgan. Chunonchi, O'zbekiston qishloq aholisida go'daklar o'limi har 1000 ta tug'ilgan bolalarga nisbatan 1991 yilda 36,8 tani, 2000 yilda 17,3 tani, 2023 yilga kelib esa bu ko'rsatkich 3,1 barobarga qisqarib, 5,6 ga [6] teng bo'lgan.

Qishloq hududlarida go'daklar o'limining kamayishi asosan demografik omilga—ya'ni to'rtinchi, beshinchi, oltinchi va undan keyingi farzandlar tug'ilish hollarining kamayib kelayotganligi hamda, tug'ilishlar orasidagi davrning uzayishi bilan bog'liqdir. Respublikada bolalar o'limi ayniqsa Qoraqalpog'iston, Jizzax, Surxondaryo, Qashqadaryo kabi aholi o'rtasida tug'ilish darajasi baland va ekologik vaziyati nisbatan yomonlashgan hududlarda yanada yuqoridir. O'zbekistonda aholi salomatligini yaxshilab borish doirasida ayniqsa, onalar va bolalar salomatligi borasida juda ko'p muammolarni hal etish talab etiladi. Aholi o'limi nafaqat shahar va qishloq hududlarida, balki aholining turli ijtimoiy-demografik guruhlarida ham o'ziga xos xususiyatlarga, omillarga ega.

Xulosa qilib aytganda O'zbekiston qishloq aholisi demografik rivojlanishi uchun demografik o'tish davri ro'y berdi. Tadqiqotlar tahlili mamlakat qishloq aholisi demografik o'tish bosqichining ikkinchi turidan uchinchi turiga yaqinlashayotganligini yaqin yillarda to'liq uchinchi bosqichga o'tishidan dalolat beradi. Ammo bu juda tez seziladigan va ta'sir etadigan hodisa emas, shunga qaramasdan kelgusi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot dasturlarini amalga oshirishda aholining ko'payish xususiyatlarini albatta hisobga olinishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Бўриева М.Р. Оилада нечта фарзанд бўлгани маъкул. Т., 1996, 39 б.

2. Демографический ежегодник. М.,1990, 310 б.
3. Демографический ежегодник Узбекистана. 2003.-Ташкент, 2004, стр 149.
4. Tojiyeva Z., Omanova K., Pardayev N., Jaloliddinov N., Bekzod Musayev and Sadriddin Khursanov. Regional Characteristics in the Dynamics and Location of the Rural Population of the Republic of Uzbekistan. E3S Web of Conferences 491, 04004 (2024).<https://doi.org/10.1051/e3sconf/202449104004>
5. Тожиева З.Н. Ўзбекистон Республикасида демографик жараёнлар ва уларнинг ҳудудий хусусиятлари. Докторлик диссертацияси (DSc).-Т., 2017 й. Б. 80-96.
6. https://stat.uz_rasmiy_sayt.



O'DK:550.83(075.8)

Axmatjon TO'XTASINOV,
O'zbekiston Milliy universiteti Geofizikaviy tadqiqot usullari kafedrasini mudiri
Davron XUSANBAEV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti v.b
Jalil AMIRQULOV,
O'zbekiston Milliy universiteti stajyor-o'qituvchisi

PhD A.Abdumuzimxodjayev taqrizi asosida

"GEOFIZIKAVIY TADQIQOT USULLARI" FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

Annotatsiya

Mazkur maqola geologiya, geofizika seysmologiya ta'lim yo'nalishlari bo'yicha malakali, raqobat bardosh kadrlar tayyorlashda, nazariy bilimlarni mustaxkamlashda amaliyotning yetakchi ro'l o'ynaynashiga bag'ishlangan. Unda "Geofizikaviy tadqiqot usullari" fani bo'yicha ta'lim jarayonini tashkil etishda nazariy va amaliy mashg'ulotlarining uyg'unligini ta'minlash dolzarbligi bayon etilgan. Shuningdek, o'quv-dala amaliyotlarini olib borish uslubi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, amaliyot davomida talabalarda kerakli ko'nikma va malakalar shakllantirishdagi ro'li haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Geologiya, geofizika, seysmologiya, nazariya va amaliyot, magnitorazvedka, elektrorazvedka, seysmorazvedka.

ПРИМЕНЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ГЕОФИЗИКИ.

Аннотация

Статья посвящена ведущей роли практических занятий в укреплении теоретических знаний при подготовке квалифицированных, конкурентоспособных кадров в области геологии, геофизики и сейсмологии. В ней подчеркивается актуальность слаженности и последовательности в обучении по предмету «геофизические методы исследования» теории и практики. Статья содержит информацию о методике проведения учебно-полевой практики, использовании современных технологий в образовании, формированию у студентов соответствующих навыков и квалификаций при проведении геофизических работ.

Ключевые слова: Геология, геофизика, сейсмология, теория и практика, магниторазведка, электроразведка, сейсморазведка.

APPLICATION OF MODERN TECHNOLOGIES IN TEACHING THE SCIENCE OF "GEOPHYSICAL RESEARCH METHODS"


Annotation

In this article, about the leading role of practice in the consolidation of theoretical knowledge in the training of qualified, competitive personnel in the fields of geology, geophysics, seismology, "Theoretical and practical training in the organization of the educational process in the field of geophysical research methods" The urgency of ensuring the harmony of the classes is stated. It also contains information about the methodology of carrying out practices, the use of modern technologies in education, the role of the combination of theory and practice in the formation of construction skills and qualifications, and geophysical methods in the field of geology.

Key words: Geology, geophysics, seismology, competitive personnel, theory and practice, gravity exploration, magnetic exploration, electrical exploration, seismic exploration.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga etiborni yanada kuchaytirish yuzasidan O'zbekiston Milliy universiteti Geologiya va muxandislik geologiyasi fakulteti Geofizikaviy tadqiqot usullari kaferasida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish bo'yicha Oqsqoq-ota dala amaliyotida zamonaviy pedagogik axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha metodlar qo'llanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Geologiya va muxandislik geologiyasi fakulteti 2 kurs talabalarining dala o'quv amaliyoti Chotqol tizmasining janubiy-g'arbiy etaklarida, Toshkent shahridan 80 km shimoliy-sharqda joylashgan O'zbekiston Milliy universitetining Oqsqoq-ota dala o'quv amaliyoti bazasida o'tkaziladi (1-rasm).



Adabiyotlar tahlili Bu baza o'zining chiroyli tabiat manzaralari bilan hamda geologik strukturalarning barcha turlari ochiq xolda mavjudligi rivojlanganligi tufayli Respublikamizda tengi yo'q hudud hisoblanadi. Unda turli cho'kindi, magmatik va kontakt metamorfizmi jinslari keng tarqalgan, fundamentni tashkil etuvchi paleozoy yotqiziqlari va paleozoy strukturalari hamda ularni qoplab yotuvchi mezo-kaynozoy hosilalari rivojlangan. Turli geofizikaviy tadqiqot usullari bo'yicha o'quv amaliyotining asosiy maqsadi talabalarni dala ishlarini o'tkazish yo'llari va asboblari, "Geofizikaviy tadqiqot usullari" nazariy kursini mustahkamlash hamda geofizik asboblarda o'lchashni o'rganish, dala ishlari uslubini o'zlashtirish, ularni geofizikaviy qidiruv va tekshiruv ishlarida qo'llash hamda qayta ishlashning asosiy uslublari, olingan ma'lumotlarni talqin qilish va tahlil qilish bilan tanishtirish hisoblanadi.

Amaliyotda talabalar frontal, guruhli va individual vazifalarni bajarishlari lozim. Shu boisdan talabalarga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda komyuter dasturlardan foydalanib geofizik masalalarni yechish yo'llarini o'rgatish joizdir. Talabalar o'z navbatida geofizikaning bir nechta usullarini dala ishlari o'tkazish bilan birga ularni komyuter dasturlarida qayta ishlashni o'rganishadi.

Xar bir brigada bosqichma bosqich geofizikaning quyidagi usullarini olib borishadi magnitorazvedka, gravirazvedka, elektrorazvedka, seysmorazvedka.

Magnitorazvedka usulini qo'llash orqali, Yer magnit maydonining o'zgarishini o'rganish. Magnit maydonning o'zgarishi tog' jinslari va ma'danlarning har xil magnitlanganligi bilan bog'liq. Magnitorazvedka temir ma'danlarini izlash va qidirishda eng samarali usuldir. U geologik xaritalashda, tuzilmali tadqiqotlarda va boshqa foydali qazilmalarni izlashda keng qo'llaniladi.


Magnitorazvedka ishlarida xam avval nazariy bilimlarni takrorlash va magnitorazvedka asboblarning tanishtirish ishlash prinsiplari orqali boshlanadi. Undan so'ng ochiq maydonda xar xil antropogen magnit anomalialar ta'siri bo'lmagan maydon tanlanib ish boshlanadi.

Magnitorazvedka ishlarini maydon bo'yicha zamonaviy raqamli protonli Geometrics G-856AX rusumidagi magnetometr yordamida olib boriladi.

Dala ishlari erta tongdan boshlanadi. Avvalo dalaga chiqishda oldin asboblarning texnik soz holatda ekanligi batareyalar quvvatlari tekshiriladi. Barchasi ko'rib chiqilgandan so'ng bazaga kunlik variatsiyani kuzatish uchun tayanch magnetometr o'rnatiladi.


Magnitorazvedkada kunlik sutkalik varyatsiyalar bo'lganligi sababli Bazaga o'rnatilgan magnetometrni xar bir minutda yoki ixtiyoriy qanchadir vaqt davomida avtomatik variatsion o'zgarish qiymatlarini olishga sozlab qo'yiladi. Bu bazaga o'rnatilgan magnetometr sutkalik, ya'ni quyosh ta'sirida vujudga keladigan magnit maydonning o'zgarishini aniqlab turadi.

So'ngra o'rganilayotgan maydon oqsok ota daryosining chap qirg'og'i 20*70m lager xududida magnitorazvedka ishlari kamida ikki kishi tomonidan olib boriladi. Birinchi talaba GPS yordamida nuqtani aniqlab beradi profil bo'yicha xar 4 m masofada, ikkinchi talaba yonida xar xil temir magnitlanuvchi metallardan xoli xolda magnetometr bilan ma'lum nuqtada magnit maydon tashkil etuvchisini o'lchaydi. Maydonni setka, yani to'r shaklida nuqtalar joylashtirilib xar bir nuqta uchun o'lchovlar olinadi (2-rasm).



2-rasm maydon bo'yicha kuzatuvlarni olib borish sxemasi


Ishlar olib borilgan maydonning xar bir nuqtasida qiymatlar o'lchanib so'ng bazaga qaytiladi. Bazaga kelingach bazaviy va dalaga olib chiqilgan magnetometrlardagi ma'lumotlar komyuterga ko'chiriladi. Ko'chirib olingan ma'lumotlar bazadagi o'rnatilgan magnetometr olgan qiymatlar asosida tuzatmalar kiritiladi $\Delta T = T_i - T_0$ formula yordamida.



3-rasm O'lchangan qiymatlar bo'yicha magnit maydonning anomaliyasi.

Oqsok ota daryosining chap qirg'og'ida 20*70 m maydonda 5 ta profil bo'yicha xar bir profilda 25 tadan piket joylashgan va xar bir nuqtadagi ΔT qiymatining arcGIS dasturiga joylashtirilib maydonning ΔT izochiziqlari xosil qilinadi izochiziqlar 5 nTl qadam bilan xosil qilingan (2-rasm).

Maydon bo'ylab o'lchangan T_i magnit maydon tashkil etuvchilaridan bazada qoldirilgan sutkalik variatsiyani o'zgarishini xisoblab boruvchi magnetometrda T_0 magnit maydon tashkil etuvchisi ayirib tashlanadi va shunda maydondagi magnit maydonning o'zgarishlari bo'yicha ΔT uchun magnit maydon xaritasi qurildi (4-rasm).




4-rasm Maydonning magnit maydon xaritasida

Elektororazvedka VEZ usuli Geofizikaning elektororazvedka usuli u yer bag'rida o'zgaras va o'zgaruvchan elektr tok manbalar ta'sirida hosil bo'lgan tabiiy va sun'iy elektromagnit maydonlarini o'rganishga asoslangan. Bu usul yer qobig'ini tuzilishini o'rganishda, foydali qazilmalarni izlash va razvedka qilishda, muhandislik geologiya va gidrogeologiyaning har xil masalalarini yechishda va geoeologiya masalalarini o'rganishda qo'llaniladi.


Tahlil va natijalar. *Izoom xaritasini qurish:* Profil bo'yicha olib borilgan VEZ nuqtalarini mujassamlashtirish natijasida izoom xaritalari quriladi. Bunda nuqtalar orasidagi masofa gorizonttal masshtab bo'yicha qo'yiladi vertikal masshtab logorifmik masshtabda joylashtirilib chuqurlik bo'yicha solishtirma qarshilikning qiymatlari joylashtiriladi (5-rasm).

Geoelektrik kesimni qurishda profil bo'yicha xar bir nuqtaning VEZ egri chiziqlarini talqin qilish natijasida birinchi va ikkinchi qatlamlarning qalinliklari aniqlanadi (h_1, h_2) birinchi, ikkinchi va uchunchi qatlamlarning solishtirma qarshiliklari (r_1, r_2, r_3) aniqlanadi. So'ngra kesm uchun masshtab tanlangan xolda kesmga chegara va solishtirma qarshiliklar tushirib chiqiladi.



5-rasm profil bo'yicha izoom kesimi.

Odatda talabalar millimetrovka qozoziga tushirib chiqilgan qatlam qalinliklari tutashtirilib chiqiladi va geoelektrik kesim qurishgan, yangi zamonaviy kamyuter dasturlaridan foydalangan xolda bu ishlarni kamyuter dasturida bajarishmoqda bunda ular MAE kompaniyasi dasturi orqali bajarishda va natijalarning aniqlik darajasi yuqori va sarflanadigan vaqlar bir necha barobarga qisqaradi (6-rasm).




6-rasm profil bo'yicha geoelektrik kesim.

Qurilgan geoelektrik kesm profil 80 m uzunlikda kuzatuv nuqtalari orasidagi masofa 5 m dan qilib tanlangan, birinchi qatlam qalinligi 2,5-4,5 m gacha ikkinchi qatlam qalinligi 12-13 m o'zgarishni tashkil qilgan. Solishtirma qarshiliklar birinchi qatlamda 35-85 omm ni, ikkinchi qatlam 165-235 omm ni, uchunchi qatlam 45 omm dan 75 omm gacha o'zgarishga ega tog' jinslari tashkil qilmoqda.

Seysmorazvedka – Seysmik qidiruv (seysmorazvedka) – turli sun'iy yo'llar (zarba, qo'zg'atish) bilan hosil qilingan elastik to'lqinlarning tarqalishiga asoslanadi va Yerning tuzilishini, geologik muhitni o'rganishda, neft va gaz konlarini hamda boshqa qazilma boyliklarini izlashda, muhandislik-geologiya masalalarini echishda qo'llaniladi.


Dala ishlari seysmorazvedkaning MPV usuli yordamida bir komponentli seysmopriyomnik manba (istochnik) kvalda 8 kg xosil qilingan manbalar profil yo'nalishiga paralel xolda profil uzinlagi 136 m. Seysmopriyomniklar qadami 2 m dan qo'zg'atish manbalari 12 m qilib tanlangan. Seysmorazvedka ishlari (Fransiya) ELLISS-3 modeli seysmostansiyasida olib borilgan. ELLISS-3 – kotta bo'lmagan chuqurliklarni o'rganishda yengil va qulay ko'chma 96 kanalli stansiya.

Metodika Dalada olingan singan to'lqinlar ma'lumotlarni "Elliss" dasturida qayta ishlanadi. Ishlov berish yozib olingan seysmogrammalarni dasturga chaqiriladi. Profildagi qabul qilish tartibining har bir piketlardan olingan seysmogrammalar ketma-ket joylashtiriladi, shunda butun profildagi to'lqinlarni kuzatishga imkon beradigan seysmogramma hosil bo'ladi. Xuddi shu chegara yoki qalinlik bilan bog'liq bo'lgan singan, aks ettirilgan yoki singan to'lqinlarni kuzatishga korrelyatsiya deyiladi. Korrelyatsiya har bir seysmogramning tekisligida (t, x), qabul qilish nuqtalari orasidagi masofa kichik bo'lsa, kelish vaqtlari, mos keladigan to'lqinlarning shakli va intensivligi ozgina o'zgarishiga asoslanadi. Bu nafaqat bir xil tabiatdagi to'lqinlarni ajratibgina qolmay, balki turli kanallarda yozilgan to'lqinlar orasidagi vaqt siljishlarini, chiqayotgan to'lqinlarning pulslarining bir xil xarakterli nuqtalari orasidagi vaqt o'zgarishini, nol o'tishlarni va boshqalarni o'lchash orqali aniqlashga imkon beradi. Ishchi oynada xar bir kanalga kirish signallar vaqtlari belgilab olinadi. Oynaning chap tomon jadvalida xar bir kanalning vaqtlari ($t=1,02$ ms) da paydo bo'ladi (7-rasm).




7-Rasm seysmogrammalardan kirish vaqtlarini aniqlash

Shundan so'ng seysmogrammalardan olingan vaqtlar asosida godograflar quriladi qurilgan godograflardan V_k tezliklar aniqlanadi.



8-rasm singan to'liqin godograflarini qurilishi

Profilning uzunligi 48 m bo'lganda -46, -23, 0, 23, 48 m larda seysmik to'liqinlar tarqatiladi va bularning godograflari quriladi.



9-Rasm Profil bo'yicha godograflar Oqsoq ota Ayirma godograf bo'yicha chegaraviy tezlikni aniqlash.


Ikkita uchrashuvchi godografga ega bo'lib, ayirma godografni tuzish mumkin:

$\theta(x) = t_1(x) - t_2(x) + T$, bundan $t_1(x)$ va $t_2(x)$ - bosh singan to'liqinining X nuqtaga birinchi va ikkinchi godograf bo'yicha kelgan vaqti, T – o'zaro nuqtalardagi vaqt, ya'ni O_1 dan O_2 gacha, O_2 dan O_1 gacha kelgan vaqt bo'ladi.

Shunday qilib, ayirma godograf qiyaligi bo'yicha $V_{ch} = 2 \cos \varphi \cdot \Delta x / \Delta \theta$ chegaraviy tezlik qiymati aniqlanadi. Burchakning qiyaligi 10^{-15} dan kichik bo'lganda $V_{ch} \approx 2 \Delta x / \Delta \theta$ ga teng bo'ladi.

Nolli vaqt (t_0) usuli bilan sindiruvchi chegarani qurish. Bunda H, φ va sindiruvchi chegarasini holati aniqlanadi.

Ikkita uchrashuvchi godografning ixtiyoriy S nuqtasidan ayrim $t_o = t_1 + t_2 - T$ funksiyani aniqlash mumkin. Bunda qo'zg'atish punktidagi vaqt $t_o = 2H \cos i / V_1$ ga teng (10-rasm).




10-rasm Chegarani yotish chuqurligini aniqlash

Uchrashuvchi godograflar profilining ixtiyoriy nuqtasida manbadan vaqt $t_o = t_1 + t_2 - T$ ni aniqlab so'ngra chegaraning yotish chuqurligini hisoblash mumkin.

$$H = \frac{t_o V_1}{2 \cos i} = \frac{t_o}{2 \sqrt{\frac{1}{V_1^2} - \frac{1}{V_2^2}}}$$

Seysmorazvedka MPV usuli seysmogrammalarni talqin qilish natijasida qurilgan godograflardan $V_{o'r}$ o'rtacha tezliklar t_o vaqtlar aniqlandi to'g'ri to'liqin bo'yicha birinchi qatlam tezligi xisoblandi unga ko'ra birinchi qatlam 2 m dan 4,5 m gacha bo'lgan chuqurlikda o'zgarishi, ikkinchi qatlam bo'yicha qatlam tezligi uchrashuvchi godograflar orqali topildi va T_o usul orqali qatlam qalinligi 18 m dan 20 m gacha ekanligi aniqlandi.



11-Rasm Oqsoq ota seysmorazvedka MPV usulining seysmologik kesm

Xulosa va takliflar. Amaliyot yakunida har bir talaba o'quv amaliyotidagi har bir kun uchun bajarilgan ish yuzasidan ishlar tartibi bo'yicha xulosa yozishlari lozim. Amaliyot davomida har bir geofizik usul uchun asbob-uskunalar, dala ishlari uslubiyoti, malumotlarni ko'chirib olish, malumotlarni qayta ishlash va olinga natijalar bo'yicha xulosalar yozish. Amaliyot so'ngida umumiy amaliyotda olingan bilimlar yuzasidan xulosa qilinadi. Shu tariqa talabalar nazariy bilimlarini amaliy mashg'ulotlar orqali mustaxkamlab olishadi.

ADABIYOTLAR

1. Atabaev D.X. va b. Geofizikaviy tadqiqot usullari. O'quv qo'llanma. – T.: “Universitet”, 2022. 256 bet.
2. Voskresenskiy Y.N. Polevaya geofizika. M.: Nedra, 2010-478 s.
3. Boganik G.N., Gurvich I.I. Seysmicheskaya razvedka. Ucheb. dlya vuzov -Tver: Izdatelstvo AIS, 2006-744 s.
4. Agzamov A.A., Bobojonov T.L. "Seysmik qidiruv" fanidan o'quv amaliyotini o'tkazish uchun uslubiy qo'llanma. T., Universitet, 1995.
5. Agzamov A.A., Atabaev D.X. Seysmorazvedka fanidan kurs ishini tayyorlash uchun uslubiy ko'rsatma. 5A440701-Geofizika mutahassisligi. Toshkent. UzMU 2005g.
6. Gravirazvedka. Spravochnik geofizika. Pod red. E.A. Mudretsovoy i K.E. Veselova. M., Nedra, 1990.
7. A.A.Abidov, D.X.Atabaev, D.D.Xusanbaev Er fizikasi Fan va texnologiyalar Toshkent 2014 y.
8. A.Sh.Zakirov, Sh.B. Xusanov Seysmorazvedka bo'yicha individual vazifalarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar. - Toshkent: Gubkin nomidagi Rossiya Davlat Neft va Gaz Universiteti filialining nashriyoti., 2016.

Elbek O'TAMURODOV,
Toshkent davlat texnika universiteti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: elbek.utamurodov@mail.ru.

O'zMU dotsenti, PhD A.Shukurov taqrizi asosida

THE MATERIAL COMPOSITION AND ORE CONTENT OF THE MONCHYKITE DIKE, LOCATED IN THE ZIRABULAK GRANITOID INTRUSION (ZIRABULAK MOUNTAINS)

Annotation

The article describes the monchikite dike located in the northern contact of the Zirabulak intrusion. Monchikite, common in the Zirabulak Mountains, belongs to the family of feldspathoid lamprophyres. The fact is that lamprophyres participate in the mineralization of gold, rare metals, and rare earth elements. From this perspective, a detailed study of them is relevant. The dike of Monchikite was studied using modern equipment and established that it is composed of rock-forming minerals such as pseudoleucite, kersutite, monocline pyroxene (titanovgit), olivine, and biotite. It has been concluded that monchikite originates from the deep part of the Earth's crust, i.e., from the upper mantle.

Keywords: dike, monchikite, lamprophyre, accessory mineral, pseudoleucite, kersutite, titanautite, olivine, biotite, upper mantle, Zirabulak mountains.

ВЕЩЕСТВЕННЫЙ СОСТАВ И РУДОНОСНОСТЬ ДАЙКИ МОНЧИКИТА ЗИРАБУЛАКСКОГО ГРАНИТОИДНОГО ИНТРУЗИВА (ЗИРАБУЛАКСКИЕ ГОРЫ)

Аннотация

В статье описывается дайка мончикита, расположенная в северном контакте Зирабулакского интрузива. Мончикит, распространенный в горах Зирабулака, относится к семейству фельшпатоидных лампрофиров. Дело в том, что в оруженении золота, редких металлов и редкоземельных элементов участвуют лампрофиры. С этой точки зрения актуально их детальное изучение. При изучении дайки Мончикита с помощью современного оборудования установлено, что она состоит из псевдолейцита, керсутита, моноклин пироксена (титанавгита), оливины, биотита и других породообразующих минералов. Сделан вывод о том, что по составу мончикит происходит из глубокой части земной коры, то есть из верхней мантии.

Ключевые слова: дайка, мончикит, лампрофир, акцессорный минерал, псевдолейцит, керсутит, титанавгит, оливин, биотит, верхняя мантия, Зирабулакские горы.

ZIRABULOQ GRANITOIDLI INTRUZIVI MONCHIKIT DAYKASINING MODDIY TARKIBI VA MA'DANDORLIGI (ZIRABULOQ TOG'LARI)

Annotatsiya

Maqolada Zirabuloq intruzivining shimoliy kontaktida joylashgan monchikit daykasi tavsiflanadi. Zirabuloq tog'larida tarqalgan monchikit feldshpatoidli lamprofirlar oilasiga mansub. Gap shundaki, oltin, nodir metallar va nodir yer elementlarining ma'danlashuvida lamprofirlar ishtirok etadi. Shu nuqtai nazardan, ularni batafsil o'rganish dolzarbdir. Monchikit daykasi zamonaviy asbob-uskunalar yordamida o'rganilib, psevdoleyisit, kersutit, monoklin piroksen(titanavgit), olivin, biotit kabi jins hosil qiluvchi minerallardan tashkil topganligi aniqlandi. Monchikit tarkibi bo'yicha yer qobig'ining chuqur qismidan yani yuqori mantiyadan kelib chiqqan degan xulosaga kelindi.

Kalit so'zlar: Dayka, monchikit, lamprofir, aksessor mineral, psevdoleyisit, kersutit, titanavgit, olivin, biotit, yuqori mantiya, Zirabuloq tog'lar.

Kirish. Lamprofir daykalari, jumladan monchikitlar [1-5] va boshqalarning ilmiy ishlarida keltirilgan. Ularning ma'lumotlari bo'yicha daykalarining tarkibi, tarqalishi, ularning tasnifi va boshqa xususiyatlari yoritilgan. Ammo, ularning ma'dandorligi, yoshi formatsion tahlili tabiati kabi muammolar haligacha oxirigacha yechilmagan. Shu nuqtai nazardan, ularni zamonaviy usullar yordamida o'rganish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.



1-rasm. Zirabuloq-Ziyovuddin tog'larining geologik xaritasi (Xan va b., 2006 y. M1:100 000). 1 – kassantov svitasi, 2 – tepalin svitasi, 3 – tim svitasi, 4 – sappen svitasi, 5 – jalqiroymaxal – svitasi, 6 – pyazli svitasi, 7 – kattajar svitasi, 8 – tirikbobo 9

– oltioyul, 11 – tim majmuasi, 1-faza yirik xoldor adamellit-gneys va granit-gneyslari, 2-faza mayda donali biotitli granit-gneyslar, 12 – qoratepa-zirabuloq majmuasi: 2-faza o'rta donali amfibol-biotitli adamellitlar va granitlar, 13 – katarmay svitasi, 14-16 – qoraqo'ton daykali majmuasi: dioritli porfirritlar, granodiorit, - granit-porfirilar, kvarsli dioritlar, lamprofirilar, tonalit va tonalit-porfirilar, 17 – janubiy tiyon-shon majmuasi: kamptonitlar, monchikutlar, olivinli kersantitlar, asosli lamprofirilar, 18 – yer yoriqlari, 19 – intruziv plutonlar: 1-Qutchi, 2-Zirabuloq,


Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Monchikit daykasi birinchi marta 1957-yilda E.F.Smirnova tomonidan geologik xaritalash ishlari jarayonida topilgan va 1958-yilda A.F.Sviridenko tomonidan faqat mikroskopik tavsif berilgan. Biz bu tavsifni yangi analitik natijalar bilan to'ldirdik va yangi natijalar olishga erishdik [1-3].

Tadqiqot metodologiyasi. Monchikit daykasi Organcha qishlog'idan 3,5 km shimoliy-g'arbda Zirabuloq intruzivining shimoliy kontakti suvayirg'ichida joylashgan bo'lib, 80 m intruzivning biotitli granitlarini va 130 m qamrovchi slanetslarni yorib chiqqan. Uning qalinligi taxminan 10 sm dan 50 sm gacha o'zgarib turadi (2-rasm, a-v). Uning yotishi tik, intruziv ichida 3 ta tomirga (apofiza) ajraladi va janubiy-sharqqa cho'zilgan.

Makroskopik jihatdan jins to'q kulrang, deyarli qora, och yashil rangga ega, o'ta zich, aniq porfir tuzilishili (2-rasm, g-e). Porfir ajrilmalari noaniq yumaloq shakllarga ega diametri 1,0 mm dan oshmaydigan olivin va psevdoleysitdan iborat (2-rasm, k-n). Dayka tanasining chekka qismlari va ingichka tomir apofizalarida kriptodonali tuzilish kuzatiladi, porfir ajrilmalari deyarli yo'q.


Monchikitning mineralogik tarkibida psevdoleysitdan (18-20%) tashqari kersutit, monoklin piroksen – titanavgit, olivin, biotit (5%) uchraydi. Undan tashqari, anal'sim, seritsit, karbonat, talk, albit, apatit va ma'dan minerallarining mikrolitlari ajratiladi.

Psevdoleysit yumaloq yoki sakkiz qirrali shakldagi mayda zonal porfir ajrilmalarini (0,6 mm gacha) hosil qiladi, ularning o'rni butunlay seritsit va karbonat, albit, mikroklin va anal'sim egallaydi (2-rasm, k, m, n).



2-rasm. Zirabuloq intruzivining shimoliy kontaktida joylashgan monchikit daykasi (a-v), tog' jinsi namunalarining tashqi ko'rinishi (g-e) hamda mikroskop tagida tuzilish xususiyatlari (k-n). Tuzilishi porfirli, ajrilmalarda olivin, kersutit, psevdoleysit (?) va aksessor mineral-pirit, ilmenitlar uchraydi. Eng muhimi, monchikit magmasining keyingi fazasi yorib chiqadi, kuyish zonasidan farqli o'laroq, kontakti aniq (l).

Tahlil natijalari (Analysis and results). Ba'zi fenokristallar butunlay seritsit yoki karbonat bilan aralashgan. Psevdoleysitning yirik donalarida magnetit, piroksen va kamroq biotitning ignasimon kristallari kuzatiladi. Ular radial agregatlar shaklida yoki kamdan-kam hollarda zonal tarzda joylashgan bo'lib, donaning chetki qismlarida zanjir hosil qiladi, bu psevdoleysitga xosdir. Psevdoleysitning kimyoviy tarkibi (1-jadval, 25, 26) bo'yicha aniq psevdoleysit deyish qiyin, lekin kremniy, alyuminiy, kaliy oksidlari bo'yicha yaqinligi bor, ammo uning o'zgarish natijasida shunday miqdor aniqlangan.



3-rasm. Monchikit daykasi tog' jinsidagi jins hosil qiluvchi va aksessor minerallarning uchrashish shakllari. Rasmdagi shartli qisqartmalar: 1-1 – kersutit, 1-2 – titanavgit, Ti, Fe – ilmenit, pyr – piroxin, gn – galenit, sph – sfen, spl – sfalerit, ab – albit, bt – biotit, 3-1 – titanavgit, 3-2 – titanavgit, 3-3 – kersutit, 3-4 – titanavgit, 3-5 – titanavgit, 3-6 – titanavgit, 3-7 – olivin, 3-8 – olivin, 3-9 – titanavgit, 3-10 – titanomagnetit, 3-11 – ilmenit, 3-12, 3-13 – titanomagnetit, 4-1 – 4-6 – kersutit.

Plagioklaz asosiy massada noto'g'ri yumaloq shaklda uchraydi (3-rasm). Kimyoviy tarkibi bo'yicha albitga (1-jadval, 5-7) to'g'ri keladi.

Kaliy-natriyli dala shpati (sanidin?) kimyoviy tarkibida magniy, temir oksidlarining oz miqdorda ishtiroki (1-jadval, 27) poykilitli qo'shimchalar (gematit) ishtirokidan dalolat beradi.

Olivin porfir ajralmalarining katta qismini egallaydi va u cho'zilgan olti burchakli yoki zaif erigan uzunligi 0,4 mm ga yetadigan yumaloq shaklidagi donalar holda uchraydi (2-rasm, 3-rasm, 3-7). Ko'pincha u butunlay mayda qipiqsimon talk agregati (1-jadval, 38, 39) bilan aralashadi. Kimyoviy tarkibiga ko'ra (1-jadval, 15, 16) oz miqdorda alyuminiy va kalsiy oksidlari bor.

Titanavgit ham porfir ajralmalar shaklida 0,4 mm o'lchamdagi prizmatik va kalta prizmatik shakllarni hosil qiladi. U asosiy massada kichik mikrolitlar holda uchraydi (2-rasm). Odatda toza, deyarli rangsiz, kuchsiz och jigarrangga ega. Kimyoviy tarkibida titan oksidining miqdori 2,88 dan to 5,56% gacha yetadi (1-jadval, 8-14, 24). Undan tashqari, oz miqdorda kaliy, vanadiy, xrom aralashgan, kalsiynig miqdori yuqori.

Kersutit (18%) asosiy massada juda ko'p va xarakterli kristallar, 0,2 mm dan katta bo'lmagan varaqalar va tartibsiz donalar, mikrolitlar shaklida uchraydi (3-rasm). Kersutit donalarining aksariyati xiralashgan. Kersutitning pleoxroizmi och sariqdan to'q qizil-jigarranggacha o'zgaradi. Kimyoviy tarkibida titan oksidining miqdori 4,33% dan 7,71% gacha yetadi (1-jadval, 17-23).

1-jadval

Monchikitning jins hosil qiluvchi va aksessor minerallarining kimyoviy tarkibi

(Zirabuloq intruzivining shimoliy kontakti)

Oksidlar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
SiO ₂	0,49	38,61	33,57	35,39	68,01	68,81	69,55	45,89	43,29	46,70	47,95	47,19	43,30	44,28	39,02	39,17
TiO ₂	7,08	1,41	6,89	4,50				3,59	4,77	2,88	2,28	2,54	4,79	3,83		
Al ₂ O ₃	9,35	13,22	14,72	10,75	19,70	19,07	19,36	7,46	9,09	5,68	5,19	5,29	9,10	7,53	1,66	1,71
Fe ₂ O ₃	60,46				1,34	0,15	0,40									
FeO		17,82	19,97	29,28				7,40	8,94	9,23	7,35	8,51	8,76	10,40	16,15	16,36
MnO	0,80	0,16	0,08	0,31				0,17	0,08	0,16	0,16	0,15	0,17	0,06	0,46	0,36
MgO		13,94	8,68	4,83				11,89	10,75	12,26	13,23	12,04	10,41	10,87	41,97	42,07
CaO	0,36	0,13	0,35	0,67	0,21	0,04	0,13	23,14	22,38	22,18	22,69	22,43	22,85	22,05	0,31	0,42
Na ₂ O					9,51	10,65	10,92							0,64		
K ₂ O		9,52	8,31	8,99	0,39	0,12	0,04	0,08	0,14	0,23	0,13	0,14	0,09	0,18		
V ₂ O ₅	0,39	0,06						0,06	0,02	0,21	0,08	0,08	0,15	0,18		
Cr ₂ O ₃	20,40							0,47	0,09	0,05	0,41	0,17				
BaO			2,34	0,97							0,43	0,26				
Σ	100,22	94,85	94,91	95,68	99,17	98,84	100,40	100,14	99,55	99,58	99,90	98,79	99,61	100,03	99,57	100,09

1-jadvalning davomi

Oksidlar	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	31	32
SiO ₂	39,18	36,63	37,08	36,53	39,49	37,82	38,06	41,43	47,37	48,21	61,13		0,79	0,38	1,41	0,81
TiO ₂	5,43	7,23	7,09	7,71	4,33	5,00	6,23	5,56				17,94	19,49	17,22	47,17	45,04
Al ₂ O ₃	11,79	13,29	13,27	13,22	11,35	12,76	12,78	9,40	32,65	32,47	20,95	3,29	3,24	3,56	0,47	0,34
Fe ₂ O ₃									4,41	3,76	1,35					
FeO	15,14	15,94	15,34	15,62	19,39		18,53	14,17	10,35			70,33	64,10	69,34	44,81	46,79
MnO	0,24	0,25	0,20	0,24	0,32	0,31	0,16	0,28				0,30	0,45	0,57	1,88	0,60
MgO	8,74	9,00	9,73	9,45	7,71	8,19	9,46	8,98	1,57	1,68	1,13		0,27		0,45	0,12
CaO	12,33	11,40	11,38	11,43	11,11	11,05	11,42	21,37				0,23	0,19	0,20	0,90	0,62
Na ₂ O		2,15	2,22	2,33	2,27	2,50	2,10	0,83	1,93	2,16	2,72					
K ₂ O	1,54	1,78	1,52	1,83	1,54	1,70	1,57	0,05	9,78	9,69	12,73	0,04	0,02		0,28	0,30
V ₂ O ₅		0,20	0,14	0,13		0,05	0,10	0,19				0,45	0,55		0,46	0,47
BaO		0,72	0,43			0,44					0,06			ZnO=		
NiO												0,13		1,81		
CoO												0,38				
Σ	94,34	98,59	98,40	98,50	97,49	98,36	96,04	98,46	97,83	97,97	100,07	93,03	89,01	93,54	97,84	95,09

1- jadvalning davomi

Oksidlar	33	34	35	36	37	38	39	40	41	42	43
SiO ₂	0,28	0,86	2,96			56,86	50,38	0,57	6,83		
TiO ₂	93,47	91,86	0,22								
Al ₂ O ₃		0,21				1,74	1,57	0,31	2,35		
FeO								0,93	4,70	18,17	14,42
Fe ₂ O ₃	0,46	0,81	95,59	0,29	0,50	7,75	5,60				
MnO								0,51	0,40	0,74	0,74
MgO			1,38			25,22	34,28	0,42	3,47	7,71	11,04
CaO	0,62	0,83	0,20	53,48	53,48	0,14	0,07	52,27	40,49	27,28	27,73
P ₂ O ₅				39,84	39,47						
V ₂ O ₅	0,82	0,60	0,20								
SrO						NiO=0,25		0,30	0,08	0,02	0,28
ZrO ₂	2,04	3,33									
HfO ₂	0,74	0,80									
La ₂ O ₃					0,07						
Nb ₂ O ₅	0,83	0,35									
Cr ₂ O ₃		0,52									
Nd ₂ O ₃					0,09						
Sm ₂ O ₃					0,09						
Σ	99,25	99,64	100,55	93,04	93,77	92,02	91,80	55,31	58,31	53,93	54,20

Izoh. 1 – pirittagi qo'shimcha, 8 mkm, 2-4 – biotit, 5-7 – plagioklaz (albit), 8-14 – titanavgit, 15-16 – olivin, 17-23 – kersutit, 24 – titanavgit, 25-26 – psevdoleyisit, 27 – ortoklaz, 28-30 – titanomagnetit, 31-32 – ilmenit, 33-34 – rutil, 35 – gematit, 36-37 – apatit, 38-39 – talk? 40-41 – kalsit, 42-43 – karbonat.

Monchikitning sulfid minerallarining kimyoviy tarkibi (Zirabuloq intruzivining shimoliy kontakti) 2-jadval

Element	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13*
Si							0,39	1,62		3,05		5,24	3,30
S	67,38	65,81	51,62	50,83	52,00	51,29	50,49	46,72	52,34	48,58	46,87	48,56	48,83
Ca			0,71			0,24	0,19	1,00		0,52			0,42
Fe	32,45	33,62	47,47	3,43	7,44	7,24	5,68	10,85	47,56	46,73	2,58	4,13	4,11

Co	0,03	0,45	0,15						0,06	0,22			
Ni	0,05	0,29	0,10						0,11	0,17			
Cu	-	-		0,56	4,48	4,73	5,00	6,67				0,07	0,01
Zn	-	-		45,17	36,08	36,42	38,23	33,14				42,00	42,36
Pb											50,56		
As	0,24	0,23											
Cd				0,04		0,07	0,03						
Σ	100,00	100,00	100,00	100,00	100,00	100,00	100,00	100,00	100,00	100,00	100,00	100,00	100,00

Izoh. 1-2 – pirit, 3 – pirrotin, 4-8 – sfalerit, 9-10 – pirrotin, 11 – galenit, 10 mkm gacha, 12-13 – plagioklazdagi sfalerit qo'shimchasi, 10 mkm, *Al=0,82.

Biotit asosiy massada uzun prizmatik varaqalar shaklida uchraydi (3-rasm). Ko'pincha, kersutit bilan birgalikda psevdoleyisit fenokristallari atrofida zanjirlar yoki tartibsiz to'planmalar hosil qiladi. Kimyoviy tarkibi noto'g'ri, titan oksidi 3 ta analizda 1,41 % dan 6,89 % gacha o'zgaradi, bu kremniy oksidining kamayishi bilan bog'liqqa o'xshaydi (1-jadval, 2-4). Temir oksidi ham 29,28 % bo'lishi metamorfik jinslardagi biotitga yaqinlashtiradi, ammo eng muhimi bariy oksidi 2,34 % ga yetadi. Bu biotitlarga xos bo'lmagan ko'rsatkich, nazarimizda, bariyli mineral qo'shimchalaridan o'zlashtirilgan bo'lishi mumkin. Aksessor minerallar–pirrotin, ilmenit, sfen, rutil, sfalerit, galenit, titanomagnetit, pirit va apatitdan iborat. Ular prizmatik, noto'g'ri agregatlar shaklida uchraydi (3-rasm). Ularning kimyoviy tarkiblari 1, 2-jadvallarda keltirilgan.

Jinsning kamida 30 % ni tashkil qilgan asosiy massa ikkilamchi minerallari (karbonatlar, talk, kalsit, xlorit, seritsit va b.), kersutit, avgit, olivin mikrolitlari va oz miqdordagi izotrop moddalar, shisha aralashmasidan iborat.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Zirabuloq intruzivi monchikitlarining eng muhim ko'rsatkichlaridan bu nefelin normativligidir. Monchikitlar ilk bor tavsiflandi va ular lamprofirlarning ishqorli turiga mansub va tarkibi bo'yicha magmalari yer qobig'ining chuqur qismidan, balki yuqori mantiyadan kelib chiqqan.

ADABIYOTLAR

- O'tamurodov E.A. Zirabuloq tog'larining plutonik daykalari (Janubiy Tiyon-Shon): Geol.-min. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - T., 2024. - 40 b.
- Ishbayev X.D., Axmedjonov B.A., O'tamurodov E.A., Kosbergenov K.M. Zirabuloq-Ziyovuddin tog'larining lamprofir daykalari //Geologiya va mineral resurslar. - №2. –Toshkent: IMR, 2023. –B. 10-21.
- Свириденко А.Ф. О щелочных лампрофירהх в Западном Узбекистане //Узб. геол. журн. — Т.: АН УзССР, 1958. №5. - С.21-26.
- Баймухамедов Х.Н. О возрасте лампрофиров Зирабулакских гор (Западный Узбекистан) //Записки узб. отд. ВМО. - 1954. - Вып. 6. -С. 33-40.
- Уразаев В. М. О некоторых дайковых образованиях Зирабулакских гор. - Записки Узб. отд. всесоюз. мин. общ-ва. Выпуск 6. – Т.: АН УзССР, 1954. - С. 41-43.
- Ахунджанов Р., Каримова Ф.Б., Зенкова С.О., Сайдиганиев С.С. О рудоносности лампрофиров Чаткало-Кураминского и Нуратинского регионов (Западный Тянь-Шань) //Геология и минеральные ресурсы. - № 6. - Ташкент: ИМП, 2013. - С. 9-22.
- Shukurov A.N. Qo'ytosh ma'dan maydonining daykalari va ma'danlashuvi (G'arbiy O'zbekiston): Geol.-min. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - T., 2019. - 44 b.
- Шукуров А.Х. Қўйтош маъдан майдонининг дайкалари ва маъданлашуви (Гарбий Ўзбекистон): Геол.-мин. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. - Т., 2019. - 44 б.
- Ишбаев Х.Д., Шукуров А.Х., Косбергенов К.М. Дайки и оруденение Койташского рудного поля (Южный Тянь-Шань). -Т.: «Navro'z», 2020.-206 с.
- Ахунджанов Р., Каримова Ф.Б., Зенкова С.О., Сайдиганиев С.С. О рудоносности лампрофиров Чаткало-Кураминского и Нуратинского регионов (Занадний Тянь-Шань) /Геология и минеральные ресурсы. - 2013.-№ 6.-С. 9-22.
- Le Maitre R.W. Igneous rocks: A classification and glossary of terms, 2nd edn Cambridge. - 2002. - 236 p.
- Tappe S., Foley S.F., Jenner G.A. & Kjarsgaard B. A. Integrating Ultramafic Lamprophyres into the IUGS Classification of Igneous Rocks: Rationale and Implications. Journal of Petrology, 2002. Volume 46, Issue 9, pp. 1893-1900.
- Stemprok M., Seifert Th. An overview of the association between lamprophyric intrusions and rare-metal mineralization /Mineralogia (Mineralogical society of Poland polskie towarzystwo mineralogiczne), 2011. 42, №2-3: p.121-162.



UDK: 631.5:5636.5(575.172)

Gulman XOLBAYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, geografiya fanlari nomzodi
E-mail: khgulmon@mail.ru,
Xamroqul EGAMBERDIYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti professori, geografiya fanlari doktori
Ulug'bek SHERMUXAMEDOV,
Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqod instituti, PhD
Doston ESHMIRZAYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

GMITI professori, g.f.d. B.Xolmatjanov taqrizi ostida

IQLM O'ZGARISHI SHAROITIDA HUDUDLARINING ISSIQLIK TA'MINOTINI BAHOLASH

Annotatsiya

O'zbekistonning sug'oriladigan hududlarida samarali havo harorati va tuproq harorati yig'indisi kuzgi bug'doy ekinining vegetativ (ekish-tuplanish) davri uchun yetarli darajada ta'minlangan. Qishki tinim davridagi haroratlari yig'indisi Qoraqalpog'iston Respublikasida o'simlikning qishlashi, ya'ni generativ-reproduktiv (tuplanish-to'liq pishish) davri uchun yetarli, Qashqadaryo viloyatida esa bunday imkoniyat yetarli emas. Bazaviy iqlimiy davrga (1961-1990 yy.) nisbatan joriy iqlimiy davrda (1991-2020 yy.) samarali haroratlari yig'indisining oshganligi sababli kuzgi bug'doy vegetatsiya davrining uzayishi kuzatiladi. Bu esa hududlarda bug'doy ekish davrini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Ushbu ma'lumotlardan qishloq xo'jaligi ekinlarining vegetatsiya davrining issiqlik ta'minotini baholashda foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: havo harorati, tuproq harorati, vegetatsiya davri, bug'doy, quyosh radiatsiyasi, o'zbekiston, meteorologiya, stansiya, yog'in, qishloq xo'jaligi.

ОЦЕНКА ТЕПЛОБЕСПЕЧЕННОСТИ ТЕРРИТОРИИ В УСЛОВИЯХ ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА

Аннотация

На орошаемых территориях Узбекистана сумма эффективных температур воздуха и почвы достаточны для вегетативного (посев-кушение) периода озимой пшеницы. Сумма эффективных температур в период зимнего покоя создает возможности для зимовки в Республике Каракалпакстан, т.е. генеративно-репродуктивного (кушение-полного созревания) периода, за исключением Кашкадарьинской области. За счет увеличения суммы эффективных температур в текущий климатический период (1991-2020 гг.) по сравнению с базовым климатическим периодом (1961-1990 гг.) наблюдается увеличение продолжительности вегетационного периода озимой пшеницы. Следовательно, необходимо пересмотреть сроки сева пшеницы в регионах. Эти данные можно использовать для оценки теплообеспеченности вегетационного периода сельскохозяйственных растений.

Ключевые слова: температура воздуха, температура почвы, вегетационный период, пшеница, солнечная радиация, декада, метеорология, станция, осадки, сельское хозяйство.

THE EVALUATION OF THE HEAT SUPPLY OF THE TERRITORY IN CLIMATE CHANGE

Annotation

In the irrigated areas of the regions of Uzbekistan, the sum of effective air and soil temperatures is sufficient for the vegetative period (planting-tending) of the autumn wheat crop, but the sum of the temperatures during the winter dormancy period is less than that of the plant in the Kashkadarya region, except for the regions of the Republic of Karakalpakstan, does not create an opportunity for wintering, i.e. generative-reproductive (clumping-full ripening) period. Due to the increase in the sum of effective temperatures in the current climatic period (1991-2020 yy.) compared to the basic climatic period (1961-2020 yy.), the length of the winter wheat vegetation period is observed. It is necessary to reconsider the period of planting wheat in the regions. These data can be used to estimate the heat supply of the growing season of agricultural plants.

Key words: air temperature, soil temperature, vegetation period, wheat, solar radiation, decade, meteorological station, precipitation, agriculture.

Kirish. Ma'lumki qishloq xo'jaligi ekinlari rivojlanishi jarayonlarida tashqi muhit omillari muhim rol o'ynaydi. Respublikamizda qishloq xo'jaligida sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish, har bir joyning tabiiy sharoitini hisobga olib qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirish kabi masalalar dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bug'doy eng ko'p tarqalgan asosiy donli ekinlardan biri hisoblanadi. Dunyo xalqlarining yarmidan ko'prog'i oziq-ovqat sifatida bug'doy nonidan foydalanadi. Bug'doy nonining tarkibida oqsil va kraxmal ko'p, oqsil moddalar, asosan, kleykovina tarkibida bo'lganligi uchun uning unidan sifatli non tayyorlanadi [1, 6, 7, 14-16].

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi ekinlari (g'oz, donli ekinlar) o'zining o'sishi va rivojlanishi jarayonida tuproq-iqlim sharoiti va uni atrof-muhitning turli omillari ta'sirida unadi, o'sadi va rivojlanadi. Ulardan asosiylari – havo harorati,

yog'ingarchilik, radiatsiya va boshqalar. Ushbu ko'rsatkichlar ekilgan ekinning rivojlanish chegaralari va davrida maksimal hosil olish imkoniyatini pasaytiradi.

Havo, tuproq harorati va quyosh radiatsiyasi kabi kattaliklarning turli davrlarda o'zgarishini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar xorijiy [9, 20, 22, 23] va O'zbekistonlik [3, 4, 6, 10, 22-23] olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Biroq, yuqorida keltirilgan tadqiqotlar havo va tuproq harorati, quyosh radiatsiyasi, samarali haroratlar yig'indisi yo'nalishida amalga oshirilgan bo'lib, ularda erishilgan natijalar, ularning tahlillari asosida olingan ilmiy-amaliy xulosalar shu tadqiqotlar doirasiga mos bo'lgan.

Xulosa va takliflar. Shaharlarni boshqarish va rivojlantirish sohasidagi zamonaviy tendensiyalarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, shahar infratuzilmasini uzluksiz va barqaror rivojlantirish tizimlarini yaratish dolzarb vazifadir. Zamonaviy geofazoviy texnologiyalarni qo'llash – "aqlli shaharlar", xorijiy mamlakatlarda (Buyuk Britaniya, Finlyandiya) muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan "aqlli shahar" tizimlarining mohiyati va tuzilishini o'rganish asosida quyidagi xulosalarni berish mumkin.

1. Raqamli texnologiyalardan foydalanish va shaharlarni 3D modellashtirish shaharsozlik faoliyatini raqamlashtirishning eng muhim yo'nalishlaridan biridir.

2. Yuqori aniqlikdagi uchuvchisiz havodan suratga olish va "katta ma'lumotlar"ni qayta ishlash natijasida olingan raqamli resurslar shahar hududining uch o'lchamli raqamli modellarini yaratish va grafik-analitik tadqiqotlarni o'tkazish uchun yangi imkoniyatlar yaratish imkonini beradi.

3. Shaharning batafsil 3D modeliga ega onlayn platforma nafaqat shaharsozlik, shaharsozlik va yerdan foydalanish monitoringining yangi vositasi, balki taklif etilayotgan arxitektura va shaharsozlik loyihalari haqida aholini xabardor qilish platformasiga aylanishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва бундай вазиятларда ҳаракат қилиш давлат тизими тўғрисида низоми. Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 26 августдаги 515-сон қарорига илова. <https://lex.uz/docs/4969851> миллий қонунчилик базаси.
2. Jackson D., Simpson R. D-City. Digital Earth/Virtual Nations/Data Cities
3. // Connecting Global Futures for Environmental Planning. 2012. URL: <http://dcitynetwork.net/manifesto/index.html?page=2>
4. Biljecki F., Stoter J., Ledoux H., Zlatanov S., Çöltekin A. Applications of 3D City Models: State of the Art Review // ISPRS Int. J. Geo-Inf. 2015. 4. 2842–2889.
5. Куприяновский В. П., Буланча С. А., Кононов В. В. Умные города как
6. «столицы» цифровой экономики // International Journal of Open Information Technologies [Электронный ресурс]. – 2016. – Т. 4, № 2. – Режим доступа: <http://injoit.org/index.php/j1/article/view/269/214>.
7. Emily Moir, Tim Moonen, Greg Clark. What are Future cities? Origin, meaning and uses. – London, Catapult Future Cities, Foresight, United Kingdom, 2014. – P. 100.
8. Chandrasekar K. S., Bajracharya B., O'Hare D. A comparative analysis of smart city initiatives by China and India – Lessons for India. – Bond University, Gold Coast, 2016. – P. 20.



UDK: 910.1

Shukrulla ERNAZAROV,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail:ernazarov0122@gmail.com
Nodirbek PARDAYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktranti
E-mail:pardayevnodirbek4@mail.ru

O'zMU katta o'qituvchisi, g.f.n R.Rayimjonov taqrizi asosida

SCIENTIFIC-THEORETICAL ISSUES OF GEOGRAPHICAL RESEARCH OF THE EDUCATION SYSTEM

Annotation

This article analyzes the scientific and theoretical issues of geographical research on the education system. The study examines the territorial distribution of educational infrastructure, development factors, and geographical characteristics on a scientific basis. In addition, recommendations are provided on the regional organization of the education system and ways to improve it.

Key words: education system, geographical research, territorial distribution, infrastructure, development factors, educational geography, regional organization.

ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ: НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ

Аннотация

В данной статье рассматриваются научно-теоретические вопросы географического исследования системы образования. Анализируются территориальное размещение образовательной инфраструктуры, факторы развития и географические особенности на научной основе. Кроме того, предложены рекомендации по территориальной организации системы образования и путям её совершенствования.

Ключевые слова: система образования, географическое исследование, территориальное размещение, инфраструктура, факторы развития, география образования, территориальная организация.

TA'LIM TIZIMINI GEOGRAFIK TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim tizimini geografik tadqiq etishning ilmiy-nazariy masalalari tahlil qilinadi. Ta'lim infratuzilmasining hududiy joylashuvi, rivojlanish omillari hamda geografik xususiyatlari ilmiy asosda o'rganiladi. Shuningdek, ta'lim tizimining hududiy tashkil etilishi hamda uni takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, geografik tadqiqot, hududiy joylashuv, infratuzilma, rivojlanish omillari, ta'lim geografiyasi, hududiy tashkil etish.

Kirish. Ta'lim tizimi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omil bo'lib, uning hududiy tashkil etilishi jamiyatning barqaror rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim sifati va uning hududiy muvozanati nafaqat aholining ta'lim olish imkoniyatlariga, balki mamlakatning umumiy rivojlanish darajasiga ham bevosita bog'liqdir. Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki inson kapitalini rivojlantirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash vositasi sifatida ham muhim rol o'ynaydi.

Geografik tadqiqotlar ta'lim muassasalarining hududiy taqsimoti, ularga bo'lgan talab va ta'lim sifati kabi jihatlarni o'rganishga imkon beradi. Bu jarayon hududiy farqlarni tahlil qilish, infratuzilma muammolarini aniqlash va ta'lim muassasalarining samaradorligini oshirish uchun zarur strategiyalar ishlab chiqishga yordam beradi. Hududiy geografik tadqiqotlar orqali ta'lim tizimini rejalashtirish, aholi zichligi, tabiiy sharoit va iqtisodiy rivojlanish darajasiga mos ravishda ta'lim muassasalarini joylashtirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta'lim tizimini hududiy o'rganish hozirgi kunda dolzarb masalalardan biridir. D.Harvey geografiya va ijtimoiy nazariyaga oid mashhur mutaxassisdir. Uning «Spatial Fix» va «Social Justice and the City» kabi asarlari ta'lim tizimi va uning geografik joylashuviga ta'sirini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. D.Harvey shahar va qishloq ta'lim tizimlarining farqlanishini, ijtimoiy tengsizliklarni va resurslarning taqsimlanishidagi muammolarni o'rganib, ta'lim va maktablarning mintaqaviy farqlarini ajratib ko'rsatgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'lim tizimini geografik tadqiq etishning ilmiy-nazariy masalalari tahlil qilinadi va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati yoritiladi. Ta'lim tizimini geografik jihatdan tadqiq etish zamonaviy geografiya va pedagogika fanlarining kesishgan nuqtasida joylashgan bo'lib, uning asosiy maqsadi ta'lim muassasalarining hududiy joylashuvi, ta'lim resurslariga kirish imkoniyatlari, hududiy farqlar va ta'lim tizimining barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilishdir.

Tahlil va natijalar. Geografik tadqiqotlar ta'lim muassasalarining joylashuvini optimal tashkil etish, aholining o'quv muassasalariga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash va ta'lim sifati bo'yicha hududiy tafovutlarni o'rganish imkonini beradi.

Ta'lim tizimini geografik tadqiq etish mamlakatning barqaror rivojlanish strategiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar ta'limga kirish imkoniyatlarini oshirish, hududiy farqlarni kamaytirish va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Ta'lim tizimining hududiy tashkil etilishi ta'lim muassasalarining geografik joylashuvi, ularning aholi zichligi, transport infratuzilmasi va iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan uyg'unligi asosida shakllanadi. Ushbu jarayonning ilmiy asoslari quyidagicha:

Markazlashtirish va desentralizatsiya: Hududiy taqsimotda ta'lim muassasalarining markazlashtirilgan yoki desentralizatsiyalangan tizim asosida tashkil etilishi muhim omildir. Markazlashgan tizimda ta'lim muassasalari yirik shaharlarda to'plangan bo'lsa, desentralizatsiya orqali qishloq va chekka hududlarda ham ta'lim sifati oshiriladi.

Transport va yetib borish imkoniyatlari: O'quvchilar va o'qituvchilar uchun qulay transport infratuzilmasi ta'lim sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, ta'lim muassasalarining aholiga yaqin joylashuvi bilim olish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Demografik va ijtimoiy jihatlar: Aholi zichligi, yosh tarkibi va migratsiya jarayonlari ta'lim muassasalarining soni va ularning hududiy joylashuvi bilan bog'liq. Tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan hududlarda yangi maktablar ochilishi talab etiladi, aksincha, aholisi kamayayotgan hududlarda ta'lim muassasalarini optimallashtirish zarur.

Hududiy farqlar va ta'lim sifati: Qishloq va shahar hududlari o'rtasidagi ta'lim imkoniyatlari tafovutlarini o'rganish orqali davlat ta'lim siyosatini takomillashtirish mumkin. Xususan, chekka hududlarda internet orqali masofaviy ta'lim tizimini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

GIS va kartografik tadqiqotlar: Geografik axborot tizimlari (GIS) ta'lim muassasalarining hududiy taqsimotini tahlil qilish, ta'lim sifati va infratuzilma yetishmovchiligini aniqlash uchun kuchli vosita hisoblanadi. Kartografik tadqiqotlar yordamida ta'lim muassasalarining optimal joylashuvi rejalashtiriladi.

Ekologik omillar: Ta'lim muassasalarining atrof-muhitga ta'siri va ekologik xavfsizligi ham geografik tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biridir. Zararli ekologik hududlarda joylashgan ta'lim muassasalari o'quvchilarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ta'lim tizimini geografik jihatdan tadqiq etish turli xil ilmiy-uslubiy yondashuvlarni talab qiladi. Ushbu usullar ta'lim muassasalarining joylashuvi, ta'lim sifati va unga kirish imkoniyatlarini hududiy tahlil qilish imkonini beradi. Quyida ta'lim tizimini geografik tadqiq etishda qo'llaniladigan asosiy usullar keltirilgan:

➤ **Kartografik usul:**

- ✓ Ta'lim muassasalarining hududiy taqsimotini vizual ko'rinishda tahlil qilish imkonini beradi;
- ✓ Maktab, kasb hunar maktablari, kollej, litseylar va universitetlarning geografik joylashuvi xaritalar asosida o'rganiladi;
- ✓ Kartografik usul orqali ta'lim resurslarining taqsimoti va ulardan foydalanish samaradorligi baholanadi;

➤ **Geografik axborot tizimlari (GIS) usuli:**

- ✓ Ta'lim muassasalarining fazoviy taqsimotini o'rganish va hududiy tahlil qilish imkonini beradi;
- ✓ GIS texnologiyalari orqali maktab va universitetlarning aholi zichligi bilan uyg'unligi, transport infratuzilmasi va ekologik sharoitlari tahlil qilinadi;

➤ GIS tizimlari yordamida ta'lim muassasalarining optimal joylashuvini aniqlash mumkin;

➤ **Statistik va demografik usullar:**

- ✓ Aholining yosh tarkibi, migratsiya jarayonlari va ta'lim muassasalariga bo'lgan ehtiyojlarni o'rganishda qo'llaniladi;
- ✓ Ta'lim sifati va unga kirish imkoniyatlari bo'yicha hududiy tafovutlar statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi;
- ✓ Dinamik tahlil usuli orqali ta'lim tizimidagi o'zgarishlar kuzatiladi.

➤ **Iqtisodiy-geografik usul:**

- ✓ Ta'lim tizimining iqtisodiy omillar bilan bog'liqligini tahlil qiladi;
- ✓ Ta'lim muassasalarining moliyalashtirish darajasi va uning hududiy farqlari o'rganiladi;
- ✓ Ta'lim infratuzilmasining hududiy rivojlanish strategiyalariga ta'siri tahlil qilinadi.

➤ **Sotsiologik usul:**

- ✓ Aholining ta'lim tizimi haqidagi fikrlari va ta'lim sifatiga bo'lgan talabini aniqlash imkonini beradi;
- ✓ So'rovnomalar, intervyular va ekspert tahlillari orqali ta'lim tizimining dolzarb muammolari o'rganiladi;
- ✓ Hududiy ta'lim muammolariga aholining munosabatini baholashga imkon yaratadi.

➤ **Tahliliy va prognozlash usullari:**

✓ Ta'lim tizimining rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish va kelajakda kutilayotgan o'zgarishlarni bashorat qilishga xizmat qiladi;

- ✓ Hududiy ta'lim siyosatining samaradorligini baholash uchun modellashtirish usullaridan foydalaniladi;
- ✓ Ma'lumotlar asosida ta'lim muassasalarining rivojlanish tendensiyalari aniqlanadi.

Ushbu usullarni qo'llash orqali ta'lim tizimining hududiy rivojlanishi chuqur tahlil qilinib, samarali ta'lim siyosatini shakllantirish mumkin.

O'zbekistonning ta'lim tizimi hududiy jihatdan turli omillarga bog'liq holda shakllangan bo'lib, mamlakatning geografik joylashuvi, aholi zichligi va iqtisodiy rivojlanish darajasi uning hududiy tashkil etilishiga bevosita ta'sir qiladi. Quyidagi jihatlar O'zbekistonda ta'lim tizimining hududiy xususiyatlarini belgilaydi:

❖ **Hududiy taqsimot va aholi zichligi:**

- Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi yirik shaharlarda ta'lim muassasalari soni va sifati yuqori darajada shakllangan;
- Qishloq hududlarida esa ta'lim muassasalarining yetarlicha rivojlanmagani, ayrim maktablarning infratuzilmasi talab darajasida emasligi kuzatiladi;

- Chekka hududlarda internet va masofaviy ta'lim imkoniyatlari hanzgacha yetarlicha rivojlanmagan.

❖ **Ta'lim muassasalarining turlari va ularning hududiy taqsimoti:**

- Respublikada maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalari faoliyat yuritadi.

• Katta shaharlarda oliy ta'lim muassasalari ko'p bo'lsa, qishloqlarda ularning soni kamligi sababli yoshlar shaharlarga ko'chishga majbur bo'lishadi.

• Ayrim viloyatlarda sanoat va iqtisodiy faoliyat turlariga mos ravishda kasb-hunar ta'limi muassasalari shakllangan.

❖ **Transport va logistika imkoniyatlari:**

• O'zbekistonning ba'zi viloyatlarida ta'lim muassasalariga yetib borish qiyinligi, transport infratuzilmasining talab darajasida emasligi o'quvchilar va o'qituvchilar uchun muammolar tug'diradi;

• Ayniqsa, tog'li va cho'l hududlarida joylashgan qishloqlarda yetarlicha ta'lim olish imkoniyatlari cheklangan.

❖ **Davlat dasturlari va ta'limni rivojlantirish strategiyalari**

• O'zbekiston hukumati ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, hududiy tengsizlikni kamaytirish bo'yicha turli davlat dasturlarini amalga oshirmoqda;

• «Raqamli O'zbekiston – 2030» dasturi doirasida ta'lim muassasalariga internet va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ishlari olib borilmoqda;

• Xalqaro ta'lim standartlariga mos keladigan yangi maktablar va universitetlar tashkil etilmoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rinda shuni aytish joizki, O'zbekistonda ta'lim tizimining hududiy xususiyatlarini o'rganish orqali mavjud muammolarni hal qilish va ta'lim imkoniyatlarini teng taqsimlash bo'yicha samarali choralar ishlab chiqish mumkin. Shu bois quyida ta'lim tizimida uchraydigan mavjud muammolarni ko'rib chiqamiz:

- Qishloq joylarda ta'lim muassasalarining yetishmovchiligi;
- Hududiy taqsimotda nomutanosiblik va infratuzilma muammolari;
- O'qituvchilarning malakasi va ta'lim sifati o'rtasidagi farqlar;
- Transport va logistika qiyinchiliklari;
- Raqamli ta'lim resurslariga yetarli darajada kirish imkoniyati yo'qligi.

Yuqorida keltirilgan kamchilik va muammolardan kelib chiqib uni bosqichma –bosqich yaxshilash uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Aynan shunday taklif va tavsiyalarni quyida ko'rib chiqishingiz mumkin:

- ✓ Hududiy ta'lim strategiyasini takomillashtirish;
- ✓ Qishloq joylarida zamonaviy ta'lim muassasalarini qurish va jihozlash;
- ✓ O'qituvchilar malakasini oshirish dasturlarini kengaytirish;
- ✓ Transport infratuzilmasini yaxshilash va masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish;
- ✓ Ta'lim tizimiga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish.

Ta'lim tizimini geografik jihatdan tadqiq etish, uning hududiy rivojlanishidagi muhim omillarni aniqlash va optimallashtirish uchun zaruriy vositadir. Hududiy taqsimotning samarali tashkil etilishi, ta'lim sifati va unga kirish imkoniyatlarini oshirish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda ta'lim tizimining hududiy xususiyatlari shahar va qishloq hududlari o'rtasidagi tafovutlar, transport infratuzilmasi va iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog'liq.

Mavjud muammolarni bartaraf etish uchun hududiy ta'lim strategiyasini takomillashtirish, infratuzilmani rivojlantirish, masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish va o'qituvchilar malakasini oshirish kabi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ta'lim muassasalarining geografik taqsimotini ilmiy asosda rejalashtirish va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kelajakda hududiy ta'lim siyosatini takomillashtirish orqali mamlakatning barcha hududlarida ta'lim imkoniyatlarini teng ta'minlash, barqaror rivojlanish va innovatsion jamiyat yaratish yo'lida muhim qadamlar tashlanishi zarur bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев М. «Юрта таълим тизимини ривожлантириш омиллари» – Тошкент: Фан, 2018.
2. Андерсон Дж. «География образования: глобальные тренды и региональные особенности» – Москва: Наука, 2017.
3. Бартон П., Грант А. «Образовательная инфраструктура: теория и практика» – Санкт-Петербург: Питер, 2019.
4. Jalalov J. «O'zbekistonda ta'lim tizimi: tarix va istiqbollar» – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
5. Каримов И. «Олий таълимнинг географик жиҳатлари» – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2016.
6. Smith D. «Education and Regional Development» – Cambridge University Press, 2020.
7. Mirzaev U. «Geografiya fanlari va ta'lim tizimi» – Toshkent: Fan, 2015.
8. UNESCO. «Global Education Monitoring Report» – Paris, 2022.
9. Хакимов Ш. «Мактаб таълими ва унинг ҳудудий хусусиятлари» – Тошкент: Маърифат, 2020.
10. Castells M. «The Network Society and Education» – Oxford University Press, 2018.
11. Бекназаров Р. «Ўзбекистонда таълим инфратузилмасининг ривожланиш тенденциялари» – Тошкент: Ўзбекистон, 2021.
12. World Bank. «Education Infrastructure and Economic Growth» – Washington, 2021.
13. Харрис Т. «Глобальные вызовы в сфере образования и их влияние на развитие регионов» – Москва: Высшая школа экономики, 2019.
14. Юнусов А. «Худудий ривожланиш ва таълим инфратузилмаси» – Тошкент: Иқтисодиёт, 2022.
15. Мухторов К. «Ўзбекистонда таълим тизимини ривожлантиришда инновацион ёндашувлар» – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2020.



UDK: 911.5

Bekzod ESHQUVVATOV,

Samarqand davlat universiteti dotsenti

Nazira XURRAMOVA,

Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

Email: naziraxurramova4@gmail.com.

BuxDu professori Y.Xayitov taqrizi asosida

STAGES OF MONITORING CHANGES IN LANDSCAPES OF THE MIDDLE ZARAFSHAN BASIN

Аннотация

This article outlines the changes in the landscapes of the basin area, the factors influencing these changes, and the necessary measures to improve the condition of the landscapes. In addition, it provides recommendations for implementing a scientifically grounded monitoring system in the regions. By following these recommendations, we can ensure the rational and integrated use of the environment, water, soil, and other natural resources, which form the basis of our existence. Below, the stages of organizing the monitoring process are presented.

Key words: transformation, degradation, monitoring, assessment, industrial-technogenic.

ЭТАПЫ МОНИТОРИНГА ИЗМЕНЕНИЙ ЛАНДШАФТОВ СРЕДНЕЗАРАФШАНСКОГО БАССЕЙНА

Аннотация

В данной статье представлены изменения ландшафтов в пределах бассейна, факторы, влияющие на эти изменения, и мероприятия, которые необходимо выполнить для улучшения состояния ландшафтов. Также в статье даны рекомендации по внедрению научно обоснованной системы мониторинга в данных регионах. Соблюдая эти рекомендации, можно обеспечить рациональное и комплексное использование окружающей среды, воды, почвы и других природных ресурсов, которые составляют основу нашего существования. Ниже приведены этапы организации процесса мониторинга.

Ключевые слова: трансформация, деградация, мониторинг, оценка, промышленно-техногенный.

O'RTA ZARAFSHON HAVZASIDAGI LANDSHAFTLAR O'ZGARISHINI MONITORING QILISH BOSQICHLARI

Аннотация

Ushbu maqolada havza hududidagi landshaftlarning o'zgarishi, unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va landshaftlarning holatini yaxshilash bo'yicha bajarilishi lozim bo'lgan ishlar berilgan. Bundan tashqari hududlarda ilmiy asoslangan monitoring tizimini joriy etish bo'yicha tavsiyalar mavjud. Bu tavsiyalarga amal qilinsagina borligimiz asosi bo'lgan atrof-muhit, suv, tuproq va boshqa tabiiy resurslardan oqilona va majmualiy foydalangan bo'lamiz. Quyida monitoringni tashkil etish bosqichlarini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: transformatsiyalanish, degradatsiya, monitoring, baholash, sanoat-texnogen.

Kirish. Bugungi kunda insonning faol xo'jalik faoliyati natijasida landshaftlarda transformatsiyalanish jarayoni yuzaga kelib, mahalliy, mintaqaviy va global darajadagi bioxilma-xillikning yo'qolishiga sabab bo'lmoqda. Transformatsiya so'zi fanda «transformation»-lotincha so'zdan olingan bo'lib, o'zgarish bir holatdan boshqasiga o'tish, almashinish degan umumiy ma'nolarni anglatadi. Landshaftlar transformatsiyasiga N.T. Sabirova quyidagicha ta'rif beradi: landshaftlar transformatsiyasi bu - tashqi ta'sir natijasida (tabiiy, antropogen) landshaftlarni o'zgarishi ya'ni, bir landshaft holatidan boshqa landshaft holatiga almashinishidir[9].

Antropogen ta'sirga uchragan landshaftlar uchun ekologik monitoringni tashkil etish muhim. Chunki bunday jarayonlar qishloq xo'jaligi, urbanizatsiya, sanoat rivojlanishi va infratuzilma qurilishi, tabiiy resurslardan foydalanish darajasi va boshqa faoliyatlar orqali landshaftni o'zgarishiga ta'sir qilmoqda. Albatta bunday ta'sirlar landshaft komponentlariga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Bu esa turli xil, jumladan, tabiati bo'yicha o'zaro farq qiluvchi geoeologik muammolarni shakllantiradi. Shu sababli, turli darajadagi antropogen ta'sir ostidagi landshaftlar uchun monitoring dasturlari va ularning kompleks bahosi muhimdir. Bunday baholashlar uchun landshaftlarning antropogen o'zgarganlik darajasini ifodalovchi kompleks ko'rsatkichlardan foydalanish talab etiladi [5].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zamonaviy geografiya va geoeologiya fanlarida atrof-muhit monitoringi masalalariga katta e'tibor qaratiladi. Monitoring tadqiqotlarining asosiy tamoyillarini shakllantirgan asosiy ilmiy ishlar I. P. Gerasimov va Yu. A. Izrayil nomlari bilan bog'liq bo'lib, ular ekologik monitoringni alohida ilmiy yo'nalish sifatida rivojlantirganlar[6,7]. Dunyo miqyosida ekologik monitoring bo'yicha ko'plab xalqaro tashkilotlar ham mavjud. Jumladan BMT ning atrof-muhit bo'yicha dasturi (YUNEP). Butunjahon hayvonlarni himoya qilish jamiyati (VFDP). Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi (MSOP). Monitoring bo'yicha butun jahon markazi (VSM), Atrof-muhit monitoringining global tizimi (GSMOS), Butunjahon meteorologiya tashkiloti (VMO) faoliyati doirasida monitoring ishlari amalga oshiriladi[11]. O'zbekiston Respublikasi hududida atrof muhit monitoringi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Suv xo'jaligi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi va Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati markazlari tomonidan amalga oshiriladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan -

atmosfera havosi, yer usti suvlari va tuproq ifloslanishi manbalari monitoringi, shuningdek, Davlat ekologiya qo'mitasi tasarrufidagi qo'riqlanadigan tabiiy hududlarda o'simlik va hayvonot dunyosi monitoringini amalga oshiradi[10].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati markazi tomonidan - atmosfera havosi ifloslanishi, yer usti (tabiiy suv oqimlari) suvlar, tuproq ifloslanishi va fon monitoringi bo'yicha;

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan - asosiy kollektorlarning kollektor-drenaj va meliorativ quduqlar suvlarining sifat tarkibi monitoringi bo'yicha;

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan - qishloq xo'jaligi yerlarining ifloslanishi, shuningdek tabiiy yaylovlar o'simliklarining monitoringi bo'yicha;

O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi tomonidan - yer osti suvlari ifloslanishi va xavfli geologik jarayonlar monitoringi bo'yicha;

O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi tomonidan - o'rmon fondi yerlaridagi, shuningdek, O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi tasarrufidagi boshqa ob'ektlardagi o'simlik va hayvonot dunyosi monitoringi bo'yicha;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan - atrof tabiiy muhitning sanitariya-gigienik monitoringi bo'yicha amalga oshiriladi[10].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot obyektimiz O'rta Zarafshon havzasi hisoblanadi. Bu yerlar qadim zamonlardan insonlar tomonidan egallangan va tabiiy sharoiti qulay bo'lgani sababi kishilar o'zining xo'jalik faoliyatini yuritib kelmoqda. Buning natijasida o'zi istamagan holda salbiy ta'sir kuchayib landshaftlarda o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Hududdagi landshaftlarga ta'sirning quyidagi turlarini uchratishimiz mumkin:

1. qishloq xo'jaligi faoliyati yuritishning kengayishi. (hatto daryo yoqalaridagi tol va terakzorlar kesilib qishloq xo'jalik ekinlari ekilmoqda.)

2. sanoat-texnogen jarayonlar.

3. turar-joy hududlarining ko'payishi.

4. Yaylov hududlarini egallash va ulardan foydalanish. (yaylovlardan betartib foydalanish natijasida u yerdagi o'simlik turlari yo'qolmoqda.)

5. Daryo yoqalaridagi to'qayzorlarni yo'q qilish va baliqchilik maqsadida sun'iy ko'llar barpo qilish.

Buning natijasida hududlardagi tuproqning unumdorligi yo'qolishi, sho'rlanishning kuchayishi va o'simlik qoplami kamayishi kuzatiladi. Ushbu holatlarni kamaytirish va yaxshilash uchun ham monitoring ishlarini amalga oshirish zarur. Tadqiqotimiz davomida geokologik va bioekologik monitoring turlaridan foydalangan holda quyidagi ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishni maqsad qilib olganmiz:

-Yer degradatsiyasiga uchragan hududlarni aniqlash va yaxshilash choralarini ishlab chiqish;

-O'simlik va hayvonot dunyosi degradatsiyasi sabablarini aniqlash va muhofaza qilish yo'llarini ishlab chiqish;

-Yer osti, yer usti suvlarining, shuningdek, chuchuk suv ifloslanishi manbaalarini aniqlash va sifatini yaxshilash choralarini ishlab chiqish;

-Kollektor-drenaj suvlarining sifat tarkibini o'rganish;

-Atmosferaning ifloslanishi va manbaalari;

-Shahar va sanoat chiqindilari turlari, darajasi va boshq.

Tahlil va natijalar. Y. Landshaft auditi (audit ma'lum bir faoliyat, hodisa va sharoitlarning o'ziga xos mezonlariga mos kelishini aniqlash maqsadida ob'ektiv ravishda to'planadigan ma'lumotlarni tekshiruvchi rasmiy hujjatlashtirilgan tizimli jarayon) [11] natijasi sifatida geokologik holatning integratsiyalashgan xaritasi ishlab chiqiladi. Bu xaritada ekologik holatlar quyidagi darajalar bo'yicha tasniflanadi: qulay, kamroq qulay, qoniqarli, qoniqarsiz holatlar. Geoekologik holat tahlili natijasida, monitoring ma'lumotlariga asoslanib, ma'lum hududning rivojlanish istiqbollari prognoz qilinadi. GIS texnologiyalaridan foydalanib, ifloslantiruvchi moddalarning hududiy tarqalishini xaritaga tushirish imkonini beradi. Bu ma'lumotlar asosida landshaft komponentlarining ekologik holati va umumiy holatga bo'lgan ta'siri baholanadi.

Landshaftlarni kuzatishning GIS va masofaviy zondlash usullari

Landshaft monitoringida GIS texnologiyalari va masofaviy zondlash materiallaridan foydalanish ifloslanish darajasi va zararli moddalar tarqalishining hududiy va sifat jihatidan baholashda samarali bo'ladi. Monitoring jarayonida quyidagi usullar qo'llaniladi:

1. **Landshaft-geokimyoviy xaritalash:** Har bir landshaft komponentida kimyoviy elementlarning kontsentratsiya darajasi bo'yicha izolinyalar tuziladi. Bu izolinyalarni an'anaviy bir xil intervalda emas, balki landshaftga xos bo'lgan ko'rsatkichlar oralig'ida chizish tavsiya etiladi. Bu usul har bir elementning tarqalishini aniq ifoda etadi.

2. **GIS modellash:** Geoekologik ma'lumotlar bazasi orqali hududda mavjud zararli moddalarning kontsentratsiyasi va umumiy ifloslanish ko'rsatkichlari bo'yicha xaritalar yaratish imkonini beradi. Bunday xaritalar zararli moddalar tarqalishining xususiyatlarini aniqlashda muhim vositadir.

3. **Masofaviy zondlash yordamida monitoring:** Sun'iy yo'ldoshdan olingan ko'p diapazonli tasvirlarni analiz qilish ifloslanishning tabiiy va antropogen jarayonlarini kuzatish imkonini beradi. Masalan, tuproq namligini aniqlash, sho'rlangan hududlarni xaritaga tushirish yoki quruqlikdagi yong'inlar holatini aniqlashda infraqizil diapazonlardan foydalaniladi[5].

Xulosa va takliflar. Landshaft monitoringini rivojlantirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

• Sun'iy yo'ldoshdan olinadigan yuqori aniqlikdagi ma'lumotlar bilan yer usti kuzatuvlari va tashkilotlardan olingan ma'lumotlarni birlashtirish.

• Ekologik xavflarni aniqlash va ularni oldini olish yoki kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

• Landshaft o'zgarishlarini baholash va ekologik xavfsizlikni amalga oshirishga yo'naltirilgan qarorlarni qabul qilish uchun GIS modellash texnologiyalarini keng joriy etish. Antropogen geokomplekslar xaritasi hududning o'zlashtirilish darajasi va transformatsiyasini baholash, shuningdek, hududdan oqilona foydalanish uchun ustuvor yo'nalishlarni aniqlash imkonini beradi[8].

Xulosa. Hududda monitoringni tashkil etish ekologik vaziyatni muntazam nazorat qilish, vujudga kelishi mumkin bo'lgan salbiy jarayonlarni oldini olishga tayyorgarlik ko'rish va bunday vaziyatni oldini olish bo'yicha majmualar tizim ishlab chiqish uchun zarurdir. Faqatgina ilmiy tashkil etilgan monitoring tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni asrash bo'yicha

yerarli va zarur ma'lumotlarni berishi mumkin. Atrof-muhitni asrash inson salomatligi va mamlakatlar iqtisodiyoti uchun ham muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida 1999-2005 yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish harakati dasturini tadbiq etish masalalari to'g'risida»gi qarori.10.08.2000.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit monitoringi nizomini tasdiqlash to'g'risida» gi qarori.3.04.2002.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish bo'yicha Milliy komissiyasi to'g'risida»gi qarori. 12.11.1997.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Yerdan foydalanish samaradorligini o'ttirish tadbirlari to'g'risida» gi qarori. 29.11.1994.
5. А. О. Сплодитель, Л. Ю. Сорокина Геоэкологический мониторинг антропогенных изменений ландшафтов Украины. Вестник Брэсцкага ўніверсітэта. Серыя 5. Хімія. Біялогія. Науки об земли № 2 / 2020. ср.156-167.
6. Герасимов И.П. Экологические проблемы в прош, настоящей и будущей географии мира. -М.: Наука, 1985.
7. Израэль Ю.А. Экология и контроль состояния природной среды. -М.: Гидрометеониздат, 1984.
8. С.В.Осипов, А.А.Гуров Геоэкологические оценка и мониторинг территории: технология на основе ландшафтного картографирования антропогенных геокомплексов. Вестник СПбГУ. Науки о Земле. 2022. Т. 67. Вып.4.ср.631-651.
9. Abbasov S.B., Sabirova N.T. Aydar-Arnasoy ko'llar tizimining landshaftlar transformasiyasiga ta'sirini baholash // O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti 45-jild 27-35.
10. Ministry of ecology, environmental protection and climate change of the republic of Uzbekistan.
11. Xojimatov A.N. Ekologik monitoring. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg'armasi nashryoti, Toshkent-2004. 29-34-bet.



UDK:622.243.1

Otabek ESHMURODOV,
Toshkent davlat texnika universiteti tayanch doktoranti
Komilxuja RAXIMOV,
Surxan gaz kemikal (Surhan Gas Chemical) Skvajinalarni burg'ilash bo'limi boshlig'i
Ilxom BEGIJONOV,
Toshkent davlat texnika universiteti assistenti
Tolib KOMILOV,
Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti, PhD
Saparbek YERMENEV,
M. Auevov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti doktoranti

PhD B.Ashurov taqrizi asosida

TO'LIQIN DINAMIKASI USULI BILAN BURG'ILASH QUVURLARINI SIQILIB QOLISHINI OLDINI OLISH NAZARIYASINI ASOSLASH

Аннотация

Maqolada burg'ilashda yuzaga keladigan eng qiyin va keng tarqalgan texnik masalalardan biri bo'lgan burg'ilash quvurlarining siqilib qolish muammosi ko'rib chiqilgan. Ushbu jarayonning asosiy sabablari va mexanizmini o'rganish jarayonida, burg'ilash kolonnasining ishqalanish kuchlari va atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirlari tahlil qilingan. Asosiy e'tibor burg'ilashda burg'ilash quvuri orqali skvajinada sodir bo'ladigan kuchli to'liqlanish jarayonlaridagi kuchlarni burg'ilash quvurini o'q sifatida qabul qilgan holda undagi dinamik kuchni pastga yo'naltirish va ularni bartaraf etishning yangi mexanik usulini ishlab chiqishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: burg'ilash quvurini siqilib qolishi, ishqalanish kuchlari, to'liqin jarayonlari, cheklovchi tushirish to'liqini, mexanik usul, raqamli modellashirish, dinamik yuk, elastik novda, chekli element diskretizatsiyasi, bo'ylama to'liqlar.

THEORETICAL JUSTIFICATION OF THE ELIMINATION OF THE SEIZURE OF DRILL STRINGS BY WAVE DYNAMICS METHODS

Annotation

In this paper, the problem of gripping drill strings is considered to be one of the most complex and common technical issues that arise during the drilling process. The analysis of the causes and mechanism of this phenomenon is carried out, including the interaction of the drill string with the environment and the influence of local zones with increased friction forces. The main attention is paid to the development of a new mechanical method for removing entanglement based on the use of wave processes, and the dynamics of a long elastic rod representing a drill string is considered, with an emphasis on the transmission of dynamic load through the inner core.

Keywords: grip of the drill string, friction forces, wave processes, limiting discharge wave, mechanical method, numerical modeling, dynamic load, elastic rod, finite element discretization, longitudinal waves.

ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ОБОСНОВАНИЕ ЛИКВИДАЦИИ ПРИХВАТА БУРИЛЬНЫХ КОЛОНН МЕТОДАМИ ВОЛНОВОЙ ДИНАМИКИ

Аннотация

В данной работе рассматривается проблема прихвата буровых колонн одного из наиболее сложных и распространенных технических вопросов, возникающих в процессе бурения скважин. Проведён анализ причин и механизма этого явления, включающий взаимодействие буровой колонны с окружающей средой и влияние локальных зон с повышенными силами трения. Основное внимание уделено разработке нового механического метода устранения прихвата, основанного на использовании волновых процессов, а также рассмотрена динамика длинного упругого стержня, представляющего буровую колонну, с акцентом на передачу динамической нагрузки через внутренний сердечник.

Ключевые слова: прихват буровой колонны, силы трения, волновые процессы, предельная волна разряжения, механический метод, численное моделирование, динамическая нагрузка, упругий стержень, конечно-элементная дискретизация, продольные волны.

Прихват буровых колонн является одной из наиболее распространённых и сложных технических проблем, возникающих в процессе бурения скважин. Анализ причин и механизма возникновения этого явления показывает, что буровая колонна, рассматриваемая в масштабе скважины, представляет собой деформируемый полый стержень, активно взаимодействующий с окружающей средой. Локальные зоны с повышенными силами трения, возникающие вокруг колонны вследствие различных факторов, создают препятствия для её свободного осевого перемещения, что приводит к явлению прихвата.

При проведении мероприятий по ликвидации прихвата основным ограничивающим фактором становится механическая прочность буровой колонны. Приложение избыточных усилий, превышающих предел прочности колонны, может привести к её разрушению (обрыву), при этом требуемое усилие для высвобождения колонны остаётся

недостижимым. Именно это обстоятельство является ключевой причиной значительных трудностей, связанных с устранением прихвата.

На сегодняшний день отсутствуют универсальные и высокоэффективные методы ликвидации всех типов прихвата. Существующие подходы преимущественно базируются на уменьшении сил трения между колонной и стенками скважины путём применения внешних воздействий. В большинстве случаев используются методы, основанные на гидравлических и гидродинамических процессах, реализуемых в условиях скважины [1,2,3].

Целью настоящего исследования является теоретическое обоснование, численное моделирование и разработка механического метода, обеспечивающего существенное перемещение буровой колонны без её разрушения. Для достижения данной цели предполагается создание условий, при которых перераспределение внешней силы, приводящей колонну в движение, осуществляется от её торца по всей длине. Основой предлагаемого метода является формирование предельной волны разряжения, которая обеспечивает преодоление локальных участков с высоким трением и высвобождение колонны из прихвата.

Предлагаемый метод базируется на использовании волновых процессов, развивающихся в колонне труб, которые находятся во взаимодействии с горными породами. Применение волнового подхода обеспечивает эффективное снижение влияния локальных сил трения, возникающих в условиях значительных механических и геологических нагрузок.

В данной исследовании приведено уравнение движения отдельно для каждой составляющей стержня, применив конечно-элементной дискретизации к вариационному уравнению, матричная система дифференциальных уравнений. Учитывая «медленный» и «быстрый» вектор силы «медленного» движения колонны с сердечником в матричном виде, представлено уравнение, где показано, что действие вибрации на нелинейные диссипативные системы, в последнем возникает так называемое вибрационное перемещение, под которым понимается возникновение «направленного в среднем» движение за счет «ненаправленных в среднем» воздействий.

Буровая колонна рассматривается как длинный упругий стержень (длиной L) с двумя свободными концами (рис. 1). Произвольная часть стержня l_n (участок 3 на рис. 1) подвержена действию сил, приложенных к внешней поверхности стержня и являющихся, по природе силами трения. Они, по существу, и вызывают явление прихвата. Наилучшим местом приложения динамической силы является нижняя часть буровой колонны, а именно ее внутренняя поверхность. Главным преимуществом нижнего участка колонны как места приложения нагрузки является возможность использования волны разряжения, возникающей в колонне, для создания дополнительного движения буровой колонны в вертикальном направлении, то есть для вытаскивания колонны из скважины, следовательно для ликвидации прихвата.

Исходя из этого, возникает задача о распространении волны в двухслойных по радиусу составных стержнях (рис.1). При этом внешний стержень помечен цифрой 2 на рисунке представляет собой собственно буровую колонну, а внутренний - сердечник 4, воспринимает торцевую нагрузку и служит созданию продольных волн разряжения в колонне R_3 .

Для движения составного стержня и передачи динамической нагрузки на нижний торец колонны, составим уравнение, состоящего из буровой колонны – 2 и сердечника – 4, предназначенного для передачи динамической нагрузки на нижний торец колонны.




Рис.1 Схематическое изображение сил, действующих на буровую колонну на прихваченном участке. 1 - участок буровой колонны, 2 - горная порода. R_1 – статическая растягивающая сила, приложенная на верхний торец буровой колонны, R_2 – сила прямой волны, возникающая в результате распространения ударной волны в буровой колонне. R_3 – сила обратной волны, возникающая в результате распространения в буровой колонне волны разряжения.

Уравнения движения получаются отдельно для каждой составляющей стержня, но при этом учитывается, что напряжение, возникающие в зоне контакта составляющих, равны по величине и противоположно направлены.

Так, для получения уравнения движения колонны рассматривается протяжённый стержень длиной L (длина колонны) с двумя свободными концами. Часть стержня (l_n) подвержена действию сил, направленных по касательной к внешней поверхности стержня в сторону противоположную движению стержня. Эти силы, являющиеся силами трения, подчиняются закону сухого трения и вызывают явление прихвата, ликвидация которого представляет цель исследования. Кроме сил трения, действующих по внешней поверхности стержня (колонны), к его внутренней поверхности (по участку длиной l_c) приложены силы трения, возникающие при движении сердечника. Эти силы (R_2 на рис.1) направлены в сторону движения сердечника и приводят в движение колонну.

Для получения уравнения движения сердечника рассматривается стержень длиной l_c , взаимодействующий с окружающей средой (колонной) по закону сухого трения по всей длине l_c . Один конец сердечника (нижний) свободен, а к другому приложена периодически повторяющаяся импульсная нагрузка $\sigma(t)$. Динамика упругих и неупругих стержней с внешним трением рассмотрены в работах [4,5,6]

Таким образом для каждой составляющей стержня рассматривается процесс движения на отрезке времени $0 < t < t_1$ под действием приложенных к ней сил.

Для обоснования возможности ликвидации прихвата под действием указанных сил воспользуемся теорией нелинейных механических систем, касающейся эффекта вибрационного перемещения. Для этого явления характерно, что возникающий в системе (колонне) под действием вибрации движение $x = X + \phi$ представляет собой наложение "быстрых" высокочастотных колебаний ϕ на «медленное» эволюционное движение X . При этом основной интерес, как правило, представляет именно медленное движение, характеризующее составляющей X .

Для составления уравнения движения системы воспользуемся вариационным уравнением, представляющим условие минимума полной энергии

$$\int_0^t (\delta T - \delta \Pi + \delta' W) dt = 0 \quad (1)$$

где δT , $\delta \Pi$ – вариации кинетической и потенциальной энергии;

$\delta' W$ – сумма элементарных работ внешних сил, включающая работу сил трения и приложенной нагрузки на возможных перемещениях.

Указанные функции определяются для продольных движений стержня по формулам

$$\begin{aligned} \Pi &= \frac{1}{2} \int_0^l \sigma \varepsilon dx = \frac{1}{2} \int_0^l c \left(\frac{\partial u}{\partial x} \right)^2 dx \\ T &= \frac{1}{2} \rho \int_0^l c \left(\frac{\partial u}{\partial t} \right)^2 dx \\ \delta' W &= \int_0^l \tau \delta u dx \end{aligned} \quad (2)$$

Подстановка (2) в условие (1) и учет граничных условий позволяют получить волновое дифференциальное уравнение в частных производных с соответствующими граничными и начальными условиями для каждой части составного стержня. При решении волновых уравнений возможно использование различных численных методов. В частности, нами разработаны оригинальные программы, реализующие для решения данной задачи метод конечных разностей, метод характеристик и метод конечных элементов.

Применение конечно-элементной дискретизации к вариационному уравнению (1) позволяет получить разрежающую матричную систему дифференциальных уравнений (6), в виде

$$M\ddot{x} = F(\dot{x}, x, t) + \Phi(\dot{x}, x, t, \omega t) \quad (3)$$

где x – неизвестный вектор перемещений; M – матрица масс системы; t , $\omega t = \tau$ – соответственно «медленный» и «быстрый» время; F, Φ – соответственно «медленный» и «быстрый» время вектор силы.

Основная предпосылка для применения излагаемого подхода состоит в том, что изучаемое «установившееся по быстрому времени τ » движение системы имеет вид

$$x = X(t) + \Phi(t, \omega t) \quad (4)$$

где X , Φ – соответственно медленная и быстрая составляющие.

Предполагая, что функция Φ периодическая по $\omega t = \tau$, причем для определенности положим

$$\langle \Phi(t, \tau) \rangle = 0 \quad (5)$$

т. е. считаем равным нулю среднее значение быстрой составляющей по быстрому времени при «замороженном» медленном. Здесь и далее через $\langle \dots \rangle = \frac{1}{2\pi} \int_0^{2\pi} \dots d\tau$ обозначен оператор усреднения по быстрому времени $\tau = \omega t$, которые может входить в осредненное выражение как явно, так и через посредство функции Φ .

В нашем случае «быстрое» движение бурильной колонны вызывается прилагаемой к сердечнику периодической импульсной нагрузкой, а «медленное» движение вызывается наличием сил упругости, обуславливающих распространение продольной волны растяжения-сжатия и силы трения на локальном участке прихвата.

К примеру, скорость распространения продольной волны в стальной колонне $c = 5200$ м/с, при длине колонны $L = 100$ м время прохождения волны составит $T = \frac{L}{c} = 0,02$ сек, а период прилагаемой импульсной нагрузки τ выбирается в диапазоне $10^{-1} - 10^{-4}$ сек.

Чтобы показать возможность появления «медленного» движения перейдем от (3) к следующей системе интегро-дифференциальных уравнений для функций X и Φ :

$$M\ddot{X} = F(\dot{X}, X, t) + \langle F_1(\dot{X}, X, \Phi, \phi, t) \rangle + \langle \Phi(\dot{X} + \dot{\phi}, X + \phi, t, \tau) \rangle \quad (6)$$

$$\begin{aligned} M\ddot{\Phi} &= F_1(\dot{X}, X, \Phi, \phi, t) - \langle F_1(\dot{X}, X, \Phi, \phi, t) \rangle + \Phi(\dot{X} + \dot{\phi}, X + \phi, t, \tau) - \\ &\quad - \langle \Phi(\dot{X} + \dot{\phi}, X + \phi, t, \tau) \rangle \end{aligned} \quad (7)$$

где через

$$F_1(\dot{X}, X, \Phi, \phi, t) = F(\dot{X} + \dot{\phi}, X + \phi, t) - F(\dot{X}, X, t) \quad (8)$$

обозначено быстро изменяющаяся функция, обращающаяся в нуль при $\dot{\phi} = 0$, $\phi = 0$.

Система (6) и (7) эквивалентна исходному уравнению (3) независимо от темпа изменения функции X и Φ , по крайней мере в том смысле, что если найдено какое-нибудь решение этой системы X и Φ , то выражение $x = X + \phi$, будет решением уравнения (3); это устанавливается сложением уравнений (6) и (7) при учете (8).

Если известно решение $\Phi(\dot{X}, X, t, \tau)$ уравнение (7), то, подставив его в (6), получим

$$M\ddot{X} = F(\dot{X}, X, t) - W(\dot{X}, X, t) \quad (9)$$

где

$$W(\dot{X}, X, t) = -\langle \Phi(\dot{X} + \dot{\phi}, X + \phi, t, \tau) \rangle - \langle F_1(\dot{X}, X, \Phi, \phi, t) \rangle \quad (10)$$

Уравнение (9) есть уравнение для определения медленной составляющей $\dot{X}$, в котором наряду с обычной медленной силой F присутствует некоторая дополнительная медленная вибрационная сила W . Уравнение (9) представляет собой основное уравнение механики медленных движений, а вибрационная сила W является результатом усреднения по быстрому времени «собственно быстрой силы» F и силы F_1 , которая выделяется из медленной силы F по траектории движения системы.

При воздействии на сердечник импульсной периодической нагрузки и при наличии локального участка с сухим трением (прихватом) уравнение «медленного» движения колонны с сердечником в матричном представлении будут иметь следующий вид

$$M\ddot{X} = KX - W_F(X) - W_K(X), \quad (11)$$

где вибрационная сила $W_F(X)$ – медленная сила, вызванная наличием участка с сухим трением, а $W_K(X)$ связана с наличием сил упругости (K – матрица жесткости систем).

Таким образом показано, что при действии вибрации на нелинейные диссипативные системы, в последних возникает так называемое вибрационное перемещение, под которым понимается возникновение “направленного в среднем” движения за счет “ненаправленных в среднем” воздействий.

Для обеспечения эффективного продольного перемещения бурильной колонны, необходимо для параметров импульсной нагрузки на сердечник задать режим продольного резонанса, т.е. выбрать частоту нагружения, близкой к частоте собственных колебаний бурового инструмента с целью ликвидации прихвата инструмента и извлечения ее из скважины.

ЛИТЕРАТУРА

1. Комилов Т.О., Санетуллаев Е., Умедов Ш.Х. Экспериментальные исследования промывочных жидкостей, предотвращающих осложнения при бурении нефтяных и газовых скважин. 2019 Журнал. Технологии нефти и газа №1. – Москва, Страницы 42-43.
2. Komilov T.O., Ruzmanov F.I., Raximov A.A., Umedov Sh.X. Ways to create a quality wellbore for smooth casing flow // Palarch's journal of archaeology of egypt/egyptology VOL. 17 NO. 6.2020.
3. Комилов Т.О. Д.Р.Махаматхожаев Усовершенствованный состав бурового раствора для предупреждения поглощения промывочных жидкостей // “Нефтяное хозяйство” выпуск 1167- Москва, 2021. – С.68-74.
4. Шерстнев Н.М., Расизаде Я.М., Ширинзаде С.А. Предупреждение и ликвидация осложнений в бурении. М.:Недра, 1979.304с.
